

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2022 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz
www.goldenscripts.navoiy-uni.uz

BOSH MUHARRIR

Shuhrat Sirojiddinov

BOSH MUHARRIR

O’RINBOSARI

Karomat Mullaxo’jayeva (o’zbek)

Ziyoda Teshaboyeva (ingliz)

MAS’UL KOTIB

Ozoda Tojiboyeva

TAHRIR HAY’ATI

Zaynobiddin Abdirashidov

Karl Rayxl (Germaniya)

Seyhan Tanju (Turkiya)

Kamol Abdulla (Ozarbayjon)

Vahit Turk (Turkiya)

Isa Xabibeyli (Ozarbayjon)

Benedek Peri (Vengriya)

Teymur Kerimli (Ozarbayjon)

Eunkyung Oh (Koreya)

Mark Toutant (AQSh)

Boqijon To’xliyev

Qosimjon Sodiqov

Nurboy Jabborov

G’aybulla Boboyorov

Vali Savash (Turkiya)

Kimura Satoru (Yaponiya)

Hamidulla Dadaboyev

Aftondil Erkinov

Rashid Zohidov

Baxtiyor Abdushukurov

Almaz Ulvi (Ozarbayjon)

Dilnavoz Yusupova

Qo’ldosh Pardayev

Nodirbek Jo’raqo’ziyev

MUNDARIJA

ADABIYOTSHUNOSLIK

Husniddin Eshonqulov

Badiiy asarni sharhlash mezonlari:
mushtaraklik va o’ziga xosliklar

4

Alisher Razzoqov

Alisher Navoiy ijodida “but” ramzi bilan
bog’liq irfoniy ma’nolar talqini

18

MATNSHUNOSLIK

Ozod Alimov

Matn mas’uliyati va matnshunos majburiyati

36

Parviz Izzatillayev

“Latoyifnoma” va “Majolis un-nafois”
asarlarining matniy tadqiqi

61

Akrom Malikov

“G’aroyib us-sig’ar” devonidagi alif
bilan tugallanuvchi hamd g’azallarning
matniy xususiyatlari (*To’pqopi, Parij va
Dushanbe nusxalari asosida*)

79

Jaloliddin Jo’rayev

Badiiy Andijoniy va uning “Tajnis ul-lug’ot”
asarlari haqida

96

Ilova. Matn

104

EDITOR IN CHIEF	
Shuhrat Sirojiddinov	
DEPUTY EDITOR IN CHIEF	
Karomat Mullakhojaeva (Uzbek)	
Ziyoda Teshabaeva (English)	
EXECUTIVE SECRETARY	
Ozoda Tajibaeva	
EDITORIAL BOARD	
Zaynabiddin Abdirashidov	
Karl Rechl (Germany)	
Isa Habibeyli (Azerbaijan)	
Benedek Peri (Hungary)	
Teymur Kerimli (Azerbaijan)	
Eunkyung Oh (Korea)	
Mark Toutant (USA)	
Bakijan Tukhliev	
Kasimjan Sadikov	
Nurboy Jabborov	
Gaybullah Babayarov	
Vali Savash (Turkey)	
Onal Kaya (Turkey)	
Kimura Satoru (Japan)	
Vahit Turk (Turkey)	
Seyhan Tanju (Turkey)	
Aftandil Erkinov	
Rashid Zahidov	
Atabek Juraboev	
Bakhtiyar Abdushukurov	
Almaz Ulvi (Azerbaijan)	
Yusupova Dilnavoz	
Kuldosh Pardaev	
Nodirbek Jurakuziev	

CONTENTS	
LITERATURE	
Husniddin Eshankulov	
Concept of editing of literary work: commonality and specificity	4
Alisher Razzakov	
The Interpretation of the Mystical Meanings Related to the Symbol "Idol" in the Creation of Alisher Navo'i	18
TEXTOLOGY	
Ozod Alimov	
Task of textual scholar and responsibility of original text	36
Parviz Izzatillaev	
Textual study of "Latoyifnoma" and "Majolis un-nafois"	61
Akrom Malikov	
Textual features of hymns ending with alif in "Gharayib us-sigar" (<i>Based on Topkopi, Paris and Dushanbe copies</i>)	79
Jaloliddin Juraev	
Badii Andizhani and about his works "Tajnisul-lug'ot"	96
Appendix. Text	104

**ADABIYOTSHUNOSLIK
LITERATURE****Badiiy asarni sharhlash mezonlari:
mushtaraklik va o'ziga xosliklar**Husniddin Eshonqulov¹**Abstrakt**

Maqolada badiiy asarni sharhlash tushunchasi, jumladan, katta bir asarni to'liq – kitob holda sharhlash, lirik turning muayyan janrida yozilgan asarga sharhlar bitish singari an'analarning mavjudligi xususida so'z yuritiladi. Unda “tahlil”, “talqin”, “tafsir” va “ta'vil” singari istilohlarning mohiyatan “sharh”ga yondosh ma'nolarda qo'llanilishi, ulardagi mushtaraklik Rahmoniy kalom yoki badiiy, ilmiy, falsafiy, diniy, tasavvufiy asarlarni soha mutaxassisi, yirik tadqiqotchi olimlar tomonidan kitobxonga tushuntirishda namoyon bo'lishi, garchi ayrim o'rinlarda “oyat sharhi” jumlasini qo'llanilsa-da, uni oyatning izohi, tafsiri ma'nosida tushunish maqsadga muvofiqligi hamda ayni tushunchalarning o'ziga xosliklari manbalarga tayangan holda ko'rsatiladi. Sharhda tahlil va talqinga xos unsurlar mavjud bo'lsa-da, biroq uning tadqiqot yoki interperetatsiya sanalmasligi, tahlil o'z qamrovining kengligi, mutaxassisga yoki ommaga mo'ljallanganlik xarakteri va shu kabi tasniflari bilan sharhdan farqlanishi, sharhda, ko'pincha, o'quvchiga tushunilishi murakkab bo'lgan ilohiy-irfoniy tushuncha va iboralar, tamsil va timsol kabilarni soddaroq anglatish nazarda tutilishi, ayni jihatiga ko'ra sharh ommaga mo'ljallanishi kabir masalalar ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *sharh, tafsir, ta'vil, tahlil, talqin, yirik hajmli asarni sharhlash, lirik janrdagi asarlarni sharhlaish.*

Kirish

“Sharh” arabcha so'z bo'lib, “*izohlash*”, “*tushuntirish*” singari ma'nolarni anglatadi. Istiloh sifatida muayyan asarni imkon qadar

¹ Eshonqulov Husniddin Pirimovich – filologiya fanlari doktori (DSc), Buxoro davlat universiteti.

E-pochta: husniddin.eshonqulov72@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-4805-3879

Iqtibos uchun: Eshonqulov, H. P. 2022. “Badiiy asarni sharhlash mezonlari: mushtaraklik va o'ziga xosliklar”. *Oltin bitiglar* 1: 4–17.

soddaroq tushuntirishni nazarda tutadi. Sharh asar muallifi, noshiri, tarjimoni yoki soha mutaxassisi tomonidan amalga oshiriladi va unda sharhlanayotgan asarning qaysi davrga aloqadorligi, uning o'sha davr voqea-hodisalari, kishilari, ilm-fani bilan bog'liqligi, muayyan sabablarga ko'ra asarda to'liq tafsiloti keltirilmay, muallif tomonidan ishora qilingan voqeliklarning mohiyati xususidagi ma'lumotlardan iborat bo'ladi. Shuningdek, sharhda asardagi izoh-talab so'z, birikma va jumlarlar mohiyati ham ochib beriladi. U, odatda, sharhlanayotgan matndan keyin maqola yoki ma'lumot sifatida keltiriladi. Sharh "tahlil", "talqin", "tafsir" va "ta'vil" singari istilohlar bilan yondosh ma'noda qo'llansa-da, ular orasida mushtaraklik va o'ziga xosliklar mavjud. Bunday umumiylik va o'ziga xosliklarga aniqlik kiritish sharh va unga yaqin ma'noda qo'llanuvchi tushunchalarning mohiyatini anglash hamda sharhning badiiy asarni tushuntirishdagi vazifasini konkretlashtirishga imkon beradi.

Sharh ilmi ildizlari

Badiiyat namunalari, xususan, mumtoz badiiy asarlar sharhida muayyan o'ziga xosliklarning mavjudligi ko'zga tashlanadi. Chunonchi, unda ***bir yirik hajmli asarning bir kitob holida sharhlanlangani*** kuzatiladi. So'fi Olloyorning "Sabot ul-ojizin" asari buning yorqin namunasidir. Bu kitob adibning forsiy tilda bitilgan "Maslak ul-muttaqin" asariga turkiy tilda o'zi tomonidan yozilgan qisqa bayoni sanaladi. "Maslak ul-mutaqqin"da islom aqidasi masalalari Qur'oni karim va sunnat talablari asosida bayon etilgani bois, u eski maktablarning yuqori sinflarida darslik sifatida o'qitilgan. Shoir "Sabot ul-ojizin"ni "yoronlar" – murid-u do'stlarining iltimosiga ko'ra yozganini bayon etadi. "Sabot ul-ojizin" ham tez orada shuhrat qozonadi. Uning matnida arabiy, forsiy tillardagi hamda boshqa lahjalardagi so'zlar salmog'ining ko'pligi asarni soddaroq tilda sharhlashga ehtiyoj tug'dirdi. Bu vazifani Tojuddin Yolchuquli qizi Azizaning iltimosiga ko'ra bajargani uchun "Sabot ul ojizin"ga bitgan sharhini "Risolayi Aziza" deb nomlaydi [Рисолаи Азиза 2000, 256]. "Sabot ul-ojizin"ga yana bir sharh kitobni Sayyid Habibulloh ibni Sayyid Yahyoxon al-Farg'oniy al-Kobuliy yozgan. Uning sharhlari "Hidoyat ul-tolibin" deb nomlangan [Рисолаи Азиза 2000, 4].

"Sabot ul-ojizin"ga yozilgan sharhlarda, asosan, mazmun izohiga e'tibor qaratilgan, uning nazmda bitilganligi, shakli bilan bog'liq jihatlariga esa sharhlarda kam o'rin ajratilgan. Bu nodir asarga zamonaviy sharh bitib, "Ravoyih ur-rayhon" ("Rayhondan taralayotgan xush bo'ylar") deya nomlagan filologiya fanlari doktori Rashid

Zohid qarashlariga ko'ra: *...muayyan manbani o'rganishda mazmun izohi bilan chegaralanish sharhni faqat o'sha manba uchun xoslab qo'yadi, jarayonda qo'lga kiritilgan tajribaning ommalashuviga imkon bermaydi. Shuning uchun mazmun tadqiqi bilan parallel ravishda shaklga ham jiddiy e'tibor qaratish lozim* [Зохид 2018, 6].

“Ravoyih ur-rayhon”da shorih ayni masalaga e'tibor qaratish bilan birga uning yana bir muhim xususiyatini ham ta'minlab berdi. “Sabot ul-ojizin” o'z davrodayoq mashhur bo'lgani bois, uning qo'l-yozma va toshbosma nusxalari ham nihoyatda ko'p. Ulardagi matniy tafovutlarni ilmiy jihatdan o'rganib, asliyatga yaqin nusxani vujudga keltirish asardagi mazmun va g'oyani anglash nuqtayi nazari-dan muhimdir. “Ravoyih ur-rayhon”da “Sabot ul-ojizin”ning sharh uchun taqdim etilgan matni ilk bor matnshunoslik tadqiqidan o'tib, ilmiy-tanqidiy matn asosida amalga oshirilganligi bilan e'tiborga molikdir.

Islom aqidasi masalalariga bag'ishlangan “Sabot ul-ojizin”ga o'xshash asarlarga sharh bitish zarurati bo'lgani singari tasavvufiy istiloh va tushunchalardan bahs etgan asarlarga ham shunday sharhlar bitishga ehtiyoj bo'lgan. XIII-XIV asrning mashhur orif va shoir-laridan biri Shayx Sa'duddin Mahmud bin Aminiddin Abdulkarim bin Yahyo Shabustariy (h. 687/m. 1289 – h.720/m.1321) o'zining “Gulshani roz” asarida tasavvuf ta'limotining muhim masala va istiloh-tushunchalarini nazmiy talqin etadi. Xurosonlik shayx-shoir Amir Husayn Hiraviyning o'z davri ilm sohiblarini qiziqtirgan savol-lari haqida nazmda bitilgan she'riy nomasiga javob tarzida yozil-gan Mahmud Shabustariyning “Gulshani roz” asari Sohibqiron Amir Temurning ham sevib o'qib, zavqlanadigan asari bo'lgan. Bu asar Mahmud Shabustariy nomini dunyoga tanitgan. XVI asrdan “Gulshani roz”ga sharhlar yozila boshlangan. Ne'matulloh Vali-yning “Ravzayi athor” (“Pokiza bog'”) va Shamsiddin Muhammad Lohijiyning “Mafoteh ul-e'joz fi sharhi “Gulshani roz” (“Mo'jizalar kaliti yoki “Gulshani roz” sharhi”) nomli sharhlar ancha mashhur bo'lgan [Очилов 2013, 3-10].

Lirik asarlarga sharh bitish an'anasi

Lirik turdagi muayyan bir janrda yozilgan asarga sharhlar bitish an'anasi ham sharhnavislikning salmoqli qismi sanaladi. Aka-demik B. Valixo'jayev naqshbandiylikning Bahouddin hazratlaridan keyingi buyuk piri murshidi Xoja Ahror hazratlarining turli xil ijti-moiy faoliyat bilan birga ijodkorlik bilan ham shug'ullanganliklarini e'tirof etib, u zotning “*Risolayi havroiya*” asariga ham tavsif beradi.

Unda ifodalanishicha, bu asar mashhur shoir Abu Sayid Abulxayrning bir ruboiysi sharhiga bag'ishlangan. Bu bejiz emasdi. Chunki bu ruboiy Xoja Ahrorgacha bo'lgan davrda ham mashhur bo'lib, uning sharhiga bag'ishlab Sayid Ne'matulloh Valiy uch risola, Amir Sayid Qosim Anvor bir risola va Shayx Ozariy bir risola yozgan edilar [Валихўжаев 1994, 75]. Ushbu mashhur ruboiyning to'liq matni va tarjimasini adabiyotshunos E.Ochilov tomonidan "Gulshani roz" tarjimasiga bag'ishlangan kirish maqolada keltirilgan:

*Havro ba nazorayi nigoram saf zad,
Rizvon ba jab bimond-u, kaf bar kaf zad.
On xoli siyah bar on rux mutraf zad,
Abdol zi bim chang dar Mus'haf zad.*

Mazmuni: "Hurlar nigorimni ko'rish uchun saf tortdilar. Rizvon (jannat eshik og'asi) ham hayratlanib, qarsak chalib yubordi. U qora xol (mahbuba) yuzlariga parda tortilganida, abdol (Xudoning xos bandalari, yaqinlari) qo'rquvdan Qur'onga chang soldi" [Очилов 2013, 5].

Ruboiyda ma'rifiy istilohlarning qo'llanilishi uning zohiriy va botiniy ma'nolarini teran anglash uchun sharhlar bitishga ehtiyoj tug'dirgan. Shu bois "Ubaydiy" taxallusi bilan ijod qilgan Buxoro xoni Ubaydulloxonning (1486–1540) tasavvufiy ruhda yozilgan bir nechta ruboiylariga sharhlar bitilgan. Hasanxo'ja Nisoriyning ma'lumotiga ko'ra, olimlar rahnamosi Mavlono Asomiddin Ibrohim insho yozganda ko'p ma'nolarni mo'jaz va lo'nda kalomda bayon etish salohiyatiga ega bo'lgan. U hazrat Ubaydulloxonning peshindan keyin arabiy tilda badihatan ijod etgan bir ruboiysiga oqshomga qadar vaqt mobaynida bir arabcha risola tasnif qilishga ulguradi. Mazkur ruboiyning har bir misrasi bobida olti yuz ellik ma'no aytadi [Нисорий 1993, 127]. Ubaydiy irfoniy mohiyatni "dilpisand" – ko'ngilga xush yoquvchi iboralar bilan badiiy ifodalashga erishgan. Uning ayni mazmundagi ruboiylari "Maxdumi a'zam" nomi bilan tanilgan hazrat Maxdumi mavlono Kosoniy, ya'ni Xoja Ahmad bin mavlono Jaloliddin Kosoniyning ham e'tiborini tortgan. Hazrat Maxdumi mavlono Kosoniy Ubaydiyning quyidagi forsiy ruboiysiga sharh yozgan hamda muallifning maqomotini ham unda bayon qilgan:

*Ahvoli nim, ey do'st, yake-du binam,
Har chiz, ki binam, hama bo o' binam.
Mustag'riqi "hu" chunon shudam dar hama hol,
"Hu" go'yam-u, "hu" bishnavam-u, "hu" binam.*

Mazmuni:

Yarim ahvolimni, ey do'st, bir-ikki ko'raman.

Nimani ko'rsam, barchasini u bilan birga ko'raman.

Barcha holatda ham "hu"ga shunchalar g'arq bo'libmanki,

Faqat "hu" deyman, "hu"ni eshitaman, "hu"ni ko'raman

[Нисорий 1993, 23].

“Tahlil”, “talqin”, “tafsir” va “ta’vil” singari istilohlar mohiyat e’tibori bilan “sharh”ga yondosh ma’nolarda qo’llanadi. Ulardagi mushtaraklik Rahmoniy kalom, yoki badiiy, ilmiy, falsafiy, diniy, tasavvufiy asarlarni soha mutaxassisi, yirik tadqiqotchi olimlar tomonidan kitobxonga **tushuntirishda** namoyon bo’ladi. Ayni choqda ular orasida muayyan tafovutlar ham mavjud. Bunday farqliliklar, avvalo, tushuntirilishi nazarda tutilgan manbalarga borib taqaladi. Qur’oni karim oyatlarining tushuntirilishiga nisbatan “tafsir”, “ta’vil” istilohlari, ilmiy, badiiy asarlarga nisbatan esa “sharh”, “tahlil”, “talqin” atamaları qo’llaniladi.

“Tafsir” va “ta’vil” istilohlari bir-biri bilan yaqinlik hosil qilsada, ularning o’zaro farqlanuvchi jihatlari ham mavjud. Buning uchun, avvalo, tafsir haqida muayyan tushunchaga ega bo’lish talab etiladi. “Izohlash”, “ravshanlashtirish” va “har bir jumladan ko’zlangan murodni ochib berish” ma’nolarini anglatuvchi tafsirning mohiyati Rahmatulloh qori Obidovning “Qur’on va tafsir ilmlari” kitobida imkon qadar kengroq izohlangan. Muallif Qur’oni karimning so’zma-so’z tarjimasi va ma’naviy tarjimasi haqida fikr yuritarkan, oyatlarning ayrimlarini, so’zma-so’z tarjima qilinsa ham tushunish mumkinligi, bunday tarjimaning “tarjimayi bilmisl” (“asliga o’xshash tarjima”) va “tarjimayi big’ayril misl” (“asliga o’xshamagan tarjima”) singari turlari borligini e’tirof etadi. Qur’onning ma’naviy tarjimasida esa uning oyatlari boshqa tilda sharhlanib, ma’nolari aniqlashtirib boriladi. Bu ikki tarjimaning bir-biridan farqi “Al-Isro” surasining 29-oyati misolida aniqlashtiriladi. Rahmatulloh qori Obidov oyatning ma’nosi so’zma-so’z tarjimada “*Qo’lingni bo’yingga bog’lab qo’yma va uni juda uzun qilib cho’zma*” [Обидов 2003, 57] tarzida kulgili va noaniq ma’no anglatishi, ma’naviy tarjimada esa oyat ma’nosi “*Xayr-u ehsonda haddan ortiq ziqnalik qilma va isrof garchilikka yo’l qo’yma*” [Обидов 2003, 57] shaklida tushunarli ma’noni ifodalashini ma’lum qiladi.

“Qur’on va tafsir ilmlari” kitobida tafsir va ma’naviy tarjima orasida bir qator o’xshash jihatlarning mavjudligi qayd etilgan. Jumladan, tafsir va ma’naviy tarjima shu sohada zarur ilmlarga ega bo’lgan tarjimon va mufasssirlar tomonidan amalga oshiriladi va ular hadis ilmi, arab tilini mukammal bilishlari lozimligi singari

qator fazilatlarga ega bo'lishlari bilan Allohning murodini insonlarga tushuntirishga harakat qilishadi. Tafsir tilining Qur'oni karim tilida bo'lishi uning ma'noviy tarjimadan farqlanuvchi asosiy jihati sanaladi. Rahmatulloh qori Obidov tafsir bilan bog'liq Abu Hayyon, Imom az-Zarkashiy singari bir qancha olimlarning ta'riflarini keltirib, ularni quyidagicha umumlashtiradi: *Tafsir deb, Qur'oni karim oyatlaridan Allohning murodini inson o'z aqli darajasida tushunib, boshqalarga ham tushuntirib bera olishiga aytiladi* [Обидов 2003, 58]. Bu umumlashma-xulosa tafsir haqida muayyan taassurotni uyg'otishga xizmat qilsa-da, Imom as-Suyutiyning "Al-Itqon" asarida ayrim olimlarga nisbat berilgan quyidagi ta'rif bu qur'oniy ilmning tarkibiy qismlari xususida ma'lumot berishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi: *"Tafsir – oyatlarning nozil bo'lishi, ularning sabablari, qissalar, Makkada nozil bo'lgan oyatlar bilan Madinada nozil bo'lgan oyatlarning tartibi, muhkam (ma'nosi aniq) va mutashobeh (ta'vilga muhtoj), nosix (hukmni bekor qiluvchi) va mansux (hukmi bekor qilingan), oyatlarning xususiyligi va umumiyligi, mutlaqi va muqayyadi, mujmali va musaffari, halol haqidaligi va harom haqidaligi, va'da va vaid, amr va nahiy hamda ibratli oyatlarni o'rganmoqdir"* [Обидов 2003, 58].

Ushbu ta'rifda oyatlarga xos bo'lgan xususiyatlar o'z ifodasini topgan, ularni tafsir qilishda qanday ilmlarga tayanish mumkinligi Abu Hayyon ta'rifida aniq bayon etilganligi kuzatiladi: *"Tafsir shunday ilmki, bu bilan Qur'on lafzlarining qanday nutq qilinishi (qiroat ilmi), u so'zlarning nimaga dalolat qilishi (lug'at ilmi), har bir so'z va jumlaning hukmlari (sarf, nahv, bayon va badiy' ilmlari), jumlaning o'zidan bevosita tushuniladigan ma'nolarni (haqiqat va majoz ilmi), shuningdek, nosix va mansux oyatlar, oyatlarning nozil bo'lish sabablari hamda tarixiy qissalardan ko'zlangan maqsadlar o'rganiladi"* [Обидов 2003, 57-58].

Qur'oni karim aksariyati ilmsiz, qoloq bo'lgan qavmga nozil qilingan bo'lsa-da, ularning oralarida so'zamolligi bilan shuhrat qozongan shoirlar ham bo'lgan va bunday kishilar arab tiliga oid *balog'at – so'zni ixcham, go'zal va mazmundor qilib ifodalash, badiiy ifoda, maqsadni go'zal iboralar bilan anglatish hamda fasohat – so'zning ochiq, ravshan, ravon, yoqimli, qoidaga muvofiq bo'lishi, uslubining chiroyliligi* singari ilmlardan yaxshi xabardor bo'lishgan. Shuningdek, ularning ijodida so'zlarning majoziy, kinoyaviy ma'nolari o'z ifodasini topgan. Qur'oni karim ham ana shunday badiiy jihatdan sayqallangan tilda, balog'at-u fasohatda nihoyatda mukammal bo'lgan, inson tomonidan ijod etilishi mumkin bo'lmagan uslubda

nozil qilingan edi. Shu bois undagi oyatlarning mohiyatini sahobalar-ning aksariyati ham teran tushunish imkoniyatiga ega bo'lishmagan. Bunday iqtidor payg'ambarimiz Muhammad s.a.v.ga "Qiyomat" surasining 17-19-oyatlarida e'tirof etilganidek, Alloh taolo tomonidan in'om etilgan, ya'ni: 17. *Zero uni (sizning dilingizga) jamlash ham, (tilingizda) qiroat qildirish ham Bizning zimmamizdadir.* 18. *Bas, qachon Biz (ya'ni Jabroil farishta) uni (ya'ni har bir vahiyni) o'qib bitganimizdan so'nggina siz ham uni o'qishga ergashing!* 19. *So'ngra uni – Qur'onni bayon qilib berish ham, albatta, Bizning zimmamizdadir* [Қуръони карим 1992, 593]. Shu bois sahobalar mohiyati anglanmagan oyatlarning ma'nosini Payg'ambar s.a.v.dan so'rab, tushunishga harakat qilganlar. Shunday ekan, Qur'on oyatlarini tafsirlash dastlab Muhammad s.a.v. taraflaridan amalga oshirilgan. Qur'on oyatlari tafsiriga bag'ishlangan hadislar nihoyatda qimmatli manba bo'lgani bois sahobalarning tafsirlarida Qur'onni hadis bilan tafsir qilish usulidan ham foydalanilgan [Обидов 2003, 64-65].

Sahobalar orasida Qur'onni tafsir qilish bilan shuhrat topganlar ozchilikni tashkil etadi. Avvalgi o'ntalikda dastlab to'rt xalifa nomlari keltiriladi. Xalifa Umar ibn al-Xattob r.a.ning Qur'on oyatlari tafsirida nihoyatda mohir bo'lganliklari, undagi ramziy ishoralarning mohiyatini teran anglaganliklari haqida bir qancha rivoyatlar mavjudligi kuzatiladi. Xususan, "Moida" surasining 3-oyati nozil bo'lgan paytda, barcha sahobalar *Dinimiz mukammal bo'ldi*, – deya sevin-ganlarida, u kishi: *Bu xabar xursandchilikka emas, musibatga, ya'ni Payg'ambarimiz s.a.v.ning vafotlariga ishora*, – deya yig'laganlari, bu voqeadan so'ng Muhammad s.a.v.ning bor-yog'i 81 kungina yasha-ganliklari haqidagi rivoyat [Обидов 2003, 61] fikrimizning yorqin dalilidir. Bu borada hazrati Ali r.a.ga bog'liq rivoyatlar nisbatan ko'pligi bilan ajralib turadi. Tafsir bobida Payg'ambarimiz s.a.v.ning amakivachchalari Abdulloh ibn Abbos r.a. shuhrat qozongan musav-vir sifatida e'zozlanadi.

Ibn Abbos o'z tafsir va ta'villarida ilohiy kitoblardagi rivoyat-lardan, Qur'on oyatlarida kam qo'llanuvchi so'zlarning ma'nosini aniqlashtirishda esa johiliyat davri shoirlarining she'rlaridan foyda-langani. Ikki yuzdan ortiq rivoyatlarda Ibn Abbosning ana shunday she'rlardan foydalanganligi haqida ma'lumotlar keltiriladi [Обидов 2003, 67-68].

"Qur'on va tafsir ilmlari"da qaytmoq ma'nosini anglatuvchi ta'vilning oyatlarda *tafsir va ta'vin; ofiyat va oqibat; bashoratning amalga oshishi; tushning ma'nosi; amalga oshirilgan ishning sababi* singari ma'nolarda ham qo'llanganligi qayd etiladi. Undagi ma'lu-

motlarga ko'ra, qadimgi olimlar tafsir va ta'vilni istilohiy ma'noda bir tushuncha sifatida talqin etganlar. Keyinchalik, xususan, fiqh – islom huquqshunosligi bilan shug'ullangan olimlar ta'vilni *so'zning quvvatli ma'nosidan kuchsiz ma'nosiga qaytish* tarzida ta'riflaganlar. Bu ta'rifdan ko'p ma'noli so'zga taalluqli o'z va ko'chma ma'noning muayyan bir oyat matnida voqelanganligi xususida fikr yuritilganligini sezish mumkin. “Kuchsiz ma'no” deganda, so'zning ko'chma ma'nosi nazarda tutiladi. Alloh kalomida ham uning murodi ifodasida so'zning ko'chma ma'nosi nazarda tutilganini muayyan dalillar asosida isbotlash zarur sanaladi, aks holda ta'vil fosid – buzilgan, nojo'ya amalga oshirilgan bo'lib chiqadi. Ta'vilning tafsirdan keyinchalik farqlanishi payg'ambarimiz Muhammad s.a.v. va sahobayi kiromlardan *manqul* – naql qilingan ma'nolardan tashqari, *mustanbat* – matndan ijtihod (sa'y-harakat) bilan anglangan ma'nolarga ehtiyoj tug'ilganiga borib taqaladi.

Tahlil va talqin imkoniyatlari, vazifasi

Sharh bilan umumiy jihatlar mavjud bo'lgan, badiiy va ilmiy asarlarning tushuntirilishiga nisbatan qo'llanuvchi tahlil va talqin atamalarining o'ziga xos jihatlar ham mavjud. Jumladan, **tahlil** arabcha so'z bo'lib, *parchalash, maydalash, yo'q qilish; eritish; yechish; hal qilish* singari ma'nolarni anglatadi. Uning ilmiy istiloh sifatidagi ma'nosida ham sanab o'tilgan lug'aviy ma'nolar bilan bir qator aloqadorlik mavjud. Tahlil ilmiy, falsafiy, ilohiy-irfoniy, didaktik, badiiy asarlarga nisbatan qo'llaniladi. Birgina uning badiiy asarga nisbatan qo'llanilishining quyidagicha ta'riflanganiga guvoh bo'lish mumkin: ... *adabiy asarning mazmun-mohiyatini idrok etish, uning yaxlit estetik hodisa sifatidagi mavjudligini turli aspektlarda o'rganib o'ziga xosligini ochib berish va qimmatini belgilashga qaratilgan hissiy-intelektual faoliyat* [Куронов ва б., 2013, 52].

Ruscha “analiz” so'zi bilan ma'nodosh sanalgan tahlil butunni anglash uchun, avvalo, uni qismlarga ajratish bilan ish ko'radi. Qismning butun bilan aloqasi, uning tarkibiy qism sifatidagi mohiyati, boshqa qismlar bilan aloqadorligi singari masalalarni o'rga-nishni nazarda tutadi. Tahlil sharhga nisbatan ancha keng tushuncha. Bu unga berilgan ta'rifdan ham anglashilib turadi. Tahlilning sharhga xos *adabiy asarning mazmun-mohiyatini idrok etishga* yo'nalganligi uning bir jihatidir. Tahlil qamrovining kengligi badiiy asarning yaxlit estetik hodisa sifatida mavjudligini turli aspektlarda o'rganishida namoyon bo'ladi. Chunonchi, badiiy asar filologik jihatdan tahlil qilinadigan bo'lsa, u tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik,

lingvopoetik singari bir qancha aspekt – sathlarda tahlil jarayoniga tortilishi mumkin. Yoxud asarning badiiy qurilishi nuqtayi nazaridan tahlilini ko‘z oldiga keltirish bilan ham uning filologik yo‘nalishda tahlil etish metodlari ko‘p ekanligini anglash mumkin. Shu bilan birga badiiy asar didaktik jihatdan ham tahlil qilinadi. Bunda muayyan bir asarning belgilangan vaqtda o‘qituvchi-o‘quvchi hamkorligidagi tahlili amalga oshiriladi.

Tahlil va talqinning o‘zaro yaqinligi tahlil jarayonida talqin amalining mavjudligida namoyon bo‘ladi. Arab tilida *tushuntirish*, *ta’lim berish* ma’nosini anglatuvchi talqin ruscha interperetatsiya bilan ma’nodoshlik hosil qiladi. *Keng ma’noda “talqin” so’zi o’zga tomonidan aytilgan gap yoxud yozilgan asar... mazmunini anglash, uni ma’lum yaxlitlikda tushunish va tushuntirish ... ma’nolarini anglatadi* [Курочков Ба Ё., 2013, 52].

Taniqli adabiyotshunos N.Komilovning quyidagi mulohazalari tahlil va talqinning sharhdan farqlanuvchi muayyan jihatlariga aniqlik kiritish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir: “Badiiy asar, jumladan, g‘azalni sharhlashning o‘z talablari bor. Avvalo aytish kerakki, sharh bu hamma vaqt asarning o‘zini anglash uchun yordamchi vosita, u hech qachon shoir asarlarining o‘rnini bosa olmaydi. Sharh, shu kabi tom ma’nodagi adabiy tanqid yoxud tadqiqot ham emas, garchi unda tadqiqodiy va interpretatsion xususiyatlar bo‘lsa ham. Sharhning bosh maqsadi... asarning (jumladan, g‘azalning) qiyin iboralari, ko‘p ma’noli murakkab o‘rinlarini soddaroq qilib tushuntirishdir. Shunday bo‘lgach, qadimgi sharhlarda ko‘proq istilohlar, tasavvufiy-irfoniy iboralarning mag‘zini chaqishga e’tibor qilingan. Shu kabi asardan asarga, davrdan davrga o‘tib kelgan tushunchlarning ma’no o‘zgarishlari, timsol va tamsillar izohlangan” [КОМИЛОВ 2012, 3].

Ta’kidlash lozimki, tahlil-u talqin ham sharh singari badiiy, ilmiy, falsafiy, tasavvufiy asarni anglash uchun bir vosita. Sharhda tadqiqotda kuzatilgani singari tahliliy mulohazalarga o‘rin berilsa-da, ular ko‘pincha o‘quvchiga notanish bo‘lgan istilohlar, tasavvufiy-irfoniy iboralar, timsol va tamsillar, ijodkor yashagan davr ruhining mohiyatini talqin etishga qaratilgan bo‘ladi. Ayni jihatiga ko‘ra sharhlash usuli badiiy, ilmiy, falsafiy, tasavvufiy asarlar tahlili jarayonida ham kuzatiladi. Jumladan, A.Hayitmetovning “Navoiy lirikasi”, Y. Is’hoqovning “Navoiyning ilk lirikasi”, “Navoiy poetikasi” singari kitoblarida ulug‘ shoirning lirik asarlari muayyan bir masala yuzasidan tahlilga tortilarkan, ulardan tanlangan namunalarning imkon qadar ixchamroq sharhlari amalga oshirilganini kuzatish mumkin.

Chunonchi, A.Hayitmetov "Navoiy lirikasi"da bir qancha g'azallar sirasida Alisher Navoiyning *"Tomida ermas kabutar xayli bir jur'at bila"* misrasi bilan boshlanuvchi g'azalining g'oyaviy-badiiy yo'nalishi nihoyatda ravshan va aniqligini dalillash, bunda kompozitsiya fikrlarni bir-biriga qorishtirib ifodalashga emas, she'r g'oyasi hamda formasining sodda va tushunarli bo'lishiga qaratilganini asoslash niyatida ushbu g'azalning ixcham sharhiga o'rin beradi [Хайитметов 1961, 95-96]. Xuddi shunday g'azallarning ixcham sharhi Y.Is'hoqovning "Navoiy poetikasi"da ham kuzatiladi. Adabiyotshunos radd ul-matla'ning muhim poetik funksiyalarini konkretlashtirish maqsadida Alisher Navoiyning *"Xushturur gulgun qadah davrinda gulbargi tari"* misrasi bilan boshlanuvchi g'azalini ixcham sharhlaydi [Исхоков 1993, 137-139].

Ta'kidlash lozimki, bunday sharhlarda g'azal mazmunining yoritib berilishi bir vosita vazifasini bajarib, undan tadqiqotchi tomonidan qo'yilgan masalaga aniqlik kiritish ko'zlanadi. Shu bois, bunday ixcham sharhlar, ko'pincha, soha mutaxassislari, adabiyot muhiblariga yo'naltirilgan bo'ladi. Sharhlar alohida amalga oshirilganda ham yoki muayyan bir masala tahlilini amalga oshirish jarayonida qo'llanganida ham ular soha mutaxassislari – shorihlar tomonidan yoziladi. Bu borada yetarli malakaga ega bo'lmagan kishi tomonidan bitilgan sharhlar muvaffaqiyat qozonmaydi. Tahlil-u talqinlar esa turlicha bo'lishi mumkin. Badiiy asarni o'quvchi, o'qituvchi yoki tadqiqotchi o'z bilim doirasiga ko'ra ham talqin qilishi mumkin. Bunda o'quvchi va o'qituvchi hamkorligida amalga oshirilgan tahlillar og'zaki tarzda bo'lib, yuqorida ta'kidlanganidek, muayyan vaqt oraliq'ida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ijodkor badiiy asarni yaratishdan ko'zlagan adabiy niyatini ham badiiy talqin etganligi kuzatiladi. Jumladan, Alisher Navoiy o'ziga qadar Xusrav va Shirin muhabbati mojarolariga bag'ishlab yozilgan asarlardan "Farhod va Shirin"ni keskin farqlanuvchi doston bo'lishi niyatida qalamga olganini quyidagicha badiiy talqin etadi:

*Burun jam' et nekim bo'lg'ay tavorix,
Borida ista bu farxunda tarix.
Topilg'ay shoyad andog' bir necha so'z,
So'z aytur elga ul yon tushmag'ay ko'z.
Ani nazm etki tarhing toza bo'lg'ay,
Ulusqa mayli beandoza bo'lg'ay.
Yo'q ersa nazm qilg'onni xaloyiq
Mukarrar aylamak sendin ne loyiq.
Xush ermas el so'ngincha raxsh surmak,*

*Yo'likim, el yugurmishtur yugurmak.
 Birovkim bir chamanda soyir erdi,
 Nechakim gul ochilg'on ko'rdi, terdi.
 Hamul yerda emas gul istamak xo'b,
 Bu bo'ston sahnida gul ko'p, chaman ko'p*

[Навоий 1991, 44].

Alisher Navoiy mazkur baytlarda sayyor sujet asosida doston bunyod etishdagi o'ziga xos ijodiy uslubidan o'quvchini voqif etadi. Shoir o'ziga murojaat etib, dastlab shu mavzuda yozilgan asarlarni jamlash, ularni o'rganish lozimligini ta'kidlaydi. Ijod – yangi, ohori to'kilmagan so'z aytish, aytganda ham, nihoyatda nazokat bilan she'rxon his-tuyg'ularini junbushga keltiradigan darajada aytishdir. Ulug' shoir Farhod, Xusrav va Shirin muhabbati mojarolari mavzusida bitilgan asarlarda hali ayni mavzuda aytilmagan so'zlar topilishidan umidvorligini bayon etadi. Mana shu aytilmagan so'z bilan asar toza tarhda, ya'ni yangi reja asosida nazm qilinsa, u bir xil qolipdagi andozalardan xoli bo'ladi. Shuningdek, shoir o'zidan oldin ijod etilgan badiiy yaratmalarni taqlidan qayta takrorlashni el oti ortidan ot choptirish yoki birov bir chamanda sayr qilib ochilgan gullarni tergan-u, yana o'shanday dilkash gullarni izlashga vaqt sarflashdek behuda harakatga qiyoslaydi. Bunday chekilgan "zahmat"ni "xush ermas" – deya baholaydi. "*Bu bo'ston sahnida gul ko'p, chaman ko'p*" misrasida ijod maydonining sarhadsizligi-yu nihoyatsizligini nazarda tutadi. Undagi "*bo'ston sahn*i" istiorasi xamsanavislikdagi Farhod, Xusrav va Shirin muhabbati haqidagi an'anaviy mavzuni, "*gul*", "*chaman*" istioralari esa ayni mavzuda hali badiiy talqin etilmagan jihatlarini ifodalaydi. Mumtoz shoirlar, xususan, Alisher Navoiyning turli janrlardagi nazm namunalarida muallif adabiy niyatining badiiy talqini ruhida bitilgan ko'plab satrlar, muayyan janr namunalari uchraydiki, ulardan shunday asarlarning sharh-u tahlillarida unumli foydalanish mumkin. Ko'rinadiki, talqinga xos bo'lgan xususiyat uning tahlil-u sharhlar orasida namoyon bo'lishida kuzatiladi. Albatta, bunda yuqorida ko'rib o'tilgani singari ijodkorning o'z adabiy niyatini badiiy talqin qilishi istisnolidir.

Taniqli adabiyotshunos N.Jumaxo'ja g'azal talqinlarini uch turkumga bo'lib tasniflaydi. Biroq undagi yondashuvga e'tibor qaratilsa, fikr tahlil xususida yuritilganligi aniqlashadi. Olimning quyidagi mulohazalari fikrlarimizning yorqin dalilidir: "To'g'ri va mukammal tahlilga erishish uchun muayyan o'lchov-mezonlarga tayanib ish tutish ma'qul. G'azal tahlilining mezonlarini yaratish

va unga amal qilish esa mutaxassis olimlardan tortib endigina mutolaaga kirishayotgan o'quvchiga ham zarur. Mezonlarini aniqlash uchun mavjud va endi yaratilajak g'azal talqinlarini shartli ravishda uch turga ajratish mumkin. 1. Ommaviy talqin. 2. Ilmiy talqin. 3. Qomusiy talqin [Жымаыџжа 1996, 5]". Modomiki, mulohaza to'g'ri va mukammal tahlil xususida ekan, uni tasniflashda ham "talqin" emas, balki "tahlil" atamasi qo'llanilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Zero, bunday shartli tasnifni g'oyaviy-badiiy jihatdan tahlil jarayoniga tortilgan g'azallarga nisbatan qo'llanilishi o'rinlidir. Unda tahlillar asosida uni amalga oshiruvchi muallifning talqinlari o'z ifodasini topadi.

O'rni kelganda ta'kidlash lozimki, badiiy asar tahlil-u sharhiga nisbatan "mukammal tahlil", "mukammal sharh" birikmalarini qo'llab bo'lmaydi. Negaki, tahlil-u sharhlar asar muallifining adabiy niyatini tushuntirishga qaratilgan bo'lib, unda tahlil yoki sharhni amalga oshiruvchining subyektiv mulohazalari, talqinlariga o'rin beriladi. Bunday talqinlarda asar muallifining murodi nechog'lik to'g'ri talqin etilganligi munozarali bo'lishi mumkin.

Lirik asarlar, jumladan, g'azalga xos g'oyaviy-badiiy tahlil-ning N.Jumaxo'ja tomonidan tavsiya etilgan shartli tasnifi, albatta, ilmiy tamoyillarga tayanilgan mushohadalar mahsuli sifatida qadrlidir. Sharh borasida esa bunday tasniflar amalda qo'llanilmaydi, chunki sharhlarda tushuntirish ishlari ommaga qaratilganligi bilan xarakterlanadi.

Xulosa

Kuzatishlardan ayonlashadiki, sharh tushuntirish, izohlash xarakterida yozilishiga ko'ra tafsir, ta'vil singari ilohiy kalomning tushuntirilishi nazarda tutilgan tushunchalar qatorida tursa-da, tafsir va ta'vil Qur'on tilida bo'lishi va shu ilohiy kitob oyatlariga nisbatan qo'llanilishiga ko'ra sharhdan farqlanadi. Garchi ayrim o'rinlarda "oyat sharhi" jumlasini qo'llanilsa-da, uni oyatning izohi, tafsiri ma'nosida tushunish maqsadga muvofiq sanaladi. Sharhda tahlil va talqinga xos unsurlar mavjudligi kuzatiladi, biroq tahlil o'z qamrovining kengligi, mutaxassisga yoki ommaga mo'ljallanganlik xarakteri va shu kabi tasniflari bilan sharhdan farqlanadi. Sharhda, ko'pincha, o'quvchiga tushunilishi murakkab bo'lgan ilohiy-irfoniy tushuncha va iboralar, tamsil va timsol kabilarni soddaroq anglatish nazarda tutiladi. Ayni jihatiga ko'ra sharh ommaga mo'ljallangandir. Badiiy va ilmiy asarlarga yozilgan sharhlarda bunday asarlarning badiiy qurilishi xususida fikr yuritilsa-da, unda mazmunni

tushuntirish ustuvorligi nuqtayi nazardan yondashilganligi kuzatiladi.

Adabiyotlar

- Хайитметов, Абдуқодир. 1961. *Навоий лирикаси*. Тошкент: Фан.
- Исҳоқов, Ёқубжон. 1983. *Навоий поэтикаси*. Тошкент: Фан.
- Жумахўжа, Нусратулло. 1996. *Сатрлар силсиласидаги сеҳр*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Комилов, Нажмиддин. 2012. *Маънолар оламига сафар*. Тошкент: Tamaddun.
- Навоий, Алишер. 1991. *Фарҳод ва Ширин*. МАТ. XX томлик, 8-том. Тошкент: Фан.
- Нисорий, Ҳасанхўжа. 1993. *Музаққир ул-аҳбоб* (Дўстлар ёдномаси). Форс тилидан Исмоил Бекжон таржимаси. Тошкент: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти.
- Обидов, Раҳматуллоҳқори. 2003. *Қуръон ва тафсириллари*. Тошкент: Тошкент Ислон университети нашриёт матбаа бирлашмаси.
- Очилов, Эргаш. 2013. “Соҳибқирон севиб ўқиган китоб”. *Шайх Маҳмуд Шабустарий*. Тошкент.
- Қуронов, Д., Мамажонов, З., Шералиева, М. 2013. *Адабиётшунослик луғати*. Тошкент: Akademnashr.
- Қуръони карим. 1992. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. Тошкент: Чўлпон.
- “Рисолайи Азиза” – “Сабот ул-оғизин” шарҳи. 2000. Тузувчи Б.Ҳасан. Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти.
- Валихўжаев, Ботурхон. 1994. *Хожа Аҳрор тарихи*. Тошкент: Ёзувчи.
- Зоҳид Р. 2018. *Сўфи Оллоёр “Саботул оғизин” шарҳи*. Равойихур райҳон. Тошкент: Sharq.
- Шабустарий, Шайх Маҳмуд. 2013. *Гушани роз*. Форсийдан Ўзбекистон халқ шоири Жамол Камол таржимаси. Тошкент: Tamaddun.

Concept of editing of literary work: commonality and specificity

Husniddin Eshonkulov¹

Abstract

The article discusses the concept of interpretation of fiction, its unique traditions, such as the interpretation of a large work in the form of book, the completion of comments on a work of a particular genre of lyrical type. It includes the use of terms such as "analysis", "interpretation",

¹ Husniddin P. Eshonkulov – Doctor of Philology (DSc), Bukhara State University.

E-mail: husniddin.eshonkulov72@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-4805-3879

For citation: Eshonkulov, H. P. 2022. “Concept of editing of literary work: commonality and specificity”. *Golden scripts* 1: 4–17.

"decoding" and "denomination" in the sense of "commentary". The fact that mystical works are explained to the reader by an expert in the field, a major researcher, although in some places the phrase "verse commentary" is used, it is expedient to understand it in the sense of interpretation of the verse, and the specificity of the same concepts determined based on sources. Although the commentary has elements of analysis and interpretation, it is not considered research or interpretation, the analysis differs from the commentary by the breadth of its scope, the nature of its expertise or publicity, and similar classifications, the commentary is often understood by the reader complex divine-mystical concepts and expressions, parables and symbols, etc.

Key words: *comment, interpretation (explanations to the parts of Koran), denomination (explanations of multi-meaning words in the parts of Koran) to interpret a work as a book, to complete a commentary on a work written in a particular genre of the lyrical type.*

References

- Hayitmetov, Abduqodir. 1961. *Navoiy lirikasi*. Toshkent: Fan.
- Is'hoqov, Yoqubjon. 1983. *Navoiy poetikasi*. Toshkent: Fan.
- Jumaxo'ja, Nusratullo. 1996. *Satrlar silsilasidagi sehr*. Toshkent: O'qituvchi.
- Komilov, Najmiddin. 2012. *Ma'nolar olamiga safar*. Toshkent: Tamaddun.
- Navoiy, Alisher. 1991. *Farhod va Shirin*. MAT. XX tomlik, 8-tom. Toshkent: Fan.
- Nisoriy, Hasanxo'ja. 1993. *Muzakkir ul-ahbob* (Do'stlar yodnomasi). Fors tilidan Ismoil Bekjon tarjimasi. Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti.
- Obidov, Rahmatulloh qori. 2003. *Qur'on va tafsir ilmlari*. Toshkent: Toshkent Islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi.
- Ochilov, Ergash. 2013. "Sohibqiron sevib o'qigan kitob". *Shayx Mahmud Shabustariy*. Toshkent.
- Quronov, D., Mamajonov, Z., Sheraliev, M. 2013. *Adabiyotshunoslik lug'ati*. Toshkent: Akademnashr.
- Qur'oni karim*. 1992. O'zbekcha izohli tarjima. Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur. Toshkent: Cho'lpon.
- "Risolayi Aziza" – "Sabot ul-ojizin" sharhi. 2000. Tuzuvchi B.Hasan. Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.
- Valixo'jaev, Boturxon. 1994. *Xoja Ahror tarixi*. Toshkent: Yozuvchi.
- Zohid R. 2018. *So'fi Olloyor "Sabotul ojizin" sharhi*. Ravoyihur rayhon. Toshkent: Sharq.
- Shabustariy, Shayx Mahmud. 2013. *Gushani roz*. Forsiydan O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol tarjimasi. Toshkent: Tamaddun.

Alisher Navoiy ijodida “but” ramzi bilan bog‘liq irfoniy ma’nolar talqini

Alisher Razzoqov¹

Abstrakt

Ushbu maqolada Alisher Navoiy she’riyatidagi “but” istilohining tasavvufiy ramz sifatidagi bir qanacha ma’nolari o’rganilgan. Dastlab ushbu so’zning Alisher Navoiy ijodidagi birlamchi, ya’ni o’z ma’nosida qo’llanilishi dostonlaridan olingan parchalar hamda lirik asarlardagi, xususan, g’azallari misolida tekshirilgan. Shundan so’ng muallif ushbu so’z-tushuncha – timsolning maxsus tasavvufiy istiloh sifatida o’zlik, nafs, Haq sifatlarining namoyon bo’lishi kabi ma’nolari badiiy ifodasini tahlil etgan. Timsol mohiyatini to’laroq ochish uchun u bilan parallel qo’llanilgan oshiq, orif, shayx, zunnor, Ka’ba, may, zohid kabi timsollar ham o’rganilgan. Tasavvufiy istilohlarning ma’nolarini kengroq izohlash maqsadida, avvalo, Alisher Navoiyning o’z ta’riflari, shuningdek, tasavvuf nazariyasiga doir manbalar hamda Sayyid Ja’far Sajjodiy, Sayyid Sodiq Guharin va Sulaymon Uludag’ning maxsus lug’atlariga, zamonaviy tadqiqotlarga ham murojaat qilgan.

Kalit so’zlar: *Alisher Navoiy, badiiy ijod, tasavvuf, timsol, ramz, but, butxona, zunnor, zohid.*

Kirish

Alisher Navoiy o’zigacha bo’lgan mumtoz adabiyotda ko’p qo’llanilgan an’anaviy timsol va ramzlarni o’z nazmida turli usullarda faol qo’lladi. Ularni o’z navbatida badiiy matnda tutgan o’rniga ko’ra xilma-xil ma’nolarda, jumladan, turli tasavvufiy angamlarda talqin qilish mumkin. Tasavvufiy istilohlarni shartli ravishda ikki guruhga – tasavvufning o’ziga xos va tasavvuf she’riyatida qo’llaniladigan istilohlarga ajratish mumkin. She’riyatda qo’llaniladigan istilohlar,

¹ Razzoqov Alisher Abduzohidovich – filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

E-pochta: razzoqovalisher45@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-0089-5874

Iqtibos uchun: Razzoqov, A.A. 2022. “Alisher Navoiy ijodida “but” ramzi bilan bog‘liq irfoniy ma’nolar talqini”. *Oltin bitiglar* 1: 18–35.

asosan, salbiy ma'nodagi, ko'p hollarda islomiy qadriyatlarga xos bo'lmagan tushunchalar bo'lib, o'z ma'nosiga zid tarzda nozik irfoniy ma'nolarni pardalash vazifasini bajargan. Ularning aynan qanday ma'noni ifodalayotganligini qaysi janrdagi asarda qo'llanilayotgani va asar matnining umumiy ma'nosidan – kontekstdan kelib chiqib aniqlash mumkin. Chunki, "So'fiylarning istilohlari boshqa ilmdagi atamalardan shunisi bilan farq qiladiki, ular muayyan bir ma'noga bog'lanib qolmay, bir necha irfoniy ma'nolarda ishlatilishi mumkin. Ularning qaysi ma'noda qo'llanilgani atrofidagi boshqa so'zlardan chiqarib olinadi" [Абдулмажид 2014, 42]. Haqiqatdan ham muayyan istiloh, timsol yoki ramzning qanday ma'noda qo'llanganligi asar yoki she'riy baytning umumiy ma'nosidan anglashiladi. Sharqshunos olim Y.E.Bertels ta'kidlaganidek, timsolning (tasavvufiy timsol – A.R.) o'zi mustaqil holida hech qanday qimmatga ega bo'lolmaydi, uning vazifasi – o'z xususiyatiga ko'ra, haqiqiy falsafiy ma'noni berkitadigan ieroglif so'z vazifasini bajarishdir [Бертельс 1965, 109]. Shunday timsollardan biri – Navoiy she'riyatidagi "but" timsoli va u bilan bog'liq tasavvufiy timsollardir.

"But" timsoli va u bilan bog'liq tasavvufiy timsollar

"But" so'zining birlamchi ma'nosi yog'och, metalldan yasalgan, odam yoki biror hayvon shaklidagi butparastlar sig'inadigan haykaldir. Tabiiyki, Alisher Navoiy mansub tavhid – yakkaxudolik dini bo'lgan islomda bu shirk hisoblangan. Alisher Navoiy she'riyatida mazkur so'z o'z ma'nosida ham, tasavvufiy-axloqiy istiloh sifatida ham faol qo'llanilgan. "Hayrat ul-abror" dostonining 8-bobi – payg'ambar alayhissalomga bag'ishlangan 2-na'tda "but" so'zi o'zining birlamchi ma'nosida qo'llangan:

*Kufr biyik toqig'a solib shikast,
Yerga bo'lub past butu butparast.
Makkada din ahlig'a muknat bo'lub,
Uzzo ila Lotqa muknat bo'lub* [Навоий (f) 2011, 28].

Ushbu baytlarda islom tarixidagi eng ahamiyatli bir hodisahijriy 8-yildagi Makka fathidagi voqeaga ishora qilingan. O'sha paytgacha Makkada juda ko'p butlar bo'lib, ularning eng kattalari Uzzo va Lot nomli haykallar edi. Birgina Baytulloh atrofining o'zida uch yuz oltmishta but bo'lgan. Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamning buyruqlari bilan ularning barchasi yo'q qilingan.

"But" tasviri "Hayrat ul-abror" dostonining 19-bobida ham qalamga olingan. Unda aytilishicha, ko'ngil malakut olamiga sayr asnosida shunday manzaraga guvoh bo'ladi:

*Chun boridin yuqqori urdi alam,
Yuqqorig'i poyag'a qo'ydi qadam.
Ko'rdi o'shal xittani butxona,
Har butinning hay'ati durdonae.
Anda ne rahbon edi, ne barhaman,
Lek bori butlar edi siymtan.
Har buti butgarga parastishda mast,
O'ylaki, but sajdasi butparast* [Навоий (f) 2011, 75].

Doston nashrining sharh va izohlar qismida bu baytlardagi “but” so‘ziga shunday izoh berilgan: “But” – budda so‘zidan. Baytdagi fikr budda haykallari haqida. Butparastlik jahonga keng tarqalgan dinlardan biri. Rivoyat qilinishicha, bu dinning asoschisi Buddha insoniyatni azob-uqubatlardan qutqarish uchun yaralgan [Навоий (f) 2011, 744]. Ammo bu izohda aytilganidek, baytlardagi “but” so‘zlarini butparastlik dini ma’nosida tushunish mantiqan to‘g‘ri emas. O‘z ma’nosidagi butparastlik faqatgina oxirgi *O‘ylaki, but sajdasi butparast* misrasida qo‘llangan va o‘zidan oldin kelgan baytlar mazmuni uchun tamsil vazifasini bajargan. Shu ma’noda dostonni sharhlagan adabiyotshunos Akrom Malikning mazkur bob haqidagi fikrlarini asosli deb hisoblaymiz: “Alisher Navoiy rahmatullohi alayh to‘qqizinchi qat osmonda Arsh joylashgan deb hisoblaydi, Arshni esa muhtasham butxona tamsili bilan taqdim qiladi. U yerda Allohga sajda qilish, Uni ulug‘lash bilan mashg‘ul farishtalarni but deb ataydi. Mazkur istioralar biz uchun notanish va tushunarsiz tuyuladi, aslida, shoir odamlar sig‘inadigan butlar ham Allohning ixtiyoridagi bir narsa ekanligini tushuntiryapti, shuningdek, butning nafs, hissiyoti bo‘lmasligini, u qaerga qo‘yilsa, o‘sha yerda qimirlamay turishi, o‘z yasovchisi uni sindirsa ham, biror joyini o‘zgartirsa ham, itoat bilan turaverishini, isyon etmasligini nazarda tutib, farishtalar ham shu darajada Allohga itoatli ekanligini ma’lum qilyapti” [Малик 2021, 396– 97].

Tasavvufiy istiloh sifatida “but” va “butparsatlik” so‘zlari “yomonlikka undovchi nafs, Haq yo‘lidan chalg‘ituvchi to‘siq, ko‘ngilni vasvasaga soluvchi ho-yu havas” [Алишер Навоий: қомусий луғат (1-ж) 2016, 132] ma’nosida ham istifoda etilgan. Yana ba’zi irfoniy lug‘atlarda “har kishining buti o‘z nafsidir. Haqiqatni idrok etmoq uchun hazrati Ibrohim alayhissalomning butni sindirgani kabi nafs butini sindirmoq lozimdir” [Uludağ 1995, 107] degan ta’riflar ham uchraydi. Aziziddin Nasafiy o‘zining “Insoni komil” asarida “but” so‘zining “nafs” ma’nosidagi angamlarini shunday tushuntirgan: “Bilgilki, odamlardan ba’zilari bu sifliiy (past va beqadr) olamda

musofir ekanliklarini va kamolot talabida kelganlarini anglamaslar. Qorin va farj shahvati va farzand muhabbatiga maftundirlar, shular bilan mashg'ullar. Va bularning har uchchalasi avomlarning butlaridir. Va odamlarning ba'zilari bu olamda musofir ekanliklarini va kamolot talabida kelganlarini biladilar, ammo kamolot talabi bilan mashg'ul emaslar. Zohir oroyishini sevish – kichik but va mol-dunyoni sevish – katta but va mansab-u martabani sevish eng katta butdirki, bularga maftun bo'lib, ular bilan mashg'uldirlar. Bu uch but xoslarning butlaridir. Odamzotning butlari haqiqatda yettita-dir, ulardan biri nafsni do'st tutishdir, qolgan olti narsani do'st tutish ham aynan shu nafs uchundir. Nafsni do'st tutish bag'oyat ulkan butki, boshqa butlar uning vositasida paydo bo'ladi, ularni sindirish mumkin, ammo nafsga do'stlik buti g'oyat kattaki, uni sindirib bo'lmaydi" [Guharin 1376, 255].

Alisher Navoiy she'riyatida nafs va u bilan bog'liq tushunchalar "o'z" va "o'zlik" tushunchasi orqali talqin qilingan. "Badoye' ulvasat" devonining 379-g'azalida nafsoniy tushunchalarni o'zida jamlagan "o'zluk" so'zi ham butga o'xshatiladi:

Navoiy, o'zlugung raf' etkim, ul but

Erur maqsud ruxsorig'a hoyil [Навоий (d) 2011, 384].

Ma'nosi: "Ey Navoiy, o'zligingdan xalos bo'lginki, bu but (ko'zlangan) maqsad yuziga to'siqdir". Navoiy she'riyatida "maqsad" o'tkinchi narsalarni emas, oliy tushunchalarga ishora etadi. Tasavvuf adabiyotining Navoiy davridagi yirik vakili, shoirning bu yo'ldagi ustoz Abdurahmon Jomiy g'azaliyotida ham "but" hirsu havo ramzi sifatida o'z ifodasini topgan:

Ba qibla ro'yu buton dar darun zi hirsu havo,

Na in xudoyparastist, balki barhamanist! [Ҷомӣ 1988, 127].

Ma'nosi: "Yuz qiblada-yu, ammo qalbda hirs-u havodan butlar (ya'ni qiblaga dunyodan uzilib qalban yuzlanilmagan). Bu xudojo'ylik emas, balki brahmanlik (butparsatlik)dir!". Zohiran qaraganda, Jomiy baytida aytilgan "qiblaga yuzlanish" zohidlik va taqvodorlik alomatidir. Ammo tasavvuf ahli nazarida, bu – avomning taqvosisidir. So'fiylar uchun nafaqat dunyoviy hirs-u havas, balki erishilgan biror ma'naviy maqomdan masrurlanish ham yomonlanishga loyiq ko'rilgan. Shu sabab "nafsoniy borliq, dunyoviy va uxroviy talablar bo'lsin, yoki har ikki olamda Haqdan o'zganing xayoli sobit bo'lgan botin ham "butxona" deb atalgan" [Guharin 1376, 261-262]. Yana ham tushunarliroq qilib anglatilsa, hatto "(tasavvufda) biror maqomga erishib, undan masrurlangan kishini ham "butparast" deb ataydilar"

[Sajjodiy 1370, 185]. Sababi – xoh nafsoniy, xoh ruhoniy, qanday holatda bo'lsin, bandaning o'zidan mag'rurlanishi maqtaladigan ish hisoblanmagan. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida o'ziga bino qo'yishning har qanday shaklini tanqid qiladi: "Xudpisand-noxiradmand. Xud oro – shohidi ra'no... Xudparast – butparast. Bu balolardin nafsni fano qutqarur va bu muhlikalardin najot sari boshqarur" [Навоий (g) 2011, 504]. Ya'ni bu illatlar balo va halok qiluvchi deb sifatlanib, bu xatarlardan nafsni fanolik qutqaradi, deydi shoir. Yana bir o'rinda xudparastlikdan butparasatlik yaxshidir, deb yozadi: "Butparastliq yaxshiroqkim, xudparastlik" [Навоий (g) 2011, 504]. Demak, xudparastlik – bu insondagi yomon sifatlarini o'zida jamlagan o'zlik. Bu islomdagi bosh g'oya – tavhidning ziddi butparastlikka teng. Oriflarning nazarida bu halokatli narsa, undan qutqaruvchi narsa esa fanodir. "G'aroyib us-sig'ar" devonining 271-g'azalida fano o'zligingdan xalos qilsa, bundan ortiq yana qanday foyda kerak mazmunidagi baytning asosiy g'oyasi ham shunga dalolat qiladi:

*Dema, ne sud erur o'lmoq fano harimig'a xos,
Yana ne sud kerak o'zlugungdin etsa xalos*

[Навоий (a) 2011, 292].

Alisher Navoiy g'azaliyotida zohidning ishlari maqtalmaydi. Buning sababi zohid "komilikka erishmagan, dinning mohiyatidan xabarsiz, shakl va zohirga ahamiyat beradigan, orif va oshiq bo'lmagan kishidir" [Uludağ 1995, 581]. Zohid ham yuqoridagi ta'riflarda aytilganidek, taqvosi, ibodati, ruhoniy maqomlaridan g'ururlanadigan kimsadir, ya'ni u ham o'zligining quli – butparastdir. U bir qarashda dunyodan yuz o'g'irgan kishi bo'lib ko'rinsa-da, ammo o'zining shu darajasida qolib ketgan. O'zidan yuqori maqomga erishganlarning holini anglamaydi, ularni inkor qiladi. Ushbu ma'nolarni nazarda tutib, shoir bir g'azalida zohidga quyidagicha xitob qiladi:

*Sen o'zlugung butin avval ushatqil, ey zohid,
Hamisha dayri fano ahlin etgucha takfir*

[Навоий (b) 2011, 148].

"Favoyid ul-kibar" devoning 73-g'azalida "but" bir yo'la zohidga ham, lirik qahramonga ham nisbatan qo'llanilgan:

*Raz qizi zarfin, zohid, ko'p ushatma, er esang,
O'z butungniyu mening but kibi tavbam ushat*

[Навоий (e) 2011, 78].

"Raz qizi – obrazli yo'sinda may ramzi bo'lib keladi. Navoiy g'azallarida hayot g'am-tashvishlaridan xalos etish vositasi sifatida qo'llaniladi... Raz qizi – may, may – ilohiy muhabbat va ma'rifat"dir [Алишер Навоий: қомусий луғат (1-ж) 2016, 448]. Baytda lirik qahramon zohidga "raz qizi zarfi" – may idishini sindirguncha o'z buti va o'zining ham but kabi sig'inadigan tavbasini sindirishni tavsiya qiladi. Zohid albatta butga topinmaydi, uning sig'inadigan "but"i botinida. Unda lirik qahramon tavbasini nega "but"ga o'xshatgan? Ma'lumki, tavba ham tasavvuf yo'lining ilk maqomlaridan va birinchi shartidir. Shuning uchun tavbani "bob ul-abvob – eshiklarning eshigi ham deydilar, chunki tariqatga qadam qo'ygan odamning niyati va mohiyati shu tavbasida ayonlashadi" [Комилов 2009, 27]. Solik oliy maqsadga erishish yo'lida bir maqomda qolib ketmay, maqomdan maqomga yuksalib borishi kerak. Lirik qahramonning faqatgina tavba maqomi bilan kifoyalanishi, undan qanoat tuyishi "but"ga o'xshatilgan. "Tavbani ushatish"ni tavba maqomidan yuqorilash deb talqin qilish o'rinlidir. Qolaversa, tavbaning ham darajalari borki, "Avom gunohdan, xoslar esa g'aflatdan tavba etarlar" [Uludağ 1995, 529]. Bu ta'rifdan "tavbani ushatish"ning yana bir ma'nosi ayonlashadi, ya'ni solikning tavbasi avom tavbasi darajasida qolib ketmasligi kerak.

"Badoye' ul-vasat" devonidagi 280-g'azalda "but" so'zi yana ikki tushunchaga – dunyo va oxiratga o'xshatiladi:

*Istar esang Tengrini, butlarni sindurkim, erur
Ushbu yo'lda dunyo-yu uqbodin istig'for shart*

[Навоий (d) 2011, 285].

Bu baytda dunyo va oxirat butlarga o'xshatilgan, Allohga yetishni istagan kishi bu "but"larni sindirishi kerak, ya'ni dunyo va oxiratdan istig'for qilishi kerak, degan ma'no tushuniladi. "Istig'for" so'zi istiloh sifatida tasavvufiy lug'atlarda "tavhidda fano bo'lish" [Qandahoriy 1376, 68] deb ta'riflangan. Dunyo va dunyoviy narsalardan istig'for qilish, foni bo'lish tushunarli. Ammo oxiratdan ham istig'for qilishni qanday tushunish lozim? Bu masalaga Abdurahmon Jomiyning "Nafahot ul-uns" asarida shayx Abdulloh Ansoriydan keltirilgan quyidagi so'zlar oydinlik kiritadi: "Har kim Unga (Allohga – A.R.) qo'rquv yuzasidan sig'insa, u (Allohga emas) o'ziga sig'inibdi, muhabbat va farmonga itoat uchun emas, o'z najoti uchun harakat qilibdi. Har kim Unga (Allohga) umid bilan sig'insa, u ham (Allohga emas) o'ziga sig'inibdi, muhabbat va itoat uchun emas, o'z rohati va (jannatda) ne'matlar ichida yashash uchun harakat qilibdi" [Jomiy 1858, 41]. Tasavvuf ta'limotida har bir ibodatga

muhabbat, samimiylik va beg'arazlik nuqtayi nazaridan qaralgani uchun Yaratganga jannatga umid yoki jahannam qo'rquvidan qilingan toat ham ta'magirlik hisoblangan. Naqshbandiya tariqatining zamonamizdagi vakillaridan biri Shayx Zulfiqor Ahmad Naqshbanday aytganidek, "Agar ilohiy ishq bo'lmasa, shariat va din faqat tasavvurda qoladi. Uning ruhi, amallarda esa joni bo'lmaydi. Qachon bandada ilohiy muhabbat jazbasi mavj ura, shundagina u amallarda jonli tarzda tus oladi" [Нақшбандий 2022, 26].

Yuqoridagi baytning tahlili asnosida tasavvuf ta'limotidagi yana bir muhim masala – fanoda ham fanolik g'oyasining mohiyati ayonlashadi. Xoja Muhammad Porsoning "Qudsiya" asarida ta'kidlanishicha, bu maqomda dunyo va uqbo (oxirat) ham unutiladi. Bu mulohazalardan ushbu baytdagi ikki olamning butxonaga o'xshatilishidan ko'zlangan haqiqat ma'lum bo'ladi:

*Ey Navoiy, ikki olamdin kechib topdim visol,
Bu ikki butxonadin ermish bu yo'lda ofatim*

[Навоий (a) 2011, 414].

Bunday "but" va "butxona"larning haqiqatini, ulardan qutulishning yo'llarini solikka "ishq piri" – tasavvuf yo'llarini bosib o'tgan piri murshid ko'rsatadi. Navoiyning lirik qahramoni ham piri ishqning irshodi – yo'l ko'rsatishi bilan "butparastlik"dan xalos bo'lish uchun "fano dayri"ga kirganini e'tirof etadi:

*Masjid ichra butparast bo'lmoq necha, ey piri ishq,
Din uchun kirdim fano dayrig'a irshoding bila*

[Навоий (a) 2011, 562].

Mazmuni: "Ey ishq piri! Qachongacha masjidda butparastlik qilaman (ya'ni Allohga muhabbat bilan emas, dunyo va oxirat rohati uchun ibodat qilaman). Din uchun sening yo'llashing bilan fano dayriga kirdim". Pir ham o'zlikdan shunchaki, bekorga xalos qilmaydi, bu uchun solikdan o'zlikni fido qilish talab qilinadi:

*O'zlugumning qaydidin bir may bila qilding xalos,
Vah ne dey, ey mug', sanga but bila zunnorim fido*

[Навоий (a) 2011, 52].

Bu baytdagi "o'zlik" "but"ga, unga bog'liqlik "zunnor"ga o'xshatilgan, bulardan xalos qilgan kishi "mug'" – majoziy ma'noda tasavvuf shayxi, piri murshid, o'zlikdan xalos qilish vositasi esa may – pirning solik qalbiga joylagan ma'rifat. Bu ma'rifat o'zlik va unga bog'lanishdan voz kechib, ularni pir uchun fido qilish evaziga hosil bo'lgan.

"But"ning tasavvufiy istiloh sifatida Haq sifatлари tajallisi ma'nosidagi ilk ta'riflaridan biri Faxriddin Iroqiyning "Risolai istilohot" asarida uchraydi. Unda bu tushuncha qisqacha tarzda "maqsud va matlubro go'yand", ya'ni maqsud va talab qilingan (narsa) deb izohlangan [Iroqiy 1353, 63]. Tasavvuf yo'lidan yuruvchilarning talab va maqsadi ma'lum – Haqqa yetish. Ular bu olamda Allohga bevosita emas, bilvosita yetadilar, ya'ni Yaratgan qudratining moddiy olamdagi zuhuri vositasida Uni anglaydilar. Chunki Haq taoloning zoti – mohiyati bu olamda pinhon, faqat ism va sifatleri ayondir. Hazrat Alisher Navoiy tavhid mavzusidagi hamd g'azallaridan birida shu ma'noni ta'kidlab deydi:

*Seni topmoq base mushkuldurur, topmaslig' osonkim,
Erur paydoliq'ing pinhon, vale pinhonlig'ing paydo*

[Навоий (a) 2011, 23].

Ayni sabab tufayli tasavvufda Haqqa yetishning eng yaqin usuli ishq yo'li deb uqtiriladi. Shayx Najmiddin Kubro Haqqa yetuvchilarning uch guruhi haqida so'zlab, ularni shunday ta'riflaydi: "1. Tariqi axyor: ibodat va amali solih sohiblarining yo'li; 2. Tariqi abror: mujohada va riyozat sohiblarining yo'li; 3. Tariqi shuttor: bu ishq, jazba va muhabbat sohiblarining yo'li. Va ulug' Mavloga sayru sayohat qiluvchilarning tariqatidir... Bu yo'lga suluk qilganlarning yo'l boshidayoq erishgan martabasi boshqalarning suluk hayotlari so'ngida erishgan martabasidan ko'p karra yuksakdir" [Кыбиро 2004, 39-46].

Tasavvuf she'riyatidagi irfoniy ramzlarni o'zida jamlagan istilohlarning ko'pchiligi aynan shu ishq anglami doirasida shakllangan. G'azallarda ko'p uchraydigan "but" so'zi "ma'shuqa" so'ziga istiora bo'lishi bilan birga "ishq va vahdat mazhariyati ma'nolarida ishlatiladi. Va iqshdan murod esa mutlaq haqiqatdir, komil so'fiy nazdida barcha mavjudot zarralari yagona haqiqatning mazhar va tajallilaridir:

*Husni shohid az hama zarrot chun mash'hudi most,
Haqparastim don agar biniki hastim butparast.*

Ma'nosi: "Hamma zarralardan biz shohid husnini mushohada qilamiz; (shu sabab) bizni butparast suratida ko'rsang haqparast deb bilgin" [Sajjodiy 1370, 184].

Mahmud Shabustariyning "Gulshani roz" asarida ham "but" shunday ta'riflangan:

O'shal but mazhari ishq erdi vahdat,

U zunnor boylamaklik – ahdi xizmat [Шабустарий 2013, 66].

“But” yoki ma’shuqaning mazhar darajasiga ko’tarilishi uchun o’ziga xos shartlar bor. Bu masala Alisher Navoiyning ishq konsepsiyasida o’z yechimini topgan – “Mahbub ul-qulub” asarida ta’kidlanganidek, ma’shuqani mazhar sifatida ko’rishning sharti, bu – poklikdir: “...pok ko’zni pok nazar bila pok yuzga solmoqdir va pok ko’ngul ul pok yuz oshubidin qo’zg’olmoq va bu pok mazhar vositasi bila oshiqi pokboz mahbubi haqiqiy pok jamolidin bahra olmoq” [Навоий (g) 2011, 498].

Alisher Navoiy g’azallarida “but” istilohi ko’p hollarda “dayr”, “may” singari so’zlar bilan birgalikda qo’llanadi va ko’pincha “jannat”, “kavsar”, “hur” singari aslan ijobiy so’zlarga zidlantiriladi. Masalan, quyidagi baytda ham shunday holat kuzatiladi:

*Dayrda butni kishi topsa, netar jannatu hur,
Ul qadah ollida Kavsar mayig’a xud ne hisob?*

[Навоий (e) 2011, 47].

Tasavvuf adabiyotida bo’lgani singari shoir g’azallarida ham “dayr” so’zi inson olami, orif va avliyolar majlisi ma’nolarida qo’llaniladi [Алишер Навоий: қомусий луғат (1-ж) 2016, 149]. Ba’zan bu so’z dunyoni istiora yordamida ifodalashi mumkin. Bayt talqiniga ko’ra, dayrda (oriflar, avliyolar majlisida yoki dunyoda) butni (dunyodagi Haqning tajallisini) topgan, anglagan orifga bu dunyoda shuning o’zi kifoya emasmi?

Ba’zi hollarda g’azallarning o’zida ham istilohning ramziy ma’nolari ta’riflanishi mumkin. Masalan, Abdurahmon Jomiy bir g’azalida “but”ni azaliy husn mazhari deb ta’riflaydi:

*Piri mo guft: – Buton mazhari husni azaland
Mo nazar dar ruhashon az nazari pir kunem*

[Ҷомӣ 1988, 369].

“Mazhar” esa Alloh ism va sifatlarining zuhur bo’lish joyidir. Inson ilohiy sifatlarining eng mukammal mazharidir [Uludağ 1995, 349]. Shu sabab, Haq taolo birinchi inson – Odam alayhissalomni yaratganda, farishtalarni unga sajda qilishga amr etgan.

Bir tafsirda aytilishicha, Odam alayhissalomga qilingan sajda, aslida, Allohga qilingan sajda edi. Hazrati Odamning orada bo’lishi farishtalarning sajda qilishlari uchun qibla vazifasini bajarishdir. Bu hazrati Odamning bahosi ustunligiga dalildir [Bursevi 2012, 119]. Butga sajda qilish “Badoye’ ul-vasat” devonining 526-g’azalida shunday tasvirlanadi:

*But ollida chu sajda aylagum ichib boda,
Diram yo'q ersa, garav xirqa birla sajjoda*

[Navoiy (d) 2011, 531].

Navoiyning lirik qahramoni boda ichib butga sajda qilmoqchi; but – mutlaq borliq mazhari bo'lsa, boda esa Faxriddin Iroqiyning ta'rifiga ko'ra, suluk ibtidosidagi avomda ham bo'lishi mumkin bo'lgan zaif ishq [Iroqiy 1353, 61]. Dunyoviy boda tekinga berilmagani singari, majoziy boda ham nimaningdir evaziga beriladi. Lirik qahramon "diram" – puli bo'lmasa, uni egnidagi xirqa va joynamozini garovga qo'yib bo'lsa-da qo'lga kiritishni istaydi. Aslida, "xirqa" so'fiy, darveshlarning maxsus quroq kiyimi bo'lib, bu ham maxsus istiloh sifatida "zohiriy vujud va badan, hamda bashariy tartib-qoidalardan foniy bo'lish" [Бертельс 1965, 147] ma'nolarini anglatadi. E'tibor berilsa, bu baytdagi xirqa va sajjoda (joynamoz) singari tabarruk narsalar keyingi o'rinda turuvchi detallar darajasiga tushib qolgan. Chunki Haq taologa iymon va muhabbat bo'lmasa ularning ham hech qanday qiymati qolmaydi.

Ishq yo'li, bu – malomat, johil va avomlarning ta'nasiga qolish maslagidir. Haqiqiy oshiq bu ta'na-malomatlarga zarracha ham parvo qilmaydi. Shu ma'noda Navoiy g'azallaridagi oshiq bu yo'lda "kofir" nomini olib, zunnor bog'lab, butparast bo'lishdan orlanmaydi:

*Chu ishq kufri aro belga bog'ladim zunnor
But ollida yana ayb aylamang sujudumni*

[Навоий (d) 2011, 603].

Oshiq butparast bo'lishining sababini ishq kufriga tushib, beliga zunnor bog'laganidan deb tushuntiradi. "Kufir" yoki "kofirlik" deganda tasavvufiy she'riyatda mosivalloh (Haqdan o'zga narsalar) dan yuz o'girib, muvahhidlik va yakranglik holiga kelgan kishiga aytiladi [Ҳамадонӣ 1994, 88]; "zunnor" esa riyozat ahli nazdida nafsning itoat va mutobaatinining alomatidir [Бертельс 1965, 153]. Nafsning itoatli holga kelishi pirning maxsus tarbiyasi bilan amalga oshadi. Buning uchun murid pir buyurgan har qanday riyozatni so'zsiz bajarishi kerak bo'lgan. "Favoyid ul-kibar" devonidagi 79-g'azalda "shayxi oliy joh" – baland martabali shayx "dayr piri" (haqiqiy shayx, pir)ga xitob qilinib, butga sajda qilishga buyuriladi:

*Kelmagil mayxonag'a, ey shayxi oliy joh, qayt,
Yo'qsa xirqang boda rahni bo'lg'usi, billoh qayt.
Gar desangkim, tushmasin xarqangg'a rasvolig' o'ti,
Bo'lmayin rindi xarobotiy bila hamroh, qayt.
Dayr piri ilgidin zunnor belga bog'labon,*

But qoshida qilmas ersang sajda, beikroh qayt

[Навоий (e) 2011, 84].

Gʻazalda but qoshida sajda qilish, yaʼni basirat koʻzining ochilib, hamma narsada Haqning tajallisini anglash darajasiga yetguncha, undan oldingi ikki baytda aytilgan bosqichlardan oʻtish kerakligiga ishora bor: avvalo, “oliyjoh shayx”ga mayxonaga (pir dargohiga) kelmaslik tavsiya etiladi, mabodo kelsa, egnidagi xirqasi (xirqa soʻzidan murod – zohiriy vujudan foniy boʻlish) “boda” evaziga garovga yechib olinishidan ogohlantiriladi. Bu shartga koʻnsa, yana bir sinov paydo boʻladi, bu – rindi xarobotiylarga hamroh boʻlib, rasvolikka uchrash. Oliy martabali shayx bilan rindi xarobotiylarni hamroh qilish Haqqa yetish yoʻlida ijtimoiy tabaqaning, mansab-u martabaning hech qanday ahamiyati yoʻqligiga ishoradir. Rasvolik esa Haq yoʻlida yuruvchilarning doimo avom va johillar taʼna-yu malomatlariga qolishining belgisi. Keyingi baytda yanada “isnodli” va “sharmandali” sinovdan ogohlantiriladi: dayr piring qoʻlidan zunnor bogʻlab, butga sajda qilish, sajda qilganda ham “beikroh” – jirkanmasdan, malollanmasdan astoydil sajda qilish lozim. Fikrimizcha, shu baytdagi “sajda” va “beikroh” soʻzlari orasidagi vergul oʻrinsiz qoʻyilgan, natijada shoir nazarda tutgan maʼnoga zarar yetgan. Gʻazalga buyruq maylidagi “qayt” feʼlining radif sifatida tanlanishi ham bejiz emas. Chunki bu gʻazal, mazmun-mohiyatiga koʻra, ishq yoʻlining mashaqqatlaridan oʻziga xos ogohlantirishdir.

Hazrat Navoiyning eʼtiroficha, “butparastlik”ning yana bir foydasi xudparstlikdan qutulishdir:

Manga chun dayr piri saʼy qildi butparast oʻlmoq,

Unuttum xudparast oʻlmogʻni oning ehtimomidin

[Навоий (e) 2011, 464].

Butparastlik mohiyatan xudparastlikdan afzal koʻrilar ekan, bu orqali xudparsatlikning bir koʻrinishi boʻlgan riyokorlik tanqid qilinadi. Soʻfiylar nazarida riyo har qanday holatda ham yomonlangan sifat, hatto Kaʼbada ham; fano har qanday holatda ham afzal, maqtovlidir, garchi butxonada boʻlsa ham. “Badoyeʼ ul-vasat” devonining 53-qitʼasida shu haqida soʻz yuritilib, unga shunday nasriy sarlavha ham qoʻyilgan: “Riyo mazallatida soʻz der agarchi Kaʼbadur va fano madhida nukta surarda gar xud butkadadur” (Mazmuni: Garchi Kaʼbada boʻlsa-da, riyoning xorligi va butxonada boʻlsa-da, fanoning madhi haqida soʻz aytmoq:

Riyoyi Kaʼbadin dayri fanogʻa

Kirib, gar butqa zohir qildim iymon,

Meni yozg‘urma, ey shayxi riyoyi,

Ki gar kofir edim, bo‘ldum musulmon [Навоий (d) 2011, 700].

Ka’ba – mo‘minlarning Allohga yuzlanish tomoni – qiblasi bo‘lib, tasavvufda qibla uch turga ajratilgan: “Qiblai omma, qiblai xos va qiblai xos ul-xos. Ommaning qiblasi jahonning markazidagi Ka’badir va xoslarning qiblasi arshdir, xos ul-xoslarning qiblasi esa muridlarning ko‘ngli va oriflarning jonidir” [Sajjodiy 1370, 664]. Tasavvufda, albatta, omma qiblasining tavofidan ham o‘tiladi. Ammo oriflik faqat shu darajada qolib ketish emas, hatto bu daraja bilan masrur bo‘lib riyokorlik hisoblangan. Oriflik xoslarning xos qiblasiga yuzlanish – Allohning eng mukammal mazhari bo‘lgan insonda Haqni topish darajasiga yuksalishi, so‘fiylar istilohi bilan aytganda, “butparast” bo‘lmog‘i shart hisoblangan. Bunga ko‘ra but – sanamga sajda qilish riyokor zohid nazdida ayb bo‘lsa-da, haqiqiy oshiq uchun bu sharaf, uning uchun xudparast bo‘lgandan “butparast” bo‘lgan afzal:

Ul sanamga sajda qilsam, zohidi xudbin, ne ayb,

Butparast bo‘lmoq ko‘p ortug‘roqki bo‘lmoq xudparsat

[Навоий (b) 2011, 82].

Alisher Navoiyning tasavvufiy rahnamosi Abdurahmon Jomiy ham o‘z g‘azallarida masalani shu tarzda qo‘yadi. Uningcha, musulmonlik – butlar uchun “dindan kechish”, kimki bu yo‘ldan yuz o‘girsas, uni musulmon deb hisoblamaymiz, deydi:

Musulmoniy buvad bahri buton din boxtan, Jomiy,

Az in din har ki bargardad, musulmonash namedonam

[Чомӣ 1988, 405].

Tasavvufiy atama o‘laroq “butxona” yoki “butkada” so‘zlari “shavq, zavq va ilohiy ma’rifat bilan to‘lgan komil orifning botini” [Guharin 1376, 261] degan ma’nolarni ifodalalar ekan, bularni harakatga keltiradigan manba ilohiy ishqdir. Navoiy g‘azallarida bu hodisa shunday ifodalangan:

Ko‘ngul uyi chu sanamlardin o‘ldi butxona,

Magarki, ishq bu butxona ichra rohibdur

[Навоий (d) 2011, 173].

Ma’nosi: “Ishq bu butxonada rohibmikan, ko‘ngil “uyi” sanamlar (ishqi)dan butxonaga aylandi”.

But ramzining o‘ziga xos yana bir talqini “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidan olingan quyidagi baytda namoyon bo‘ladi:

*Istab ul butni xirad belida zunnorin ko'rung,
Bir kaloba ip bila Yusuf xaridorin ko'rung*

[Навоий (а) 2011, 379].

Baytdagi ilk ma'noni anglab olish uchun ba'zi tushunarsiz so'zlar va izohtalab jumlarlar manosi oydinlik kiritib olmoq lozim. Birinchi misradagi "but" so'zi "sanam", "sevgili", "ma'shuqa" kabi ma'nolarni anglatadi; "xirad" – aql, "zunnor" – nasroniy dinidagilar beliga bog'laydigan chilvir. Ikkinchi misradagi "bir kaloba ip", "Yusuf xaridori" jummalari orqali talmeh san'ati qo'llanib, diniy rivoyatda keltirilgan Yusuf alayhissalomni bir kalava ip bilan sotib olmoqchi bo'lgan kampirga ishora qilingan. Shular orqali baytdan "Arzimagan bir kalava ip bilan Yusuf (a.s.)ni sotib olmoqchi bo'lgan kampirdek xirad, ya'ni aqlning mahbubani istab beliga bog'lagan zunnoriga qarang!" degan ma'no kelib chiqmoqda. E'tibor berilsa, baytda aqlga nisbatan kinoya qilish ham sezilib turibdi. Buning sababini bilish uchun tasavvufiy adabiyotda aqlga bo'lgan munosabat, unga berilgan ta'riflarga nazar solish lozim.

Tasavvuf ta'limotida aql ikki turga ajratiladi: aqli kull va aqli juz'. Alloh, eng avvalo, aqli kullni yaratib, u orqali butun majudotlarni yaratgan ekan. Shuning uchun bunday aql Allohga nisbat berilgan. Inson faoliyati va yashashi uchun zarur bo'lgan aqlga esa aqli juz' – kichik va majoziy aql deyilgan. Tasavvuf ahlining fikriga ko'ra, bunday aql "...Haq ila botilni bir-biridan bexato farqlaydigan nurdan mahrum. U kashfiyot va ma'rifatga keng yo'l ocha olmaydi. Shuning uchun ishq va jazba ahli undan butunlay yiroq bo'lishga da'vat etgan. Bu aql yana shuning uchun inkor etilganki, u qiyossiz, dalilsiz va turlanishsiz olg'a intilishga qodir emas. Unga hamisha tayanch va vosita kerak. U insonni da'vo, g'araz va xudparastlik maydonlariga boshlaydi. Hirs va har turli mantiqiy vositalar ila odamni Haq yo'lidan chalg'itadigan bu aqlni Mavlono Jaloliddin Rumiy "asabiy va juz'iy aql" deb nomlagan va uning mevasi – vahm, shubha, kaltabinlik, hasad deya uqtirganlar. U kishining fikricha, "Bunday aqlga sohib bo'lishdan ko'ra johillik afzaldir" [Хаққул 1997, 43]. Yuqoridagi baytda shoir "xirad"ni aqli juz' ma'nosida qo'llaydi. Chunki inson har qanday mantiqiy dalillar va uning mevasi bo'lgan aql orqali Allohni taniy olmaydi. Tasavvuf ta'limoti "...ilohiy ma'rifatni egallash, Allohning sifat va ismlari orqali Uning zotini bilish va tanishni talab qilar ekan, buni aql va nazariy – tafakkuriy bilimlar bilan emas, balki yashirin bir ichki tuyg'u, botiniy basirat, ya'ni muhabbat vositasida amalga oshirish mumkin deb ta'lim beradi" [Комилов 2009, 48].

Navoiy g'azallaridagi lirik qahramon – oshiq uchun ham

aql ortiqchalik qiladi. Shu sabab u nainki aql-u hushdan, ko'ngil va jondan ham xalos bo'lib yengil tortadi:

*Aql itti, hush ketti, ko'ngul kuydi, chiqdi jon,
Shukr et, Navoiyoki, sobukbormen yana*

[Навоий (а) 2011, 571].

Fariduddin Attorning fikricha, ishq, yani ilohiy ma'rifat savdosida aql ustoz bo'lolmaydi. Aql go'yoki tutun, ishq esa olov. Olov yonganda tutun yo'qolganidek, ishq kelishi bilan aql ham qochadi:

*Aql ishq savdosida ustoz emas,
Ishq aqlga ulfatu hamroz emas.
Ishq olovdur, aqlu hush monandi dud,
Ishq kelsa, aqlu hush qochmasmu zud?* [Аттор 2010, 64].

Attor aqlni tutunga o'xshatsa, Navoiy uni chumoliga qiyoslaydi: ajdaholar maskani chumoliga in bo'la olmaganidek, ko'ngilda ham ishq dardi qaror topgach, aql chekinishga majbur bo'ladi:

*Aql qochti ko'nglum ichra sokin o'lg'ach dardi ishq,
Mo'r manzilgohi ermas ajdohalar maskani*

[Навоий (а) 2011, 625].

Ilohiy ma'rifat borasida aqlning tutgan o'rni va imtiyozlari haqida ma'lum tasavvur hosil qilindi. Mana endi yuqorida, zikr qilgan but ramzi bilan bog'liq Navoiy baytining ichki mazmuniga yo'l ochildi, desak ham bo'ladi. Baytda shoir aytmoqchi bo'lgan fikr aslida mana bunday: Ma'lumki, tasavvuf adabiyotida zunnor mahbubi haqiqiy, ya'ni Alloh hizmati va toatiga bel bog'lash, kamarbasta bo'lish ma'nolarini ham anglatadi. Xirad – aql ham mahbubga yetishish uchun uning xizmatiga bel bog'lagan. Lekin uning bu urinishi Yusuf (a.s.)ni bir kalava ip bilan sotib olaman, deb o'ylagan kampirning ishidek befoyda va ajablanarli. Shoirning aqlga kinoyasi ham aynan shuning uchun edi. Bu orqali Allohni anglashda aqlning imkoniyatlari ko'ngilnikiga qaraganda ancha chegaralanganligiga ishora qilingan. Tasavvuf ta'limotidagi eng muhim irfoniy g'oyalarni Navoiy birgina baytida but ramzi vositasida mahorat bilan darj etgan.

So'fiyona she'riyatda bu kabi maxsus ramziy istilohlar shakllanishining sababi shunday izohlanadi: "So'fiylar Alloh rasulining (s.a.v.) so'ylaganidan boshqa narsani so'ylagan emas. Ular istilohlarni o'zgartirdilar, xolos. Bu o'zgartirish va maxsus istilohlarni qo'llashning tagida sirlarni avom xalqdan muhofaza etish hikmati yashirinib yotibdi. Vaholanki, tasavvufdan uzoq va so'fiylarning iboralarini tushunmagan olimlar ularni tanqid qiladilar.

Bu kabi tanqidlar esa, tasavvufning inja ilmlarini idrok eta olmagan noqis aqlarni namoyish etadi, xolos” [Жазарий 2000, 7]. Hazrat Alisher Navoiy tasavvufiy hayotni yashab koʻrgan shoir sifatida bu holatni yaxshi his qilgan. Bu uning quyidagi baytidan sezilib turibdi:

*Haq sirrini har kimga bayon etma, Navoiy,
Taʼn aylamagay, bilmas ulus anglasa nogah*

[Navoiy (e) 2011, 531].

Xulosa

Sharq mumtoz adabiyotidagi bir qancha tasavvufiy timsollar qatori “but” timsoli ham Alisher Navoiy sheʼriyatida oʻzining yangicha badiiy talqiniga ega boʻldi. Shoir ijodida bu timsol epik sheʼriyatda, yaʼni dostonlarda, koʻpincha, oʻzining birlamchi maʼnosida istifoda etilgan boʻlsa, lirikada insonning nafsoniy sifatlarini oʻzida mujassamlashtirgan ramzga aylandi. Alisher Navoiy gʻazaliyotida but nafs, dunyo, oʻzlik singari tushunchalarning ramzlari sifatida badiiy ifodasini topdi. Shuningdek, Alisher Navoiy sheʼriyatida “but” istilohi tasavvufiy ramz sifatida talqin etilar ekan, shoirning bu ramzni qoʻllashdan bosh maqsadi, avvalo, tasavvufning nozik maʼnolarini uni tushunmaydigan, anglamaydiganlar nazaridan saqlash boʻlsa, soʻngra bu ramz vositasida moddiy borliq, olamning ham Haqni tanishdagi alohida oʻrni mavjudligi, butun olamda Allohning eng mukammal mazhari sifatida insonni ulugʻlash, unga muhabbat orqali Yaratganga muhabbat gʻoyalarni ilgani surishdir. Bu istiloh moddiy olamdagi Haq va inson oʻrtasidagi koʻprik, Haqni tanishning olamdagi bir vositasi – ramzi hamdir.

Adabiyotlar

- Bursevi, Ismail Hakki. 2012. *Ruhul-beyan tefsiri*. Cild 1. Istanbul: Damla Yayınevi.
- Uludağ, S. 1995. *Tasavvuf terimleri sözlüğü*. Istanbul: Marifet,
- Абдулмажид, Ҳасанхон Яҳё, Ҳусайнхон Яҳё Абдулмажид. 2014. *Навоийдан чу топқайлар навое*. Тошкент: Hilol-nashr.
- Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-жилд. 2016. Тошкент: Шарқ.
- Аттор, Фаридуддин. 2010. *Ҳикматлар ва ҳикоятлар*. Тошкент: Муҳаррир.
- Бертельс, Е. Э. 1965. *Избранные труды: Суфизм и суфийская литература*. Москва: Наука.
- Жазарий, Муҳаммад Нуруллоҳ Сайдо. 2000. *Тасаввуф сирлари*. Б.Умрзоқ, А.Тилавов таржимаси. Тошкент: Мовароуннаҳр.
- Ҷомӣ, Абдурахмон. 1988. *Осор: иборат аз ҳашт ҷилд*. Ҷилд 6. Душанбе: Адиб.
- Комилов, Н. 2009. *Тасаввуф*. Тошкент: Movarounnahr – Oʻzbekiston.
- Кубро, Шайх Нажмиддин. 2004. *Тасаввуфий ҳаёт*. И.Ҳаққул ва

- А.Бектош таржимаси. Тошкент: Мовароуннаҳр.
- Малик, А. 2021. Алишер Навоий: *Ҳайратул-аброр* (Матн, шарҳ, насрий баён, луғат). 1-китоб: муқаддима. Тошкент: Tamaddun.
- Муҳаммад Юсуф, Шайх Муҳаммад Содиқ. 2019. *Тафсири Ҳилол*. 1-жуз. Тошкент: Hilol-Nashr.
- Навоий, Алишер. 2011. *Тўла асарлар тўплами*. 10 жилдлик: 1-жилд. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ.
- Навоий, Алишер. 2011. *Тўла асарлар тўплами*. 10 жилдлик: 2-жилд. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ.
- Навоий, Алишер. 2011. *Тўла асарлар тўплами*. 10 жилдлик: 3-жилд. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ.
- Навоий, Алишер. 2011. *Тўла асарлар тўплами*. 10 жилдлик: 4-жилд. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ.
- Навоий, Алишер. 2011. *Тўла асарлар тўплами*. 10 жилдлик: 6-жилд. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ.
- Навоий, Алишер. 2011. *Тўла асарлар тўплами*. 10 жилдлик: 9-жилд. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ.
- Нақшбандий, Шайх Зулфиқор Аҳмад. 2022. *Илоҳий ишқ*. Н.Одинаев таржимаси. Тошкент: Matbaachi.
- Румий, Мавлоно Жалолиддин. 2004. *Маснавийи маънавий*. 6-китоб. Жамол Камол таржимаси. Тошкент – Техрон: Ал-ҳудо.
- Румий, Жалолиддин. 2003. *Ичингдаги ичингдадир*. У.Ҳамдам таржимаси. Тошкент: Янги аср авлоди.
- Шабустарий, Шайх Маҳмуд. 2013. *Гулшани роз*. Жамол Камол таржимаси. Тошкент: Tamaddun.
- Ҳамадонӣ, Мир Сайид Али. 1994. *Осори мунтахаб иборат аз чаҳор ҷилд*. Ҷилди 1. Душанбе: Ирфон.
- Ҳаққул, И. 1997. "Ақли кулл тупроқни гавҳар этгуси". *Тафаккур* 2: 42 – 45. Тошкент.
- دکتر سيد جعفر سجادی. فرهنگ اصطلاحات و تعبيرات عرفانی. تهران: طهوری، ۱۳۷۰.
- [Sajjodiy, Doktor Sayyid Ja'far. 1370. Farhangi istilohot va ta'biroti irfoniy. Tehron: Tahuriy].
- دکتر سيد صادق گوهرين. شرح اصطلاحات تصوف. جلد دوم. تهران، انتشارات زور، ۱۳۷۶.
- [Guharin, Doktor Sayyid Sodik. 1376. Sharhi istilohoti tasavvuf. Jildi duvvum. Tehron: Zavvor].
- مولانا نورالدين عبدالرحمن جامي. نفحات النس من حضرات القدص. کلکتہ: مطبع ليسي، ۱۸۵۸.
- [Jomiy, Mavlonon Nuriddin Abdul Rahmon. 1858. Nafahot al-uns min hazarot al-quds. Kalkutta: Matbaayi Laysiy]
- ۱۳۷۶ نظام الدين ترينى قندهارى. قواعد العرفا و اداب الشعرا. تهران: سروش
- [Qandahoriy, Nizomiddin Tiraniy. 1376. Qavoidi urafo va odobi shuaro. Tehron: Surush].
- فخرالدين ابراهيم عراقى. رساله لمعات و رساله اصطلاحات. تهران، چاپخانه فردوسى، ۱۳۵۳
- [Iroqiy, Faxriddin Ibrohim. 1353. Risolai Lamaot va Risolai Istilohot. Tehron: Chopxonai Firdavsiy].

Interpretation of Transcendental Meaning Related to the Symbol "Idol" in the Creation of Alisher Navai

Alisher Razzakov¹

Abstrakt

In this article, the number of meanings of the term "idol" as a transcendental symbol in Alisher Navoi's poetry are studied. Originally, the usage of this word in Alisher Navoi's work in its primary meaning, that is to say, in its own sense, examined on the example of fragments and verses in epics and lyrical works. Then, its artistic expression of meanings such as the manifestation of the qualities of self, concupiscence and the true love of holiness as a special mystical expressions are analyzed. In order to reveal fully the essence of symbol and symbols such as lover, scholar, shaikh, zunnar, Ka'ba, wine, ascetic used in parallel with it. In order to explain the meanings of Sufism in a broader way applied for Alisher Navai's own definitions, as well as ancient sources on the theory of Sufism, special dictionaries of Sayyid Ja'far Sajjadi, Sayyid Sadiq Guharin, Sulayman Uludag, and modern researches.

Key words: *Alisher Navai, artistic creativity, mysticism, symbol, idol, zunnar, ascetic.*

References

- Bursevi, Ismail Hakki. 2012. *Ruhul-beyan tefsiri. Cild 1*. Istanbul: Damla Yayinevi.
- Uludağ, S. 1995. *Tasavvuf terimleri sözlüğü*. Istanbul: Marifet,
- Abdulgadir, Hasan Khan Yahya, Husayn Khan Yahya Abdulgadir. 2014. *Navoidan chu topkaylar navoe*. Tashkent: Hilol-Nashr.
- Alisher Navoi: encyclopedic dictionary. Volume 1. 2016. Tashkent: Sharq.
- Attar, Fariduddin. 2010. *Proverbs and Stories*. Tashkent: Muharrir.
- Bertels, E.E. 1965. *Selected Writings: Sufism and Sufi Literature*. Moscow: Nauka.
- Jazari, Muhammad Nurullah Saido. 2000. *Mysteries of Sufism*. Translation by B. Umrzoq, A. Tilavov. Tashkent: Movarounnahr.
- Jami, Abdurrahman. 1988. *Works: consisting of eight volumes*. Volume 6.

¹ Alisher A. Razzakov – Doctor of Philosophy in Philology (PhD), Samarkand State University.

E-mail: razzoqovalisher45@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-0089-5874

For citation: Razzakov, A.A. 2022. "Interpretation of Transcendental Meaning Related to the Symbol "Idol" in the Creation of Alisher Navai". *Golden scripts* 1: 18-35.

- Dushanbe: Adib.
- Komilov, N. 2009. *Sufism*. Tashkent: Movarounnahr - Uzbekistan.
- Kubro, Sheikh Najmuddin. 2004. *Mystical Life*. Translated by I. Haqqul and A. Bektash. Tashkent: Movarounnahr.
- Malik, A. 2021. *Alisher Navoi: «Hayrat ul-abror» (Text, commentary, prose description, dictionary)*. Book 1: Introduction. Tashkent: Tamaddun.
- Muhammad Yusuf, Sheikh Muhammad Sadiq. 2019. *Tafsir Hilal*. Part 1. Tashkent: Hilal-Nashr.
- Navoi, Alisher. 2011. *The Complete Works. 10 volumes: Volume 1*. Tashkent: Publishing house named after Gafur Ghulam.
- Navoi, Alisher. 2011. *The Complete Works. 10 volumes: Volume 2*. Tashkent: Publishing house named after Gafur Ghulam.
- Navoi, Alisher. 2011. *The Complete Works. 10 volumes: Volume 3*. Tashkent: Publishing house named after Gafur Ghulam.
- Navoi, Alisher. 2011. *The Complete Works. 10 volumes: Volume 4*. Tashkent: Publishing house named after Gafur Ghulam.
- Navoi, Alisher. 2011. *The Complete Works. 10 volumes: Volume 6*. Tashkent: Publishing house named after Gafur Ghulam.
- Navoi, Alisher. 2011. *The Complete Works. 10 volumes: Volume 9*. Tashkent: Publishing house named after Gafur Ghulam.
- Naqshbandi, Sheikh Zulfiqar Ahmad. 2022. *Divine love*. Translation by N. Odinaev. Tashkent: Matbaachi.
- Rumi, Maulana Jalaluddin. 2004. *Masnavii manaviy. Book 6*. Translated by Jamal Kamal. Tashkent - Tehran: Al-huda.
- Rumi, Jalaluddin. 2003. *Inside is inside*. Translation by U. Hamdam. Tashkent: Yangi asr avlodi.
- Shabustari, Sheikh Mahmud. 2013. *Gulshani Roz*. Translated by Jamal Kamal. Tashkent: Tamaddun.
- Hamadoni, Mir Sayed Ali. 1994. *Selected works in four volumes. Vol. 1*. Dushanbe: Irfon.
- Haqqul, I. 1997. *Aqli kull tuproqni gavhar etgusi*. Tafakkur 2: 42-45. Tashkent.
- Dr. Sayed Jafar Sajadi. 1370. *The culture of mystic terms and expressions*. Tehran: Tahouri.
- Dr. Sayed Sadegh Goharin. 1376. *Explanation of Sufism terms*. The second volume. Tehran, Zuvvor Publications.
- Mawlana Nur al-din Abdulrahman Jami. 1858. *Nafahat al uns min hadarat alquds*. Kalkutta: Laysi Publications.
- Nizam al-din Traniy Qandahariy. 1376. *Qawaed al-urafa wa adab al-shuara*. Tehran: Surush.
- Fakhr al Din Ebrahim Iraqi. 1353. *Treatise on Lamaat and Treatise on Idioms*. Tehran, Ferdowsi Press.

MATNSHUNOSLIK
TEXTOLGY**Matn mas'uliyati va matnshunos
majburiyati**Ozod Alimov¹**Abstrakt**

Alisher Navoiy ilmiy merosini eski o'zbek yozuvidan joriy alifbolarga tabdil qilish saviya va sifatini tubdan yangilash, hozir iste'moldan chiqqan so'zlarni to'g'ri anglash, ba'zi so'z va diniy atamalarga izoh berish, asar tabdilini yangidan amalga oshirish matnshunoslik va adabiy manbashunoslik sohasining dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Navoiy asarlarining so'nggi nashrlari avvalgi nashrlardan uncha farq qilmaydi. Xorijiy nashrlar holati ham qoniqarli emas. Ushbu nashrlarda ko'plab nuqsonlarni ko'rish mumkin. Shu paytgacha mazkur nashrlardagi xato va kamchiliklar kompleks tahlil qilinmadi.

Maqolada Alisher Navoiy "Xamsat ul-mutahayyiriyn" asarining mamlakatimiz va xorijda chop qilingan nashrlari haqida so'z boradi. Mazkur nashrlarning o'ziga xos jihatlari bilan birga ularda yo'l qo'yilgan kamchiliklar xususida asarning birlamchi qo'lyozma manbalariga suyangan holda so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: *"Xamsat ul-mutahayyiriyn", ilmiy-tanqidiy matn, tabdil, Ayshekan Deniz Abik, Abdulloh Ro'yin, shaybiya, malomatiya, qo'lyozma, nashrlar.*

Kirish

"Xamsat ul-mutahayyiriyn" ko'p marotaba nashr yuzini ko'rgan. Jumladan, asar mamlakatimizda to'rt marta (O'zbek adabiyoti antologiyasining 2-jildida asar to'liq bo'lmagan holda qisman nashr etilgan [O'zbek adabiyoti, 1959, 546-563]), qo'shni qardosh mamlakatdagi nashrlardan tashqari, hijriy 1388-yili Abdulloh Ro'yin tomonidan Afg'onistonda [Ro'yin 1388] hamda

¹Alimov Ozod Sabirovich – mustaqil tadqiqotchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: ozod78@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-1679-3426

Iqtibos uchun: Alimov, O. S. 2022. "Matn mas'uliyati va matnshunos majburiyati". *Oltin bitiglar* 1: 36-60.

2006-yili Adana shahri Chukurova universiteti professori Ayshehan Deniz Abik tomonidan Turkiyada [Ayşehan Deniz 2006] ham nashr ettirildi.

Alisher Navoiy merosini tadqiq qilish, ularni ommaga yetkazish ishlari uzoq yillardan buyon u yoki bu xalq vakillari tomonidan amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, bugungi kunda bu ishlarining barchasini ham risoladagidek deb bo'lmaydi. Zero, bugungi kunda ajdodlarimiz merosini o'rganish va o'rgatishga bo'lgan e'tibor, yaratilayotgan shart-sharoitlar yuqoridagi fikrni aytishni taqozo qiladi.

Navoiy asarlarining akademik nashrini amalga oshirish: muammolar va natijalar

Navoiy asarlarining mukammal akademik nashrini amalga oshirish uchun, avvalo, ularning barchasi ilmiy-tanqidiy matnlarga asoslanish lozim. Zero, tanqidiy matn asosida tayyorlangan nashrlargina ishonchli va turli shubhalardan xoli bo'ladi. Tanqidiy matnga asoslanib, nashr qilinadigan asarning arab yozuvidan hozirgi joriy alifboga transliteratsiya qilingan har bir jumlasini qo'lyozma manbalarining o'zaro muqoyasasi jarayonida to'liq tekshirilgan bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy navoiyshunoslikdagi tadqiqotlarda yuzaga kelayotgan ba'zi muammolar va ularning kelib chiqish sabablariga to'xtalamiz.

Mamlakatimizda Alisher Navoiy ilmiy merosining 1967-, 1999- hamda 2011-yillardagi nashrlari ilmiy jamoatchilikka yaxshi ma'lum. Biroq afsus bilan aytish mumkinki, hozirga qadar Navoiy asarlari qancha o'rganilmasin, qancha qayta nashr etilmasin, ular bilan bog'liq muammolar hanuz uchrab turibdi. Shoir asarlarining so'nggi nashri ham 20 jildlik "Mukammal asarlar to'plami" nashridan uncha farq qilmaydi.

Ma'lumki, ushbu nashrlarda ko'plab nuqsonlarni ko'rish mumkin. Shu paytgacha mazkur nashrlardagi xato va kamchiliklar kompleks tahlil qilinmadi. Buning sababini filologiya fanlari doktori M.Abdulxayrov quyidagicha izohlaydi: "Navoiy asarlarining hozirgacha amalga oshirilgan nashrlariga qanchalik ko'p mehnat va ilmiy salohiyat bilan yondashilgan bo'lmasin, kamchilik va nuqsonlardan xoli emas. Buning asosiy sabablaridan biri – shoir asarlari tabdilining puxta tayyorlanmaganligi va matnning izohli lug'ati to'liq emasligidadir" [Abdulxayrov 2020, 25].

Bizningcha, ushbu fikrlar asosli va shoir ijodi ustidagi tadqiqot manbalarini jiddiy tadqiq va tahqiq qilishni talab qiladi.

“Adabiy manbashunoslik deganda, adabiyot tarixining turli davrlarida yaratilgan yozma manbalarni, shoir va ijodkorlarning yoxud muallifi noma'lum bo'lgan badiiy asarlarning yaratilgan davridan boshlab, to hozirgacha ko'chirilgan qo'lyozmalarini, bosma nashrlarini, xalq og'zaki ijodi asarlarini tanqidiy o'rganib chiqish tushuniladi” [Sirojiddinov 2019, 10]. Shunday ekan, nashrlarni tayyorlash uchun tayanch manba vazifasini bajargan qo'lyozmalarini aniqlash va ularni saralashdagi mezonlar, mavjud nashrning qanday maqsadga qaratilganini aniqlash, uni tarixiylik mezonlari asosida tadqiq etish va tavsiflash talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan yondashib, zamonaviy navoiyshunoslikdagi tadqiqotlarda yuzaga kelayotgan ba'zi muammolar va ularning kelib chiqish sabablariga to'xtalamiz.

1. Navoiy asarlari tanqidiy matnlarining mavjud emasligi. To'g'ri, Navoiyning ayrim asarlarining tanqidiy matnlari bugungi kunda amalga oshirilgan. Biroq, ular ilmiy ish, dissertatsiya holatida qolib ketmoqda. Fikrimizni quvvatlash maqsadida, Navoiy “Nazm ul-javohir” asarining matniy tadqiqi O'zR FA H.Sulaymonov nomidagi Qo'lyozmalar instituti ilmiy xodimasi Ma'mura Rashidova tomonidan 1991-yilda amalga oshirilgan va muvaffaqiyatli himoya qilingan. Biroq, bu ish MAT va hatto TAT nashrlarida o'z aksini topmagan. Tayyorlangan nashrlar tanilgan soha mutaxassislari va tor doira atrofida bajarilganligining obyektiv va subyektiv sabablari bor, albatta. M.Abdulxayrov aytganidek, “... davr taqozosi bilan dastlabki ishlar ilmiy-tanqidiy matnlar tayyorlashdan emas, balki tabdil ishlaridan boshlandi” [Abdulxayrov 2020, 12]. Bu esa matnshunoslik tamoyillariga mutlaqo ziddir. Demak, bu muammoni yechishda quyidagilarga amal qilinishi lozim:

- a) Navoiy asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlarini tuzish;
- b) Navoiy merosini tadqiq etishda sohadagi tadrijiy taraqqiyotni hisobga olish lozim;
- v) Tuzilgan ilmiy-tanqidiy matnlar asosida sharhlar bilan ta'minlangan joriy alifbodagi ilmiy-akademik nashrlarni tayyorlash.

2. Navoiy asarlari tanqidiy matnlarining mavjud emasligi. Navoiy merosining mukammal akademik nashrini amalga oshirishda shoir asarlarining barchasi yuqorida ta'kidlanganidek ilmiy-tanqidiy matnlarga asoslangan bo'lishi lozim. Zero, tanqidiy matn asosida tayyorlangan nashrlargina ishonchli va turli xil shubhalardan xoli bo'ladi. Ilmiy nashrlarda arab yozuvidan hozirgi joriy alifboga o'girilgan har bir so'z qo'lyozmalarining o'zaro muqoyasasi jarayonida aniq dalillangan bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, asar matnini

ijodkorning dastlabki ilk variantiga yaqinlashtiradi. Alisher Navoiy o'zining aksar ilmiy merosini turkiy tilda yozgan bo'lsa-da, arabiy, forsiy so'zlardan ham keng foydalangan. Shu bois uning merosini to'la anglash uchun ana shu tillardan bevosita xabardor bo'lish lozim bo'ladi. Bu esa, bugungi soha mutaxassislari oldida turgan eng muhim muammolardandir. Hozirgacha mumtoz adabiyotimiz vakillari merosi nashrlaridagi ko'plab nuqsonlarning uchrashi ham yuqoridagi muammoning "mahsuli", desak adashmaymiz. Bunday kamchiliklar Navoiy asarlarining izohli lug'atlarida ham uchrashi muammoga jiddiy yondashuvning lozimligini ko'rsatadi. Nashriy xatoliklarning qator turlari va ko'plab kelib chiqish sabablari mavjud. Kotib tomonidan amalga oshirilgan xatolar, transliteratsiyadagi xatolar, texnik xatolar kabi [Abdulgayrov 2020, 218, 220, 222].

Nashrlararo tafovutlar ko'pligining bir necha sabablari bor:

1) Navoiy asarlaridagi diniy-tasavvufiy tushunchalarni ifodalovchi so'z va iboralar siyosiy mafkura ostida qasddan tadqiq etilmadi;

2) asliyatdagi matn tildan bexabarlik tufayli, yoki diniy ilmsizlik bois to'g'ri o'qilmay tabdil qilindi;

3) Matn mas'uliyati – matnshunos majburiyati degan tushunchani his etmaslik, asarda aytilayotgan mazmun-mohiyatni anglamaslik;

4) Matnlarni joriy alifboga tabdil qilishda forsiy-arabiy so'zlar talaffuzidagi fonetik xususiyatlarni ifodalashdagi qat'iy qoidalarga rioya qilish tamoyilining buzilgani.

Bu esa o'z navbatida ilmiy tadqiqot ishlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. "Xamsat ul-mutahayyiryn"ning badiiyati nomli tadqiqotda forsiy misralar soni turkiydagiga nisbatan ancha ko'p ekani aytilgan va yetarlicha asoslab berilgan. Shuningdek, tadqiqotda asarda qo'llanilgan arabiy iboralar 22-punktda ro'yxat tarzida keltirilgan. Biroq ushbu arabiy jummalarni Navoiy asarlari 20 jildlik to'plamining 15-jildida nashr qilingan asar matnidan olinganini e'tiborga olsak, undagi ba'zi jumlar aynan nashrdagidek noto'g'ri tarzda keltirilganini ko'rish mumkin. Masalan: *g'affara zunubahu, sattara ubbahu*. Arab tili qoidalariga ko'ra, o'tgan zamon fe'li duo, tilakni ifodalashidan, ushbu duoning ma'nosi qisman to'g'ri berilganligini hisobga olsak, unda "ayblarini berkitsin" deb oxirgi so'z "ayb" ekanligi aytilsa-da, duoning arabiy lafzida mazkur so'z "ubbahu" tarzida noto'g'ri keltirilgan. Arab tilida عُبُّ "ubun" lafzi "qo'yin", "qo'ltiq" ma'nolarini anglatishini e'tiborga olsak, duodan ko'zlangan maqsad hosil bo'lmasligini ko'ramiz. Shuningdek, bu yerda fe'lning

o'qilishida ham grammatik xatolik bor. Bu yerda kechiruvchi Zot Alloh lafzi (ya'ni, foil) yo'qligi bois fe'lining majhul shakli qo'llanishi lozim edi. Fe'ldan keyingi lafz esa grammatik jihatdan noibi foil bo'ladi. Demak, ushbu duoning to'g'ri shakli quyidagicha o'qilishi lozim: "G'ufira (g'uffira) zunubuhu va sutira (suttira) uyubuhu". Ma'nosi: "(Alloh) Uning gunohlarini kechirsin va ayblarini berkitsin". Ushbu holat "Xullida mulkuhu va tuvvila umruhu" duo lafzida ham shunday.

3. Xatolarning nashrlarda takrorlanishi. Qo'lyozmalar kotiblarning savodxonligi, mahoratidan kelib chiqqan holda bir-biridan farq qiladi. Kotiblar asarni ko'chirish asnosida ayrim sabablarga ko'ra matnda beixtiyor sahv-xatolarga, kamchiliklarga yo'l qo'ygani yoki tahrir orqali unga ba'zi so'z va iboralarni kiritgan holatlarini kuzatish mumkin. Bu holatni biz toshbosma nusxalarda ham uchratishimiz mumkin. Zero, ular ham muayyan bir qo'lyozmaning o'z davridagi zamonaviy nashrlaridir. Kotiblar tomonidan ko'chirilgan asarlarning barchasi, u qanday saviyada bo'lmasin, asarni yozgan muallifning merosi bo'lib qolaveradi. Shunday ekan, mumtoz merosimizni tabdil qilish, yoki ularning nashri jarayonida yo'l qo'yilgan u yoki bu turdagi nuqsonlar asar matni tadqiqida muhim ahamiyat kasb etadi. Matnshunos olim Vahob Rahmonov "Navoiy asarlarini nashrga tayyorlovchilar turli-tuman matn nuqsonlariga yo'l qo'yadilar... Biroq bularning hammasiga bitta bosh sabab bor. Bu ... bayt mazmunini tegishli to'g'ri idrok etolmasligidir" [Rahmonov 2015, 390], deya sohadagi yuzaga kelgan muammoning bosh sababini e'tirof qilsa-da, Navoiy asarlarining bugungi kungacha qilingan nashrlaridagi nuqsonlarning takrorlanish muammolarini, ularni matniy-qiyosiy o'rganish, tadqiq qilish ishlarining bir muddat to'xtab qolgani bilan ham izohlash mumkin. Buning esa sabablari ham turlicha.

4. Nashrlar masalasida mutaxassislarga murojaat etilmaslik. Mumtoz merosimiz nashrlarini amalga oshirishda mutaxassislar jamoasi shakllantirilishi lozim. Nashrlarda uchrovchi xatolarning sabablaridan biri aynan ana shunday jamoaning yo'qligidandir. Nashrlarda faqatgina adabiyotshunoslik, tilshunoslik nuqtayi nazaridan emas, balki muammoga diniy nuqtayi nazardan ham yondashish lozimligini taqozo qiladi. Navoiy asarlariga islomshunoslik (Qur'on, hadis, tasavvuf, aqida, fiqh, tarix va b.) nuqtayi nazaridan e'tibor qilgan holda o'rganish, tahlil va tahrir qilish natijasida yechim izlash dolzarb muammolardan biri sifatida

qolmoqda. Masalan, 20 jildlikda quyidagi qo'pol xatolar ham ana shunday omilning e'tibordan chetda qolishi natijasidir: "Va imom Mullo mutanabbihdin erdi" [Navoiy 1999, 28].

Quyida "Xamsat ul-mutahayyiriyin" asari o'rin olgan yoki asarning alohida nashrlaridagi farqlar ustida to'xtalamiz:

Mahalliy nashrlardagi farqlar

1. Hamd va na't qismi bilan bog'liq farqlar:

***Ilmiga milk surmodi bir harf yano* (MAT).**

Hamd qismining avvalida kelgan ruboiyning 3-qatoridagi ushbu misrada zikr qilingan "malak" lafzi "milk" deya noto'g'ri o'qilgan, natijada ma'no buzilgan [Navoiy 1999, 7]. TATda bu xato to'g'rilangan [Navoiy 2011, 735]. "Asarlar"da asarning ushbu qismi davr ta'siri nuqtayi nazaridan nashrga kiritilmagan.

Yuz na't angakim, xulqi karim o'ldi fani (MAT, TAT) [Navoiy 1999, 7; Navoiy 2011, 735]. Misraning so'nggidagi "fan" so'zi – ilm, hunar, san'at ma'nolarini ifoda qiladi [Fozilov 1984, 317]. Bu yerda "odati, ishi" kabi ma'nolarni qo'llash ham mumkin. Misraning bu ko'rinishi I, L, T1 nusxalarida o'z aksini topgan. T2 nusxasida esa "erdi fani" holatida keladi. Ammo tayanch manba hisoblangan P nusxasida ushbu misra ***Yuz na't angakim, xulqi karim aylab ani*** ko'rinishida kelgan. Biz tayanch manbadagi variantni qoldirdik [Alimov 2015, 18].

2. Arabiy jumalardagi xatolar: *G'affara zunubahu, sattara ubbahu* (MAT). Alisher al-mutaxallis bin-Navoiy (Navoiy taxallusli Alisher) lafzidan so'ng zikr qilingan ushbu lafzning to'g'ri shakli quyidagicha bo'lishi lozim: **غُفِرَ ذُنُوبُهُ وَ سُتِرَ عِيُوبُهُ** (*G'ufira zunubuhu va sutira 'uyubuhu*). Arab tili grammatikasi qoidalariga muvofiq **غُفِرَ** "g'ufira" hamda **سُتِرَ** "sutira" majhul fe'lidani keyin kelayotgan **ذُنْبٌ** "zanbun" hamda **عَيْبٌ** "aybun" kalimalarining ko'plik shaklidagi varianti bo'lgan **ذُنُوبٌ** va **عُيُوبٌ** ning e'robi tarkib qoidasiga ko'ra noibi foil bo'lgani bois raf o'qilishi lozim. TATda esa fe'llarning majhul varianti to'g'ri berilib, undan keyingi zikr qilinayotgan ismlar nasb holatida berilgan va grammatik xatoga yo'l qo'yilgan *G'ufira zunubahu, sutira uyubahu* [Navoiy 2011, 735].

Al-ulamo varsah al-anbiyo (MAT). Hadisi sharif matnidagi lafz ham, ushbu lafzning ma'nosi ham o'ta g'aliz tarzda berilgan. Ma'nosi: *Valiylilikning oliy hazrati, Olloh sirlarini kashf etuvchisi, yashirin ishoralar va alohida sirlar olimi, payg'ambarlar davomchisi (sifatidagi) alloma* [Navoiy 1999, 7, 185]. Ehtimol, lafzdagi **قشرو** kalimasidagi toi marbuta qo'lyozmada nuqtasiz **قشرو** tarzida yozilgandir.

Yuqoridagi mashhur hadis lafzi ulug' sahoba Abu Dardo (r.a.)dan (vaf. 32/652) rivoyat qilingan matnda quyidagicha zikr qilingan:

عن أبي الدرداء قال: سمعت رسول الله صلى الله عليه وسلم يقول: من سلك طريقاً يطلب فيه علماً؛ سلك الله به طريقاً من طرق الجنة، والملائكة تضع أجنحتها رضا لطالب العلم، وإن العالم يستغفر له من في السموات، ومن في الأرض، والحيتان في الماء، وفضل العالم على العابد كفضل القمر ليلة البدر على سائر الكواكب، إن العلماء ورثة الأنبياء، إن الأنبياء لم يورثوا ديناراً ولا درهماً، وأورثوا العلم، فمن أخذه؛ أخذ بحظ وافر (رواه أبو داود والترمذي وابن ماجه و أحمد واللفظ للترمذي).

Rasululloh (s.a.v.)ning shunday deyayotganlarini eshitganman:

“Kim ilm istab yo'lga chiqsa, Alloh unga jannat tomon (bo'lgan) yo'lni oson qilib qo'yadi. Albatta, farishtalar tolibi ilm uchun u qilgan ishga rozi bo'lib qanotlarini yozadilar. Albatta, olim uchun osmonlar va erdagi kimsalar, hatto suvdagi baliqlar ham istig'for aytadi. Olimning obidga nisbatan fazli o'ning boshqa yulduzlarga nisbatan (bo'lgan) fazli kabidir. Albatta, ulamolar payg'ambarlarning merosxo'rlaridir. Albatta, payg'ambarlar dinor ham, dirham ham meros qoldirmaganlar. Ular ilmni meros qoldirganlar. Kim (u ilmni) olsa, etarli nasibani olibdi (Imom Abu Dovud, at-Termiziy, Ibn Moja, Imom Ahmad rivoyatlari. Lafz Imom at-Termiziyniki).

Ushbu holat keyingi hadisi sharif matnida ham ko'rinadi: **Va ulamo ummatiga k-anbiyoyi isroil** [Navoiy 1997]. Ushbu xabarning lafzi hadisdan ekanligiga ulamolar ixtilof qilganlar. Mashhur hadis olimi Ibn Hajar al-Asqaloni (vaf. 1449/852), shofe'iy mazhabi olimi Badruddin az-Zarkashiy (vaf. 1392/794) kabi olimlar ushbu xabarni hadis matnidani emas, asli yo'q deb aytganlar. Biroq shunday bo'lsa-da, ushbu xabar olimning martabasi naqadar ulug' ekanligi haqida aytilgan bo'lib, uning to'g'ri shakli quyidagicha bo'ladi:

علماء أمتي كأنبياء بني إسرائيل *Ulamāu ummatī kaanbiyāi Banī Isrāīl* (Ummatimning ulamolari Bani Isroil payg'ambarlari kabidir).

Hamd-u na't qismining so'nggida Abdurahmon Jomiy hazratlari ismlaridan so'ng zikr qilingan duo lafzining o'qilishida ham MATda noaniqlik uchraydi (**Quddisa ollohu sirrahu va navvara ollohu marqadahu**) [Navoiy 1999, 7]. Fe'ldan keyin kelgan Alloh lafzidagi hamza vasl bo'lishini e'tiborga oladigan bo'lsak, kalima-ni imlosi quyidagicha bo'lishi to'g'riroq bo'ladi: *Qaddasallāhu sirrahu va navvarallāhu marqadahu*.

Alhamdu lillahi 'alat-tavfiq. MATda mazkur hamd *“alhamdu lillahi ala at-tafiq”* tarzida, ma'nosi esa (*muvaqqafiyat uchun Ollohga maqtovlar bo'lsin*) deya talqin qilingan. Mazkur lafz hamd lafzlari-dan biri bo'lib, uning to'g'ri shakli:

الحمد لله على التوفيق (al-hamdu lillāhi 'ala-t-tavfiq).

Ma'nosi esa: *Tavfiq* (to'g'ri yo'l)ni ko'rsatgan Allohga hamd bo'lsin deb tarjima qilinishi lozim.

3. Asarda ismlari kelgan shaxslar nomi bilan bog'liq muammolar: *Zaynuddin Abu Bakr Toybodiy*. "Asarlar"da ham shu tarzda berilgan [Navoiy 1967, 10]. MAT va TATda ushbu shaxsning nisbasi *Toyobodiy* tarzida berilgan [Navoiy 1999, 11, 186; Navoiy 2011, 738, 832]. Aslida, ushbu shaxsning nisbasi *Toybodiy* bo'lishi lozim. دابئیات (Toybod) – Xuroson (Eron) viloyatidagi shaharlardan biri. Shahar Xuroson Razaviy viloyatining sharqida, Eron va Afg'oniston chegarasi yaqinida joylashgan. Shahar *Toybodiy* Jomdan 60 km janubda va Mashhaddan 225 km janubi-sharqda joylashgan.

Buxoro universiteti dotsenti R.E.Qilichev "*Amir Temur va Zayniddin Abubakr Toyobodiy*" maqolasida ushbu shaxs haqidagi ma'lumotida uni Hirotning Toyobod qishlog'ida tug'ilganini va Amir Temur ushbu shaxs bilan 1381-yili Harirud vodiysida uchrashganini va uni o'ziga pir tutganini aytadi. Ma'lumot tekshirilganga V.Bartold "Царствование Тимур. Тамерлан. Эпоха. Личность. деяния" nomli tadqiqotida joy nomini "Tayabad" va tabiiyki, nisbani "Tayabadi" degani aniqlandi [Bartold 1964, 44]. V. Bartold ushbu joy nomining yozilishini تايياد, o'qilishini تايياد deb aytadi [Bartold 1964, 44]. Tarix fanlari doktori, akademik Rustan Raxmanaliyev ham qishloqni Toyobod (Tayabad) deb qayd qilgan va uni Hirot yaqinida joylashganini zikr qilgan [Raxmanaliyev 2009, 581]. Biz tadqiqotga jalb qilgan to'rt qo'lyozma (Parij, Istanbul, Sankt-Peterburg, Toshkent 1 (Adabiyot muzeyi) nusxalarida ushbu nisba تاييادی tarzida, Toshkent 2 (ShI) nusxasida esa طاييادی tarzida kitobat qilingan. MAT va TAT hamda V.Bartold, R.Raxmanaliyev o'qigan nisbada esa "yo" harfidan keyin "alif" orttirilishi lozim bo'ladi. Qo'lyozmalarning hech birida bunga duch kelinmagani nisbaning "*Toybodiy*" va joy nomi "*Toybod*" ekanini anglatadi. Agar "yo" harfi ustida fatha bor bo'lganda ham, nisba R.E.Qilichev zikr qilgandek "*Toyobodiy*" deb o'qilishi lozim edi.

4. Asarning "Avvalgi maqolat"idagi farqlar.

3-hikoyat. *Darvesh Hoji tund mizojliq devona* kishidur (MAT, TAT). Ma'lumki, *devona* so'zi esi past, majnun, jinni, aql-u hushidan ozgan shaxsga nisbatan qo'llaniladi. Shunday ekan, yuqoridagi jumlaning ma'nosi: Darvesh Hoji xarakteri tez, majnun kishidir, degan ma'no anglashiladi.

Bu jumladagi "*devona*" so'zi o'rnida aslida tom ma'nodagi

majnun emas, majnunsifat, devonaga o'xshash kishi degan ma'noni ifodalovchi **devonasor** kalimasi qo'llanilgan bo'lib, jumla quyidagi ma'noni ifodalaydi [Fozilov 1983, 479-481]: Darvesh Hoji tez tabiatli, devonasifat kishidir. Demak, yuqoridagi jumla *Darvesh Hoji tund mijozliq devonasor kishidur* tarzida bo'lishi lozim [Kulliyot, Suppl. Turc. 317. 289^a].

Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"ning ettinchi majlisida Mirzo Ulug'bekning o'g'li Abdullatif mirzo haqidagi ta'rifda ham *devonasor* kalimasini qo'llagan. ...*savdoyi mizoj va vasvasiy tab' va devonasor kishi erdi*.

4-hikoyat. Nashrlarda xato ketgan. Uchala nashrda quyidagicha:

Bir kechasi bir ulug' kishi mahallida jamoati azizlar xizmatida tushtum. Mutahhari Udiykim, xushovozliqda Zuhraoning otasi va xushxonlikda aning farzandi ruhafzosi bo'la olur erdi... [Навоий 1967, 15; 1999, 17; 2011, 742; Шамсиев 1966, 26].

Ushbu matn Afg'on nashrida ham xuddi shunday kelgan [Ro'yin 1388, 39]: Bu o'rinda "Zuhra" so'zi "Asarlar"da "Zuxra" deya qattiq "x" bilan berilgan. Biz buni texnik xatoga yo'yidik. Biroq matnga qarab biroz fikr yuritadigan bo'lsak *زهره* (Zuhra – forsiy, turkiy. Arabiy – *قمر*) asli muannas ism bo'lib, bu ism egasiga "ota" maqomini berish mumkin emas. Biz bu bilan kitobni nashrga tayyorlaganlar matnni xato o'qiganlar deyish fikridan yiroqmiz. Matnni qo'lyozmalar bilan qiyoslash jarayonida mazkur nashr Sankt-Peterburg nusxasi (inv. 558) va ba'zan FASHI nusxasi (inv. 2242) asosida tayyorlanganligini taxmin qildik. Sankt-Peterburg nusxasida bu so'z xuddi nashrdagidek yozilgan. Biroq, bu qo'lyozma nusxada nashrda berilgan "mahallida" so'zi o'rnida "majlisida" ekani aniq-tiniq o'qiladi. Nashrda bu so'z xato berilgan. Biz urg'u bermoqchi bo'lgan so'z – "ota" lafzi. Tadqiqotimizga tayanch manba sifatida jalb qilingan Parij nusxasida bu so'z "ona" deya to'g'ri ko'chirilgan. Shu bois ma'noda ham tugallik aks etgan. "Zuhra" – Cho'lpon yulduzi (Venera)ni shoirlar xonanda va sozandalari homiysi, osmon cholg'uvchisi, sozandasi deb tasvirleydilar. Shu bois, matndagi Mutahhari Udiy cholg'uvchilikda Zuhra unga go'yo ona va xushohang-u xushovozliqda u Zuhraga farzand kabidir, degan ma'no anglashiladi. Demak, bu erda matn quyidagicha aks etadi:

بیر کیچه بیر اولوغ کیشی مجلسیدا جماعت عزیزلار خدمتیغه توشتم مطهر
عودی کیم خوش نوازلیق دا زهره انینگ اناسی و خوش خوانلیغدا انینگ فرزند روح
افزاسی بولا آلور ایردی

Bir kecha bir ulug' kishi majlisida jamoati azizlar xidmatig'a

tushtum. Mutahhari Udiykim, xushnavozliqda Zuhra aning onasi va xushxonlig'da aning farzandi ruhafzosi bo'la olur erdi... .

11-hikoyat. Mirki guft: **“Robe’hum qalbuchum”**

Yofta fayzi suxan az qalbuchum (TAT. 746-bet).

Abdurahmon Jomiy va Mavlono Sog’ariy hazil-mutoyiba suhbatlariga guvoh bo’lgan Alisher Navoiy Nizomiy Ganjaviy va Amir Xisrav Dehlaviyga ergashib “Xamsa” yozayotganlarini aytib:

*Kahfi fano ichra alar bo’lsa gum,
Men ham o’lay robi’uhum kalbuchum*

baytini aytganlarida Mavlono Sog’ariy ham bu masnaviyga tatabbu’ qilib Navoiyga xitoban:

Mirki guft: *“Robi’uhum kalbuchum”*
Yofta fayzi suxan az qalbuchum, – deydi.

Qur’oni karimning o’n sakkizinchi surasi “Kahf” – (“G’or”) deb ataladi. Unda zolim hukmdor ta’qibidan qochib g’orga yashiringan yigitlar, ya’ni, “Ashobi Kahf” (“G’or egalari”) haqidagi qissa bayon etilgan:

إِذْ أَوَى الْفِتْيَةُ إِلَى الْكَهْفِ فَقَالُوا رَبَّنَا آتِنَا مِن لَّدُنكَ رَحْمَةً وَهَيِّئْ لَنَا مِنْ أَمْرِنَا رَشَدًا ﴿١﴾
فَضَرَبْنَا عَلَى آذَانِهِمْ فِي الْكَهْفِ سِنِينَ عَدَدًا ﴿٢﴾ ثُمَّ بَعَثْنَاهُمْ لِنَعْلَمَ أَيُّ الْجَرْيِينَ أَحْسَنُ لِمَا لُبُّوا أَمَدًا ﴿٣﴾
نَحْنُ نَقُصُّ عَلَيْكَ نَبَأَهُم بِالْحَقِّ إِنَّهُمْ فِتْيَةٌ آمَنُوا بِرَبِّهِمْ وَزِدْنَاهُمْ هُدًى ﴿٤﴾

Qachonki yigitlar kahfdan joy olganlarida: “Rabbimiz, bizga huzuringdan rahmat bergin va ishimizni to’g’rilagin” dedilar. Bas, kahfda ularning quloqlariga bir necha yillar urdik. So’ngra ikki guruhdan qaysi biri ularning turgan muddatini hisoblovchiroq ekanini bilish uchun ularni uyg’otdik. Biz senga ularning xabarlarini haq ila qissa etib beramiz. Albatta, ular Rabblariga iymon keltirgan yigitlardir. Va ularga yanada ziyoda hidoyat berdik (“Kahf” surasi, 10-13 oyatlar) [Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf 2021, 462-463].

Ba’zi tarixchi olimlarning ta’kidlashlaricha, yosh yigitlardan iborat bu jamoa Iso alayhissalom olib kelgan dinga ergashgan ilk nasroniylar bo’lishgan. Uning soni etti, sakkizta bo’lgani ham aytiladi. Ba’zi xabarlarda ularning soni uchta bo’lgani va ular bilan bitta it ham bo’lgani aytilgan.

Mufasssirlar aytishicha, Iso alayhissalom zamonlaridan keyin Rum davlatlaridan birida Daqyonus nomli zolim podshoh odamlarni butlarga sig’inishga majburlar, amriga bo’ysunmaganlarni o’ldirar edi. Ba’zi ma’lumotlarga qaraganda bu zolim shoh Yunon imperatori Detsiy (Decius) deb keltiriladi. Payti kelib fuqarolardan bir necha yigit uning farmonidan bosh tortib, butlarga sig’inishni rad etgani

haqidagi xabar unga yetkazildi. Ular saroyda so'roq qilinganida: "Bizlar yolg'iz Allohdan o'zgaga sig'inmaymiz", deb javob qilishadi. Podshoh ularga ertalabgacha o'ylab ko'rishga muhlat beradi. Yigitlar o'zaro maslahatlashib: "Allohdan o'zgaga bo'ysungandan ko'ra, bu diyorni tashlab ketganimiz ma'qul", deb tun qorong'usida shaharni tark etishadi. Tongga yaqin tog'dagi bir g'orga yashirinishadi. Ertalab bundan xabardor bo'lgan shoh askarlari bilan g'or og'ziga etib keladi, ammo askarlar ichkari kirishga qo'rqishadi. Shunda Daqyonus qochoqlar ochlik va tashnalikdan qirilib ketsin deb g'or og'zini berkitib tashlashni buyuradi. Ammo Alloh taolo bu solih va sodiq bandalarini halokatdan saqlab, uzoq uyquga cho'mdiradi. Ular uyg'onganlarida oradan uch yuz yil (ba'zi manbalarda 309 yil ham kelgan [Qayumov 1991, 78]) vaqt o'tadi. Ulardan biri yegulik izlab yashirinch shaharga borib, bozordan yegulik olish uchun tanga uzatganida oradan 300 yil muddat o'tganini biladi. Odamlar Daqyonus ancha oldin o'lib ketganini, hozir mo'min, solih bir odam podsholik qilayotganini aytishadi.

Asarga qaytadigan bo'lsak, arab tili nahv qoidasiga ko'ra u erdagi رابغ "robi'un" (to'rt) soniga هم "hum" (ular) zamiri qo'shilganida رابغهم "robi'uhum" (ularning to'rtinchisi) hosil bo'ladi. "It", "kuchuk" so'zining arabiy shakli esa كَلْب "kalbun"dir. TATda ushbu ikki so'z ham noto'g'ri shaklda nashr bo'lgan.

Husayn Boyqaroning Navoiy xonadonidagi mehmondorchilikdan boshlangan 10-hikoyat Mavlono Sog'ariyga aloqador hazilomiz 11-hikoyat bilan o'rin almashgan. Ya'ni ushbu hikoyat MAT va TATda 11-hikoyat tarzida kelgan. Biz tadqiqot doirasiga tortgan Istanbul va Sankt-Peterburg nusxalarida ham xuddi shunday. Shundan ham ko'rinadiki, "Xamsat ul-mutahayyiriyn"ning MAT va TATdagi nashrlari Sankt-Peterburg nusxasi asosida amalga oshirilgan degan taxminimizni quvvatlaydi.

TATda Davlat ishlari va tashvishlaridan iste'foga chiqmoqchi bo'lgan Navoiy va Jomiyning bunga munosabati haqidagi hikoyatga Mavlono Sog'ariy haqidagi mutoyibaomiz hikoyat qo'shib yuborilgan.

Shuningdek, MATda Sog'ariy bilan bog'liq hikoyat ***Alar Mavlono Sog'ariy bila ko'p mutoyaba qilurlar erdi*** deb boshlansa, TATda ***Ul Hazrat Mavlono Sog'ariy erdi*** deya boshlanadi.

Prof. Sh. Sirojiddinov to'g'ri ta'kidlaganidek, "matnshunos o'z maqsadiga erishish yo'lida muallifning diniy, falsafiy, badiiy tafakkur olamiga kirishga majbur. Agar matn didaktik va so'fiyona mazmunda bo'lsa, matnshunos muallif pozitsiyasini, uning o'z davri

ijtimoiy muammolariga bo'lgan yondashuvini tadqiq etib, asarda tilga olingan voqealar, ta'limotlar talqinining ob'yektiv va sub'yektiv jihatlarini ochib beradi. Muallif muayyan hodisani o'z qarashlaridan kelib chiqib talqin qiladi [Sirojiddinov 2019, 21].

Yuqoridagi fikrdan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, matnda davr siyosatidan tortib to oddiy kundalik hayotda uch-rashimiz mumkin bo'lgan ijtimoiy sharoitlargacha yoritilishi tabiiy hol. Demak, matnshunos matn zamirida ko'zda tutilayotgan maqsad va talqinni to'g'ri anglashi va uni chuqur tahlil qilishi lozim. Fikrimizni quvvatlash uchun quyidagi misolni ko'rib chiqamiz:

Ustoz-shogird orasidagi muomala odobi haqidagi **14-hikoyat**da quyidagi jumla keladi: *So'z asnosida andoqki, tovug'ni dastur bila har saboh katakdin chiqarmoq ma'huddur.*

MAT va TATda mazkur jumladagi **tovug'ni** so'zi **tovug' ne** tarzida keltirilgan. Nashrlardagi keltirilgan jumлага e'tibor qilinsa, ma'no quyidagi ifodani topadi: "So'z asnosida tovuqni qanday qilib har tong katagidan chiqarmoq kerak, yoki uni katagidan chiqarish odati qanday?". Bu esa barchaga ma'lum. Parrandami, chorpomi, yo boshqa jonivor, katagi, qo'rasi, uyasidan chiqarishning birdan-bir yo'li eshigini ochib tashqariga chiqarish uchun sharoit yaratish orqali holat amalga oshadi.

Hikoyadagi jumla parrandani qanday qilib tashqariga chiqarish haqida emas, balki bu erdagi maqsad boshqa ma'noni ifodalashdadir. Bu esa تاووغ نى so'zini **tovug' ne** deb emas, balki **tovug'ni** deb o'qilganda aniqroq namoyon bo'ladi. Ya'ni, "suhbat asnosida parrandalarni har tongi qoida bilan katakdan chiqarish odatdir". Bu jumlaning shunday tarzda o'qishimiz va tushunishimiz lozimligini mazkur hikoyatdagi keyingi jumla ham quvvatlaydi. *Tovuslarni asrag'uchi ham uylaridan surub chiqardi...*, ya'ni tovusboqar katakni ochib ularni inlaridan haydab chiqardi.

15-hikoyatda Abdurahmon Jomiyning Yaratganning huzuriga rixlat qilgan farzandi ismi MAT va TATda *Safiuddin Muhammad* tarzida biroz yanglish holda bayon qilingan [Навой 1967, 23; 1999, 26; 2011, 749; Шамсиев 1966, 33]. "O'zbek adabiyoti" antologiyasida esa ushbu ism *Safiddin* shaklida kelgan [Antologiya 1959, 559]. Arab imlosida mazkur ism محمد صفي الدين tarzida yoziladi va *Safiyyuddin Muhammad* deb o'qiladi. Mazkur hikoyat so'nggida keltirilgan ta'rixning birinchi misrasidagi ismning qisqartirilgan صفي shakli qofiya talabiga binoan "Safo" deb o'qilishi lozim. MAT va TATda bu ismning qisqartirilgan shakli "Safiy" deb keltirilgan va keyingi misralardagi فنا "fano", شما "shumo" so'zlariga qofiyadosh bo'lmagan.

Avvalgi maqolatning so'nggi hikoyatida keltirilgan personaj, ya'ni *Abu-l-Husayn Darroj* haqida ham to'xtalish lozim. "Asarlar"da ushbu hikoyatning oxiridan bir parcha keltirilgan, xolos. MAT va TATda bu shaxs *Abulhasan Durroj* sifatida keltirilgan bo'lib, izohda uning mashhur bag'dodlik shayxlardan bo'lgani bilan birga faqat vafoti sanasi ko'rsatilgan. Shuningdek, MAT izohida esa ushbu ism "*Abulhasan Durroj*" deya nashr qilingan [Navoiy 1999, 28, 190; 2011, 750, 385]. Xatib al-Bag'dodiyning "Tarixu Bag'dod" asarida keltirilgan ma'lumotlarda ushbu shaxsning ismi Sa'id ibn al-Husayn, kunya va nisbasi – Abu-l-Husayn ad-Darroj al-Bag'dodiy, Ibrohim al-Xavvos (vaf. 291/904)ga murid bo'lgan yirik mutasavvif ekani haqida ma'lumot berilgan [Xatib al-Bag'dodiy 1417/1997, 107].

Hikoyatda shayxlar ismidan so'ng zikr qilingan *قُدَّسَ سِرُّهُ* – *Quddisa sirruhu*, *قُدَّسَ اللّٰهُ سِرُّهُ* – *qaddasallohu sirruhu*, *قُدَّسَ اللّٰهُ سِرُّهُ الْعَزِيزِ* – *qaddasallohu sirruh ul-aziz* va hikoyat oxiridagi *نَعُوْذُ بِاللّٰهِ مِنْ شُرُوْرٍ اَنْفُسِنَا* – *Na'uzu billāhi min shurūri anfusinā* va *min sayyi'āti a'mālinā* kabi duo jumalari TATda to'g'rilangan [Navoiy 1999, 28-29; 2011, 750-751].

Xorijiy nashrlarga nisbatan uchraydigan farqlar

Doktor Ayshehan Deniz Abik tomonidan tayyorlangan va 2006-yilda chop ettirilgan nashrining kirish qismida olima uni uchta qo'lyozma manba asosida qiyosan o'rganganini ta'kidlaydi. Ayshehan Deniz Abik xonim o'z nashrida asosiy matn sifatida To'pqopi nusxasini bergan. Asardagi forsiy tildagi yozishmalar, doston va risolalardan keltirilgan namunalarning matnlarini To'pqopi nusxasidan asl variantini (kopiyasini) berish bilan kifoyalangan. Olima o'z nashrini to'rt qismda amalga oshirgan. Unda asar matni, uning hozirgi turk tilidagi ma'nosi (tabiiyki, To'pqopi nusxasi asosida), izohlar va asardagi so'zlar qo'lyozmaning qaysi varag'ida kelganini ko'rsatuvchi ro'yxat keladi. Qo'lyozmalar qiyosi alohida "Nusha karşılaştırması" sarlavhasi ostida berilgan. Biroq bu sarlavha ostidagi muqoyasalarda ham ayrim chalkashliklarni ko'rish mumkin [Deniz 2006, 81]. O'z o'rnida ushbu nashr katta mehnat natijasi ekanini e'tirof etish lozim, albatta. Mazkur nashr o'ziga xos ahamiyat kasb etsa-da, manbalar qiyosida quyidagi kamchiliklarini kuzatish mumkin. Jumladan:

1. Turk olimasi tomonidan chop qilingan asar nashrida na't qismining oxirgi misrasi to'rtlikdan ajralib pastga, ya'ni matnga qo'shib yuborilganini ko'ramiz. Bunga sabab hamd qismining oxirgi *Juz nukta'i subha..kana la.. 'ilma lana..* misrasidan keyin kelgan

Jalla sha'nuhu va 'azuma subha..nahu tahlil jumlasining hamd va na't orasida ajratilmay qo'shilib yozilganligida deb taxmin qildik. Shuningdek, mazkur tahlil ushbu nashrda *Celle şānehu ve 'azmü sübhanehi* tarzida xato berilgan [Deniz 2006, 19]. Bu jumladagi *şānehu –şa'nehu* va *'azmü sübhanehi* – *'azuma sübhanehü* tarzida bo'lishi kerak edi.

2. Turk olimasining arab tili va grammatik qoidalarini yaxshi xabardor emasligi na't qismi so'nggida kelgan salavotning o'qilishida ham yaqqol ko'ringan: *Şallallāhu 'aleyhi ve ālī ālihi ve aṣḥābehu etbā'ehu ve sellem*. Arab tilida "ga" jo'nalish kelishigini aks ettiruvchi *على* – *'ala* harfi va *آل* – *ol* oila (bu erda ahli bayt nazarda tutiladi) ma'nosini beruvchi lafzlarning yozilishi va ko'rinishida katta farq bor. Bu ikki so'zni bir xil tarzda nashrda keltirilishi esa ayni xatodir. Shuningdek, jumla davomidagi *aṣḥābehu etbā'ehu* so'zlarining e'robi raf' emas, balki jar o'qilishi lozim edi. Chunki *على* *'ala* harfi jar, va harfi otifa bo'lib *على* – *'alaga* qaytadi va yuqoridagi so'zlarni majrur *aṣḥābihi ve etbā'īhi* qiladi (Bu o'rinda vov harfi otifa bo'lishi kerakligi uchun qo'shib yozildi. Turk nashrida bu harf bilan ifoda qilinuvchi va bog'lovchisi aslida yo'q.). Arabiy jumla va kalimalar o'qilishi bilan bog'liq farqlar ushbu nashrda talaygina bo'lib, ularning barchasini keltirishni joiz bilmadik.

3. Ayshexan Deniz Abik tomonidan nashr qilingan asar matnidagi hamd-u na'tdan keyin kelgan ruboiyning oxirgi misrasi quyidagicha keltirilgan:

Ādem ki bolup ḥalīfe yaydı evlād

Evlādıda pīr ile ḥalef birmes yād [Deniz 2006, 19].

Bu bayt bilan bog'liq farq Afg'oniston nusxasida ham mavjud bo'lib, unga o'rni kelganda to'xtalamiz.

Turk olimasining aytishicha, u matnga To'pqopi nusxasini asos qilib olgan. To'pqopi nusxasining avvali bizda mavjud bo'lmagani uchun bu haqda batafsil fikr bildirish mumkin bo'lmadi.

4. Turk olimasi nashridagi asar matni quyidagicha keltiriladi:

Faḳīr köprek evkāt niyāz-mendliḡ yüzidin nīkat ü cinsdin tuḥfe vü teberrük alar ḥıdmetiḡa yibersem... .

فقير کوپراک اوقات نیازمندلیغ یوزیدین نقد یا جنسی دین تحفه و تبرک الار خدمتیغه ییارسام

5. Ushbu o'rinda e'tiboringizni نقد (naqd) kalimasiga qaratmoqchimiz. Lug'atlarda [Баранов 1957, 495; Рубинчик 1970, 656; Фозилов 1983, 445] pul, mablag' ma'nosini ifodalovchi ushbu so'z turk olimasi tomonidan biroz g'alat tarzda o'qilgan. Olima asar ustida olib borgan tadqiqotida aytishicha, To'pqopi va

Parij nusxalarida “niḳdat” kalimasi oʻrniga Sulaymoniya nusxasida *naḳd* kalimasi yozilganini eʼtirof qilgan [Deniz 2006, 159]. Toʻpqopi, Parij va Sulaymoniya nusxalarining qiyosiy tadqiqini olib borgan Ayshekan xonim asar matni tabdilida *niḳat*, izohlar qismida esa *niḳdat* soʻzlarini keltirganini koʻrishimiz mumkin. Toʻpqopi va Parij nusxalarida نقده soʻzi turk olimasi tomonidan *niqdat* deya yanglish oʻqilgan. Vaholanki, ushbu soʻzning oxiri toi marbuta (ة) emas, balki hoyi havvaz (و) bilan yozilgan boʻlib, *naqda* deya oʻqilishi lozim. Mazkur soʻzning maʼnosi ham yuqorida aytilgan pul, mablagʻ maʼnolarini ifodalashini faqatgina “Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati”da uchratish mumkin [Фозилов 1983, 445]. Demak, olima matnda oʻzi tomonidan tadqiqotiga jalb qilingan uchchala nusxada ham yoʻq boʻlgan *niḳat* soʻzini qoʻllash bilan matnga jiddiy oʻzgartirish kiritgan [Deniz 2006, 28].

6. Asarning qiyosiy tadqiqini amalga oshirgan Ayshekan xonim uning “Xotima”sida keltirilgan taʼrixni ham yuqorida aytilgandek Toʻpqopi qoʻlyozmasining asl variantidan keltiradi [Deniz 2006, 73]. Toʻpqopi nusxasidagi taʼrix:

كوهر كان حقيقت در بحر معرفت
كو بحق واصل شد و در دل نبودش ما سواه
كاشف سر آلهی بود بیشک ز ان سبب
كشت تأريخ وفاتش كاشف سر آله

Turk olimasi ushbu taʼrixdagi *Koshifi sirri Iloh* jumlasini abjad hisobida 697 h.y.ni ifoda qilishini hisoblab koʻrmagan koʻrinadi. U oʻz tadqiqot doirasida boʻlgan Parij va Sulaymoniya (Fotih) nusxalaridagi taʼrixni nazardan chetda qoldirgan. Bu ikki qoʻlyozma nusxadagi taʼrix كاشف اسرار آله *Kashfi asrori Iloh* tarzida kelgan boʻlib, bu taʼrixning abjaddagi yigʻindisi 898-h.y.ni ifoda qiladi. Abdurahmon Jomiyning vafot yili aynan 898-h.y. ekanini Navoiy “Xamsat ul-mutahayyiriyn”ning “Muqaddima” qismida eslatib oʻtadi [Alimov 2015, 20].

“Xamsat ul-mutahayyiriyn” Afgʻonistonda hijriy 1388-yili “Navoiy asarlaridan” rukni ostida chop etilgan. Ushbu nashrga yozilgan soʻzboshida “Xamsat ul-mutahayyiriyn” va “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” asarlari Gʻ.Gʻulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti tomonidan 1967-yili chop etilgan oʻn besh jildlik “Asarlar” toʻplamining 13-jildidagi P.Shamsiyev nashri asos qilib olingani haqida aytiladi [Roʻyin 1388]. Biroq, “Xamsat ul-mutahayyiriyn” mazkur nashrning 14-jildidan oʻrin olgan.

7. Afgʻon nashrida hamd-u naʼtdan keyin kelgan ruboiyning oxirgi misrasi quyidagicha berilgan [Roʻyin 1388, 24]:

آدم كه بولوب خليفه يايدي اولاد
اولادیده بير اويله خلف بير مس ياد

Ikkinchi misra *Avlodida birovila xalaf bermas yod deb* o'qiladi. Bu o'rinda ma'no aks etsa-da, asar qo'lyozma manbalarining birortasida **بیر اويله** so'zidagi "alif"dan keying **او** harfi o'z aksini topmagan.

8. Ushbu nashrda "Avvalgi maqolat" 2-hikoyatidagi *Faqir alarning "Shaybiyya" qasidalarig'akim...* jumlasidagi qasida nomi "Shayba" tarzida keltirilgan [Ro'yin 1388, 36].

Afg'oniston nashri -	فقير الرنينگ «شَيِّه» قصيد
P nusxasi -	فقير الارنينگ شَيِّه قصيد . لاريد اکيم
I nusxasi -	فقير الارنينگ شَيِّه قصيد . لاريفه کم
L nusxasi -	فقير الارنيک شَيِّه قصيد . لاريفه کيم
T ₁ nusxasi -	فقير الارنينگ شَيِّه قصيد . لاريفه که

Mazkur misollardagi P, I, T1 nusxalarida qasida nomi "Shaybiyya" ekani aniq ko'rinadi. L nusxasida qasida nomini so'zni yozilish usulidan, ya'ni undagi "tish"lar sonidan ilg'ash mumkin bo'ladi. Afg'on nashrida berilgan variant aslida xato emas. قَبِش (shayba(tun) باش "shoba"ning masdari bo'lib, "qari kekxa, yoshi ulug'" kabi ma'noni bildiradi [Фозилов 1984, 491]. Biroq qasida nomi grammatik nuqtayi nazardan quyidagicha nomlanishi to'g'ri bo'ladi: *Qasidat ush-shayba* – arabiy izofa (moslashmagan aniqlovchi), *al-Qasidat ush-shaybiyya* – mavsuf sifat (moslashgan aniqlovchi), *Qasidayi shaybiyya* – forsiy izofadir.

9. Nashrlarda "Xamsat ul-mutahayyiriyn" matni bilan bog'liq ma'noga futur yetkazmaydigan, undan ko'zlangan maqsadni ifodalashga xalal yetkazmaydigan tafovutlar ham uchraydi. Masalan, "Xamsat ul-mutahayyiriyn"da yuqorida nomi kelgan qasidasidan so'z kelgan "Avvalgi maqolat"ning 2-hikoyatida mazkur qasidaning

quyidagi matla'si keltirilgan:

Safed shud chu daraxti shukufador saram
*V-az in **daraxt** hamin mevai g'am ast baram*

[Alimov 2015, 26].

Har uch nashrda [Навоий 1967, 14; 1999, 15; 2011, 741], "Jomiy va Navoiy" [Шамсиев 1966, 25] hamda A.Qayumov Jomiyning 500 yilligiga bag'ishlab chop ettirgan "Nazm va tafakkur quyoshi" risolasida [Қаюмов 1992, 30] ushbu matla' quyidagicha keltiradi:

Safed shud chu daraxti shukufador saram
*V-az in **shukufa** hamin mevai g'amast baram.*

Afg'oniston nashrida ham ushbu matla' xuddi bizdagi nashrlardagidek keltirilgan [Ro'yin 1388, 37]:

سفید شد چو درخت شگوفه دار سرم
 وزین شگوفه همین میوه غم است برم

Bu baytning ikkinchi misrasidagi **daraxt** va **shukufa** (gul) so'zlariga e'tibor qilinsa, ma'noga va aytilmoqchi bo'lgan fikrga hech qanday ta'sir qilmaydi. Baytdagi ikkinchi misraning ma'nosi: "Bu daraxtdan (yoki guldan) yig'adigan hosilim g'am mevalaridir" deb tarjima qilinadi. Ammo tadqiqotimizga jalb qilingan qo'lyozmalarining birortasida ushbu misrada **shukufa** so'zi kelmagan. Jomiy asarlari ko'chirilgan Erondagi "Majlisi sho'royi milliy" kutubxonasida saqlanayotgan "Majmua"da ham ushbu misrada

سفید شد چو درخت شگوفه دار سرم وزین درخت همین میوه غم است برم

shukufa so'zi emas, balki **daraxt** so'zi yozilgan [Majmua, 13894-inv.].

10. Asardagi "Avvalgi maqolat"ning so'nggi hikoyatida Afg'oniston nashrida g'alizlik uchraydi. Bu holatni "Mukammal asarlar to'plami" nashrida ham ko'rishimiz mumkin. Matndagi "Va imom "Malomatiyya" din erdi" jumlasini mazkur nashrlarda quyidagicha kelgan:

Afg'oniston nashri [Ro'yin 1388, 55]	MAT [Navoiy 1999, 28]
و امام ملا متبه دین ایردی.	Ва имом Мулло Мутаннабиҳ-дин эрди.

Biz S. G'aniyeva nashrga tayyorlagan asar matni L (Sankt-Peterburg) va T₂ (ShI) nusxalari asosida tayyorlangan bo'lsa kerak, degan taxminni ilgari surayotgandik. L nusxadagi tariqat nomi zikr qilingan o'rin [Kulliyot, 558-inv. 699^b]:

امام ملامتیہ دی ایدی

ko'rinishida bo'lsa, T2 nusxasidagi quyidagicha:

وامام ملامتوسن ایدی

Malomatiyya – (arab. – ta'na ahli, ta'naga qoluvchilar) so'fiylik tariqatlaridan birining tarafdorlari. Ular fikricha, so'fiy ezgu amallarini boshqalarga oshkor etmasligi, ular maqtovga emas, balki zarur bo'lsa, ta'na-malomatga ham sabab bo'ladigan xatti-harakat qilishi, o'ziga nisbatan g'azab-nafrat uyg'otadigan tarzda hayot kechirishni ayb sanalmaydi. Bu yo'ldan borgan so'fiylar odamlar orasida o'zini yomon tutishi bilan malomat orttirib yurgan [Tasavvuf atamalari 2015, 125; O'zME 2003, 427].

“Tasavvuf atamalari so'zligi” kitobida aynan Abdurahmon Jomiyning malomatiylar haqidagi ta'rifi keltirilgan: “Malomiyya – o'z holi va sirlarini (ichki dunyosini) oshkor etmaydiganlardir. Aksincha, zavq va g'ayratlarining kamoli uchun sirlarini muhofaza etadilar. Ular imomlarning (rahbarlarning) ustozlaridir” [Tesevvuf terimlari sözlüğü, 651].

Asarni nashrga tayyorlovchilar matn davomida kelgan yuqoridagi ta'riflarga ishora qiluvchi iboraga e'tibor qilmagan ko'rinadi. Abul Husayn Darroj (q.s.) Imom Yusuf bin al-Husayn Roziy (q.s.)ning ziyoratiga Ray shahriga kelganlarida ko'chada u zot haqida odamlardan so'ragani va odamlarga u kishiga *Ul kofirni ne etasen, ul zindiqni ne etasen?* deb javob berganlari haqida aytilgan. Odamlarning mazkur javobidan ham yuqorida nashrlarda “Mullo mutanabbih” deya xato zikr qilingan so'z “malomatiyya” ekanligini anglash mumkin edi.

11. Mahalliy nashrlardagi asarning 16-hikoyatida *Fil-voqe'* mundoq o'qdur jumlası keladi. Navoiy asarlari nashrlarida mazkur jumla *Filvoqe' mundoqdur* tarzida nashr qilingan [Navoiy 1967, 24; 1999, 27; 2011, 750]. Bu “haqiqatda shundaydur” ma'nosini ifoda qiladi. Bir qarashda ma'no o'zgarishsiz. “Mavlono Abdurahmon Jomiy” kitobida mazkur jumla *Haqiqatan ham shunday edi* tarzida tarjima qilingan [Fаниева 2014, 39]. “Navoiy asarlari izohli lug'ati”da

“o‘q” so‘zi kuchaytirish yuklamasi ekani aytilgan [Фозилов 1984, 620]. S.G‘aniyeva tarjimasidagi *ham* so‘zi *o‘q* yuklamasi ma‘nosini ifoda qilmoqda. Demak, asar muallifining matnda *o‘q* yuklamasini keltirishi unda aytilmoqchi bo‘lgan fikrni yanada kuchliroq aks etishiga xizmat qilgan, desak xato bo‘lmaydi.

12. Jomiy asarlari ro‘yxati orasida **Abu Razin al-Uqayliy hadisig‘a sharh bitilgan risola** ham zikr qilingan. Tanqidiy matn tuzishga jalb qilingan qo‘lyozma manbalarning To‘pqopi, Parij nusxalarida ushbu risola tilga olinmagan. Istanbul (Fotih) nusxasida esa Jomiy asarlarining birortasi kitobat qilinmagan. Faqatgina Sankt-Peterburg va T₂ (ShI) nusxalaridagi Jomiy asarlari sanalgan o‘rinda ushbu risola tilga olingan. Biroq, Sankt-Peterburg nusxasida “Ibn Zarrin (yoki Razin) al-Uqayliy” deb, T₂ (ShI) nusxasida Abi Razin (yoki Zarrin) al-Uqayliy deb ko‘chirilganining guvohi bo‘ldik.

L (Sankt-Peterburg) nusxasidagi matn:

یہ ابن زین العقیلہ صہبی و مکان پالہ

Shaxs ismining aynan “Ibn” bilan yozilganligini ushbu asar matnining yuqori qatoridagi “Ibn Foriz” ismining yozilishi bilan bir xilligida ham ko‘rishimiz mumkin. Quyida o‘sha matnni keltiramiz:

یہ ابن فارض ملک تاپہ اپاتیدیں سے ف
یہ ابن زین العقیلہ صہبی و مکان پالہ

T₂ (ShI) nusxasidagi matn:

یہ ابی بے زین العقیلہ صہبی سے ف شرح

Ko‘rinib turibdiki, bu erda shaxs “Abi” (ya‘ni, Abu) ismi bilan kitobat qilingan. Mazkur nusxada yuqoridagi “Ibn Foriz” ismi esa “Abi” ismining kitobat shaklidan farqli ekanligi ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

نہ بن رض مکیہ

Jomiy sharh yozgan hadis muallifi “Ibn Zarrin al-Uqayliy” ismi borasida ham biroz mulohaza yuritishga to‘g‘ri keldi. Tadqiqotlar davomida u kishi sahobalardan bo‘lgani, ismlari ham Ibn Zarrin emas, balki Abu Razin ekanligi aniqlandi. Islom tarixida ushbu kunya bilan to‘rt nafar sahoba bo‘lgani aytilgan. 1. Abu Razin (ahli

suffadan); 2. Abu Razin al-Asadiy; 3. Abu Razin ibn Abdulloh; 4. Abu Razin al-Uqayliy Laqiyyt ibn Omr.

Mo'tabar hadis kitoblaridan hisoblangan Imom Ahmad ibn Hanbalning "Musnad"larida, Ibn Hajar Asqaloniyning hadis roviylari haqidagi "Tahzib at-tahzib" kitobida, Ibn Qone'ning "Mu'jam as-sahoba" va boshqalarda bu kishidan rivoyat qilingan hadisi shariflar keltirilgan.

Faqatgina ikki qo'lyozma nusxada asar nomida kelgan sahobaning Sankt-Peterburg نزيه (L) va O'zRFA ShI نزيه (T2) nusxalaridagi ism kitobatida nuqta qaysi harfga tegishli ekanligini bilish mushkil. Shu bois biz 2015-yili nashrda tayyorlagan tanqidiy matnda ushbu ismni "Zarrin" deya nashr qilgandik.

13. Ikkinchi maqolatning 4-holatida quyidagicha keltirilgan: *...darvishlar maddohlig'ini qilib, ammo hukumat tavrining nafyin qilmay, podshohning muborak alqobig'a tugatilgay*. Mazkur jumladagi "nafyin qilmay" so'z birikmasi nashrlarda "ta'yin qililmay" shaklida nashr qilingan [Шамсиев 1966, 40; Navoiy 1967, 31; 1999, 37; 2011, 757; Ro'yin 1388, 66]. T2 (ShI) qo'lyozma nusxada ushbu birikmaning birinchi so'zi nashrdagi kabi, ya'ni "ta'yin" tarzida ko'chirilgan. Jumla ma'nosi: *...darveshlar madhini qilib, biroq hukumat tartibining foydasini ko'zlamay, podshohning muborak nomi bilan tugatilgay*. Agar nashrdagi "ta'yin qililmay" so'z birikmasi qo'llanilsa, bu so'z birikmasidan avvalgi so'zning qaratqich kelishikda kelishi noto'g'ri bo'lib, u tushum kelishigida kelishi kerak edi. Nashrda tushum kelishigida qo'llanilgan ushbu so'z P va T2 (ShI) nusxalarida qaratqich kelishigida ko'chirilgan bo'lib, tanqidiy matnda qo'lyozma nusxalardagi variant qoldirildi. T2 (ShI) qo'lyozma nusxasida "ta'yin" kalimasi bilan kelgan jumla ma'nosi biroz g'alizlik kasb etadi. Asarda bildirilishicha, Navoiy "Tuhfat ul-afkor" qasidasining shuhrati haqida gapirib, "Daryoyi abror"ga yana bir tatabbu' qasida yozishni iroda qilganini, unda darveshlar madhini qilib, hukumat foydasini ko'zlamay podshohning nomiga tugatishni istaydi. Yuqoridagi ma'noni "ta'yin" kalimasi bilan aks ettirib bo'lmaydi. Istanbul, Sankt-Peterburg va Adabiyot muzeyi nusxalarida holatning ushbu jumla kelgan matnning katta bir qismi tushib qolgan [I, 695^b; L, 701^a; T1, 58^b].

14. Asarning "Xotima" qismi so'ngida keltirilgan ta'rixda ham Navoiy asarlari nashrlarida g'alizlik mavjud.

*Gavhari koni haqiqat, durri bahri ma'rifat,
K-o'ba haq vosil shudu dar dil nabudash mosivoh,*

Koshifi sirri ilohiy bud beshak, z-on sabab

Gasht ta'rixī vafotash: "Kashfi asrori Iloh".

Nashrlarda oxirgi misradagi abjad hisobi bilan Jomiy vafoti tarixiga ishora qilingan jumla *Koshifi sirri Iloh* deb keltirilgan [Шамсиев 1966, 72; Навоий 1967, 66; 1999, 79; 2011, 792]. Ushbu jumlaning arab imlosidagi shaklidan iroda qilingan maqsad hosil bo'lmaydi. Ya'ni, کاشف سر اله jumlasini abjad hisobida tekshirilsa, quyidagi yig'indi hosil bo'ladi:

اله			سر		کاشف			
ه	ل	ا	ر	س	ف	ش	ا	ک
5	30	1	200	60	80	300	1	20
اله yig'indisi			سر yig'indisi		کاشف yig'indisi			
36			260		401			
Umumiy yig'indi					697			

Yig'indisidan hosil bo'lgan hijriy 697-yilni ifoda qiluvchi mazkur jumla Abdurahmon Jomiy vafoti sanasiga to'g'ri kelmaydi. "Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy" hamda "Asarlar" so'ngida ta'rixning mazmuni berilgan izoh qismida ta'rix *Kashfi asrori Iloh* deya berilgan [Шамсиев 1966, 142; Навоий 1967, 254]. Ammo, MAT va TATdagi izoh va tarjimalar qismida *Koshifi sirri Iloh* jumlasidan abjad hisobida 898-yil chiqishi aytilgan, jumla esa noto'g'ri tarjima qilingan [Navoiy 1999, 212; 2011, 852].

Endi *Kashfi asrori Iloh* jumlasining arabiy imlosini abjad hisobida ko'rib chiqamiz:

اله			اسرار					كشـف		
ه	ل	ا	ر	ا	ر	س	ا	ف	ش	ك
5	03	1	200	1	200	60	1	80	300	20
اله yig'indisi			اسرار yig'indisi					كشـف yig'indisi		
36			462					400		
Umumiy yig'indi										
898										

Ko'rinib turganidek, ushbu jumla Abdurahmon Jomiy vafotini aniq ifoda qiladi.

15. "Uchinchi maqolat"ning so'ngidagi ishtirokchining ismi 2015-yilgi biz nashrda "*Mavlono Alishoh Bu*" tarzida berilgan edi

[Alimov O., 2015. 71]. Nashrlarda bu ism *Bu Alishoh bo'kakim* (*Bu-Alishoh bo'kakim*) tarzida berilgan [Шамсиев 1966, 65; Навоий 1967, 58; 1999, 70; 2011, 786]. Nashrlardagi *bo'ka* so'zining kichik harfda yozilgani, uni qanday ma'no anglatishini bilmaganimiz va uni Navoiy asarlari lug'atlaridan topilmagani shunday o'qishimizga sabab bo'lgan edi. Ma'lumki, "Bu" – "Abu" so'zining qisqartirilgan shakli va ushbu so'z ismdan keyin ham zikr qilinadi. Izlanishlar natijasida ushbu ishtirokchi ismidagi *Bo'ka* so'zi uning otasining ismi ekan va uning to'liq ismi Alishoh ibn Hoji Bo'ka Uvbahiy ekanligi aniqlandi.

Xulosa

Umuman olganda, Navoiy asarlari matni ustida ko'plab muammolar mavjudki, ularga to'g'ri echim topish matnshunoslik oldidagi dolzarb masalalardan.

Atoqli sharqshunos olim Y. E. Bertels ta'kidlaganidek, "yodgorliklarni nashr qilish ishi na sof mexanik, na sof texnik ishdir. Bu tadqiqot ishining alohida bir turidir" [Bertels 1965, 10]. Shunday ekan, bugungi kundagi nashrlarimiz yodgorliklarning qadimiy qo'lyozmalari asosida, yana ham muhimrog'i ularning ilmiy-tanqidiy matnlari asosida amalga oshirilishi ayni muddaodir. Zero, matnshunos oldida matn mas'uliyati degan burch hamisha ko'ndalang turishi shart.

Adabiyotlar

- Амир Низомуддин Алишер Навоий. 1388. *Хамсат ул-мутаҳаййирийн*. Абдуллоҳ Рўйин нашри.
- Абдулхайров, М. 2020. *Навоий асарлари матни табдилини амалга ошириш усуллари, тамойиллари ва амалий масалалари*. Фил. фанлари докт. (DSc) дисс. Тошкент.
- Ayşehan Deniz Abik. 2006. Ali Şir Nevayî. *Hamsetül-mütehayyirin*. Metin-Çeviri-Açıklamalar-Dizin. Ankara.
- Алишер Навоий. *Куллиёт*. Қўлёзма. Тўпқопи саройи кутубхонаси. Реван 808-инв. рақам.
- Алишер Навоий. *Куллиёт*. Қўлёзма. Франция Миллий кутубхонаси. Suppl. Turc. 317-инв. рақам. П нусха.
- Алишер Навоий. *Куллиёт*. Қўлёзма. Сулаймония кутубхонаси, Фотиҳ фонди. 4056-инв. рақам. И нусха.
- Алишер Навоий. *Куллиёт*. Қўлёзма. Россия миллий кутубхонаси. Санкт-Петербург. 558-инв. рақам. Л нусха.
- Алишер Навоий. *Хамсат ул-мутаҳаййирийн*. Қўлёзма. ЎзРФА Алишер Навоий номидagi Давлат адабиёт музейи. 9-инв. рақам. Т1 нусха.

- Алишер Навоий. *Хамсат ул-мутаҳаййирин*. Қўлёзма. ЎзРФА Абу Райҳон Беруний номли шарқшунослик институти. 2242-инв. рақам. Т2 нусха.
- Алишер Навоий. 1967. *Асарлар*. 15 томлик. Ўн тўртинчи том. Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти.
- Алишер Навоий. 1999. *Мукаммал асарлар тўплами*. Ўн бешинчи том. Тошкент: Фан.
- Алишер Навоий. 2011. *Тўла асарлар тўплами*. Ўн томлик. 5-том. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.
- Алимов, О. 2015. *Хамсат ул-мутаҳаййирин*. Танқидий матн. Тошкент: Мумтоз сўз.
- Баранов, Х.К. 1957. *Арабско-русский словарь*. Москва: Изд-во иностранных и национальных словарей.
- Бартольд, В.В. 1964. *Улусные Эмиры. Царствование Тимура*. Сочинения. Москва. Т.2. Ч.2.
- Бертельс, Е.Э. 1965. *Навои и Джами*. Москва: Наука.
- Мажмуа. Кутубхонаси мажлиси шўройи миллий. Эрон. Қўлёзма. 13894-инв. рақам.
- Рахманалиев, Р. 2009. *Империя тюрков. Великая цивилизация*. Москва: РИПОЛ классик.
- Раҳмонов, В. 2015. *Мумтоз сўз сеҳри*. Тошкент: O'zbekiston.
- Рубинчик, Ю.А. 1970. *Персидско-русский словарь*. Москва: Русский язык. Том. 2.
- Сирождидинов, Ш. 2019. *Матншунослик сабоқлари*. Тошкент: Навоий университети.
- Тасаввуф атамалари*. 2015. Изоҳли луғат. Тузувчилар жамоаси. Тошкент: Тошкент ислом университети.
- Tesevvuf terimleri sözlüğü*. İstanbul: Kalem yayınevi.
- Фозилов, Э. 1983. *Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати*. 1-жилд. Тошкент: Фан.
- Фозилов Э. 1983. *Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати*. 2-жилд. Тошкент: Фан.
- Фозилов Э. 1984. *Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати*. 3-жилд. Тошкент: Фан.
- Хатиб ал-Бағдодий. 1417/1997. *Тариху Бағдод*. 9-жилд. Байрут.
- Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. 2021. *Тафсири ҳилол*. Учинчи жуз. Тошкент: Hilol-Nashr.
- Шамсиев, П. 1966. *Абдурахмон Жомий ва Алишер Навоий*. Тошкент: Фан.
- Ўзбек адабиёти (антология)*. 1959. 2-жилд. Тошкент: ЎзССР давлат бадиий нашриёти.
- ЎзМЭ. 2003. 5-жилд. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.
- Қаюмов А. 1991. *Нодир саҳифалар*. Тошкент: Фан.
- Қаюмов А. 1992. *Назм ва тафаккур қуёши*. Тошкент: Фан.
- Ғаниева С. 2014. *Мавлоно Абдурахмон Жомий*. Тошкент.

Task of textual scholar and responsibility of original text

Ozod Alimov¹

Abstract

The transformation of the scientific heritage of Alisher Navai from the old Uzbek script into the current alphabet, a radical renewal of its level and quality, the correct understanding of obsolete words, the interpretation of some words and religious terms are one of the most pressing issues in the field of textual and source studies. The latest editions of Navai's works differ little from previous editions. The situation with foreign publications is also unsatisfactory. There are many shortcomings in these editions. The errors and omissions in these publications have not comprehensively analyzed yet.

The article with the publication of Alisher Navai's work "Khamsat ul-mutahayyiryn" published in our country and abroad. In addition to the specific aspects of these editions, here discussed about the shortcomings made in by them, relying on the primary manuscript sources of the work.

Key words: "Khamsat ul-mutahayyirin", scientific-critical text, interpretation, Ayshekan Deniz Abik, Abdullah Ro'yin, Shaybiyya, malamatiyya, manuscript, publications.

References

- Amir Nizomuddin Alisher Navoiy. 1388. *Xamsat ul-mutahayyiryn*. Abdulloh Ro'yin nashri.
- Abdulkayrov, M. 2020. *Navoiy asarlari matni tabdilini amalga oshirish usullari, tamoyillari va amaliy masalalalari*. Fil. fanlari dokt. (DSs) diss. Toshkent.
- Abdulkayrov, M. 2020. *Navoiy asarlari matni tabdilini amalga oshirish usullari, tamoyillari va amaliy masalalalari*. Fil. fan. dokt. (DSs) diss. avtoref. Toshkent.
- Ayşehan Deniz Abik. 2006. Ali Şir Nevayi. *Hamsetül-mütehayyirin*. Metin-Çeviri-Açıklamalar-Dizin. Ankara.
- Alisher Navoiy. *Kulliyot*. Qo'lyozma. To'pqopi saroyi kutubxonasi. Revan 808-inv. raqam.
- Alisher Navoiy. *Kulliyot*. Qo'lyozma. Fransiya Milliy kutubxonasi. Suppl. Turc. 317-inv. raqam. P nusxa.
- Alisher Navoiy. *Kulliyot*. Qo'lyozma. Sulaymoniya kutubxonasi, Fotih fondi.

¹ Ozod S. Alimov – Independent researcher, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: ozod78@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-1679-3426

For citation: Alimov, O. S. 2022. "Task of textual scholar and responsibility of original text". *Golden scripts* 1: 36-60.

4056-inv. raqam. I nusxa.

Alisher Navoiy. *Kulliyot*. Qo'lyozma. Rossiya milliy kutubxonasi. Sankt-Peterburg. 558-inv. raqam. L nusxa.

Alisher Navoiy. *Xamsat ul-mutahayyiriyin*. Qo'lyozma. O'zRFA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi. 9-inv. raqam. T₁ nusxa.

Alisher Navoiy. *Xamsat ul-mutahayyiriyin*. Qo'lyozma. O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomli sharqshunoslik instituti. 2242-inv. raqam. T₂ nusxa.

Alisher Navoiy. 1967. *Asarlar*. 15 tomlik. O'n to'rtinchi tom. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti.

Alisher Navoiy. 1999. *Mukammal asarlar to'plami*. O'n beshinchi tom. Toshkent: Fan.

Alisher Navoiy. 2011. *To'la asarlar to'plami*. O'n tomlik. 5-tom. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Alimov, O. 2015. *Xamsat ul-mutahayyiriyin*. Tanqidiy matn. Toshkent: Mumtoz so'z.

Baranov, X.K. 1957. *Arabsko-russkiy slovar*. Moskva: Izd-vo inostrannix i natsionalnix slovarey.

Bartold, V.V. 1964. *Улусные Эмиры. Сарствование Тимура*. Sochineniya. Moskva T.2. Ch.2.

Bertels, Y.E. 1965. *Navoi i Djami*. Moskva: Nauka.

Majmua. Kutubxonasi majlisi sho'royi milliy. Eron. Qo'lyozma. 13894-inv. raqam.

Raxmanaliev, R. 2009. *Imperiya tyurkov*. Velikaya sivilizatsiya. Moskva: RIPOL klassik.

Rahmonov, V. 2015. *Mumtoz so'z sehri*. Toshkent: O'zbekiston.

Rubinchik, Y.A. 1970. *Persidsko-russkiy slovar*. Moskva: Russkiy yazyk. Tom. 2.

Sirojiddinov, Sh. 2019. *Matnshunoslik saboqlari*. Toshkent: Navoiy universiteti.

Tasavvuf atamallari. 2015. Izohli lug'at. Tuzuvchilar jamoasi. Toshkent: Toshkent islom universiteti.

Tesevvuf terimlari sözlüğü. İstanbul: Kalem yayınevi.

Fozilov, E. 1983. *Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati*. 1-jild. Toshkent: Fan.

Fozilov E. 1983. *Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati*. 2-jild. Toshkent: Fan.

Fozilov E. 1984. *Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati*. 3-jild. Toshkent: Fan.

Xatib al-Bag'dodiy. 1417/1997. *Tarixu Bag'dod*. 9-jild. Bayrut.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. 2021. *Tafsiri hilol*. Uchinchi juz. Toshkent: Hilol-Nashr.

Shamsiev, P. 1966. *Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy*. Toshkent: Fan.

O'zbek adabiyoti (antologiya). 1959. 2-jild. Toshkent: O'zSSR davlat badiiy nashriyoti.

O'zME. 2003. 5-jild. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

Qayumov A. 1991. *Nodir sahifalar*. Toshkent: Fan.

Qayumov A. 1992. *Nazm va tafakkur quyoshi*. Toshkent: Fan.

Ganieva S. 2014. *Mavlono Abdurahmon Jomiy*. Toshkent.

“Latoyifnoma” va “Majolis un-nafois” asarlarining matniy tadqiqi

Parviz Izzatillayev¹

Abstrakt

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkiri va uning forsiy tarjimai – “Latoyifnoma” qiyoslab oʻrganilgan. Tadqiqot natijasida tarjimon Faxriy Hiraviyning yutuq va kamchiliklari ishonchli manbalarga tayangan holda tahlil qilingan. Jumladan, boshqa tarjimonlardan koʻra Faxriy Hiraviyning asl matndan imkon darajasida uzoqlashmaslikka harakat qilgani misollar asosida isbotlangan. Tarjimonning yutuqlari bilan birga baʼzi xato va kamchiliklar xususida ham fikr yuritilib, asarning Toshkent nashri yordamida mazkur kamchiliklar bartaraf etilgan. “Tehron nashridagi ayrim bahsli oʻrinlarni Toshkent nashri yordamida bartaraf etish boʻyicha tavsiyalar berilgan.

Kalit soʻzlar: *Alisher Navoiy, “Majolis un-nafois”, Faxriy Hiraviy, “Latoyifnoma”, qoʻlyozma, tarjima, matniy tadqiq, Tehron nashri, Toshkent nashri.*

Kirish

Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asari XV–XVI asr boshlari adabiyoti tarixiga oid muhim tazkiralardan biridir. Ali Asgʻar Hikmat 1945-yili mazkur asarning ikkita tarjimai – Faxriy Hiraviyning “Latoyifnoma” hamda Hakimshoh Qazvinining “Hasht bihisht” asarlarini bir kitobda jamlab, Tehronda nashr ettiradi. Olim tomonidan kitobga yozilgan muqaddimada aytilishicha, dastlab u “Latoyifnoma”ni nashr etish uchun faqatgina uning bitta forsiy nusxasidan foydalanilgan va soʻngra u “Majolis un-nafois” asarining uchta turkiy tildagi qoʻlyozmalari bilan qiyosiy oʻrganil-

¹ Izzatillayev Parviz Inoyatillayevich – oʻqituvchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: parvizisostoni@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-5754-2690

Iqtibos uchun: Izzatillayev, P. I. 2022. “Latoyifnoma” va “Majolis un-nafois” asarlarining qiyosiy tahlili”. *Oltin bitiglar* 1: 61-78.

gan. Dastavval olim “Latoyifnoma”ning forscha matnini 992/1583-yili kitobat qilingan Hoji Muhammad Naxjuvoniyo qoʻlyozma nusxasi asosida qaytadan tahrir etib, keyin uni 997/1588-yili kitobat qilingan Muhammad Ali Tarbiyatning turkiy tildagi qoʻlyozmasi va 1030/1620- hamda 1051/1640-yillari kitobat qilingan va hozirda Eronning Sipahsolor kutubxonasida №2729 va №100 inventar raqamlari ostida saqlanayotgan boshqa ikki turkiy tildagi nusxa bilan qiyoslaydi va nashr ettiradi.

“Majolis un-nafois” asari 1961-yili oʻzbek olimi S. Gʻaniyeva tomonidan Oʻzbekistonda nashr yuzini koʻradi. Navoiyshunos olimi Suyima Gʻaniyeva Vena, Parij, Sankt-Peterburg, Boku va ikki Toshkent nusxasi – oltita qoʻlyozma asosida “Majolis un-nafois”ning ilmiy-tanqidiy tekstini tuzishga muvaffaq boʻladi. Ali Asgʻar Hikmat “Latoyifnoma” asarini nashr etishda foydalangan qoʻlyozma nusxalar bilan S. Gʻaniyeva “Majolis un-nafois” asarini chop etishda foydalangan qoʻlyozma nusxalarning kitobat qilingan sanalari, kotiblari, qoʻlyozmaning qay darajada saqlanganligi, tili kabi omillarni qiyosiy oʻrganishimiz natijasida, S. Gʻaniyeva foydalangan qoʻlyozma nusxalar Ali Asgʻar Hikmat foydalangan nusxalarga nisbatan qadimiy va ayni paytda moʻtabarroq ekanligi oshkor boʻldi. Shunga koʻra ushbu ikki nashrni solitirib oʻrganishda S. Gʻaniyeva nashrini tayanch manba sifatida olishga jazm etdik.

Ali Asgʻar Hikmat nashr etgan “Latoyifnoma”¹ bilan S. Gʻaniyeva nashr etgan “Majolis un-nafois”² asarini oʻzaro solishtirib oʻrganish natijasida, ular orasida anchagina tafovut borligi namoyon boʻldi.

“Tehron nashri”da shoirlar sheʼrlarining nomlarida, baʼzan shoirlar sharhi holini keltirishda xato iboralarning qoʻllanilganiga guvoh boʻldik. Qizigʻi, bu yoʻl qoʻyilgan xatolar keyinchalik “Az-Zariʼa” va “Farhangi suxanvaron”, “Lugʻatnomayi Dehxudo” kabi asarlarda ham oʻz aksini topgan. Bu xato va kamchiliklar, shuningdek ularning boshqa manbalarda qoʻllanilganligi asarning “Toshkent nashri” hamda vaqt nuqtayi nazaridan mazkur asardan oldin yozilgan “Tazkirat ush-shuaro”, “Habib us-siyar”, “Tuhfayi Somiy” va “Arafot ul-oshiqin” kabi asarlar oʻrganilgandan soʻng yaqqol koʻrinadi. Shuningdek, “Latoyifnoma” chop etilgan kitobdan oʻrin olgan Qazviniyning tarjimasi yaxshi tahrir qilinmagani bois “Latoyifnoma”dagi mavjud xatolar aynan Qazviniyning tarjimasida ham takrorlanadi.

¹ Keyingi oʻrinlarda “Tehron nashri” deya tilgan olinadi.

² Keyingi oʻrinlarda “Toshkent nashri” deya tilgan olinadi.

Alisher Navoiy o‘zining “Majolis un-nafois” tazkirasida har bir shoir haqida alohida to‘xtab, uning sharhi holi va ijodidan namunalar keltiradi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Toshkent nashrida mavjud ayrim shoirlar sharhi holi va she‘rlaridan namunalar Tehron nashrida tarjima qilinmasdan tashlab ketilgan. Shuningdek, Toshkent nashrini ko‘zdan kechirib, uni Tehron nashri bilan qiyosiy o‘rganish natijasida shoirlar borasidagi ayrim qaydlarning Tehron nashrida mavjud emasligi ravshanlashdi. Bunday qaydlarning adadi, taxminan yetmishta. Quyida Tehron nashrida mavjud bo‘lmagan shoirlar to‘g‘risidagi shu kabi qaydlarni birma-bir ko‘rib chiqamiz:

“Majolis un-nafois”ning Toshkent nashrida Mir Shohiy haqidagi ma‘lumotdan so‘ng Tehron nashrida mavjud bo‘lmagan Mavlono Mushtariy ismli shoirning tarjimai holi keltirilgan:

Mavlono Mushtariy — *astrobodlig‘dur. O‘z vaqtida mashohirdin erdi. Bu matla‘ aningdurkim:*

Soqiy agar mayam nadihad dar havon gul.

Dasti man astu domani soqiyu poi gul

[Alisher Navoiy 2013, 306].

Shuningdek, Toshkent nashrida Mavlono Muhammad Omiliy tarjimai holidan keyin “Tehron nashri”ga kirmagan shoir – Mavlono Burujiy to‘g‘risida shunday bayon qilingan:

Mavlono Burujiy — *Mavlono Sa‘diddin Koshg‘ariyning murididur, naqshbandiya silsilasidindur. Qalin muridlari bor erdi. O‘zi shahar masjidi jomeida suluk qilur erdi. Base toliblarg‘a murshidi muqtado erdi va gohi nazm ham iltifot qilur erdi. Bu matla‘ aningdurkim:*

Man oshiqi sho‘ridavu mastam, chi tavon kard?

Dil dodavu jon dar kafi dastam, chi tavon kard?

Qabri o‘z piri yonidadur [Navoiy 2013, 326].

Shuni ham zikr etmoq kerakki, **Hofiz Sharbatiy** va undan keyin keltirilgan **Xoja Kamoliddin Udiy** va **Ali Karmol** haqidagi qaydlar Toshkent nashrida to‘rtinchi majlisda keltirilgan bir paytda, Hofiz Sharbatiy borasidagi ma‘lumot Tehron nashrida uchinchi majlisda keltirilgan.

Toshkent nashrida yuqorida tilga olingan ikkita tarjimai holdan tashqari, yana 68 ta shoir haqida ma‘lumot bor. Tehron nashrida ular haqida ma‘lumot uchramaydi. Bu shoirlarning har biri xususida alohida to‘xtab o‘tishning imkoni bo‘lmaganligi bois, ularning ismi va taxallusini jadvalda keltirish bilan cheklanamiz.

Nº	Majolis un-nafois	Latoyifnoma
1	Mavlono Muzhir (3-m., 342-b.)	3-m, 342-b.
2	Darvesh Xusomiy (3-m., 345-b.)	3-m, 345-b.
3	Mavlono Abdulhaq (3-m., 349-b.)	3-m, 349-b.
4	Mavlono Vidoyi (3-m., 349-b.)	3-m, 349-b.
5	Mavlono Hajriy (3-m., 352-b.)	3-m, 352-b.
6	Mavlono Harimiy (3-m., 354-b.)	3-m, 354-b.
7	Mavlono Qalandar (3-m., 354 b.)	3-m, 354 b.
8	Mavlono Xalil (3-m., 355-b.)	3-m, 355-b.
9	Mavlono Haybatiy (3-m., 355-b.)	3-m, 355-b.
10	Mavlono Qanbariy (3-m., 355-b.)	3-m, 355-b.
11	Sayyid Orif (3-m., 355-b.)	3-m, 355-b.
12	Mavlono Adimiy (3-m., 355-b.)	3-m, 355-b.
13	Mavlono Shabobiy (3-m., 355-b.)	3-m, 355-b.
14	Mavlono Darvesh (3-m., 356-b.)	3-m, 356-b.
15	Mavlono Ayoniy (3-m., 356-b.)	3-m, 356-b.
16	Mavlono Mummad (3-m., 356-b.)	3-m, 356-b.
17	Mavlono Faxriy (3-m., 357-b.)	3-m, 357-b.
18	Mavlono Rukniy (3-m., 357-b.)	3-m, 357-b.
19	Mavlono Toyibiy (3-m., 358-b.)	3-m, 358-b.
20	Hasan Ali (3-m., 360-b.)	3-m, 360-b.
21	Mavlono Fathulloh (3-m., 360/361-b.)	3-m, 360/361-b.
22	Mavlono Asiruddin (3-m., 361-b.)	3-m, 361-b.
23	Mavlono Faxruddin (3-m., 362-b.)	3-m, 362-b.
24	Mavlono Maqsud (3-m., 363-b.)	3-m, 363-b.
25	Mir Asadulloh (3-m., 365-b.)	3-m, 365-b.
26	Mir Ahadulloh (3-m., 365-b.)	3-m, 365-b.
27	Mavlono Shoh Ali (3-m., 365-b.)	3-m, 365-b.
28	Mir Husayn (3-m., 367-b.)	3-m, 367-b.
29	Mavlono Koshiy (3-m., 367-b.)	3-m, 367-b.
30	Mavlono Zoyiriy (3-m., 367-b.)	3-m, 367-b.
31	Mavlono Qone'iy (3-m., 367-b.)	3-m, 367-b.
32	Mavlono Ziyoyi (3-m., 368-b.)	3-m, 368-b.
33	Mavlono Nuriy (3-m., 368-b.)	3-m, 368-b.
34	Mavlono Fayziy (3-m., 368-b.)	3-m, 368-b.
35	Mavlono Ayniy (3-m., 368-b.)	3-m, 368-b.
36	Mavlono Mu'iniy (3-m., 368-b.)	3-m, 368-b.

37	Mavlono Xizriy (3-m., 368-b.)	3-m, 368-b.
38	Ustod Muhammad O’bahiyl (3-m., 368/369-b.)	3-m, 68/369-b.
39	Mir G’iyosuddin Aziz (4-m., 375-b.)	4-m, 375-b.
40	Xoja Kamoluddin Udiy (4-m., 376-b.)	4-m, 376-b.
41	Ali Karmol (4-m., 377-b.)	4-m, 377-b.
42	Sulton Ibrohim Musha’sha’ (4-m., 379-b.)	4-m, 379-b.
43	Mavlono Xondamir (4-m., 379-b.)	4-m, 379-b.
44	Mavlono Hoji Muhammad (4-m., 381-b.)	4-m, 381-b.
45	Hofiz Muhammad Sultonshoh (4-m., 382-b.)	4-m, 382-b.
46	Mavlono Faxriy (4-m., 382-b.)	4-m, 382-b.
47	Mavlono Qosim (4-m., 383-b.)	4-m, 383-b.
48	Mirak Husayn (4-m., 386-b.)	4-m, 386-b.
49	Mavlono Sharifi Bog’i Shahriy (4-m., 388-b.)	4-m, 388-b.
50	Mavlono Shoh Ali (4-m., 388-b.)	4-m, 388-b.
51	Mavlono Bahlul (4-m., 388-b.)	4-m, 388-b.
52	Sulton Abdulloh (4-m., 390-b.)	4-m, 390-b.
53	Pahlavon Darvesh Muhammad (4-m., 391-b.)	4-m, 391-b.
54	Myhammad Ali (4-m., 391-b.)	4-m, 391-b.
55	Pahlavon Sulton Ali Go’shtigir (4-m., 391-b.)	4-m, 391-b.
56	Xoja Qutbiddin (4-m., 393-b.)	4-m, 393-b.
57	Xoja Yusuf Mehna (4-m., 393-b.)	4-m, 393-b.
58	Xoja Yahyo (4-m., 395-b.)	4-m, 395-b.
59	Mir Ibrohim (5-m., 398-b.)	5-m, 398-b.
60	Sheram (5-m., 399-b.)	5-m, 399-b.
61	Xoja Alouddin (6-m., 408-b.)	6-m, 408-b.
62	Mavlono Ahliy (6-m., 409-b.)	6-m, 409-b.
63	Jahonshoh mirzo (7-m., 414-b.)	7-m, 414-b.
64	Ya’qub Mirzo (7-m., 414-b.)	7-m, 414-b.
65	Muhammad Husayn mirzo (7-m., 417-b.)	7-m, 417-b.
66	Boysung’ur mirzo (7-m., 417-b.)	7-m, 417-b.
67	Sulton Mas’ud mirzo (7-m., 417-b.)	7-m, 417-b.
68	Sulton Ali mirzo (7-m., 417-b.)	7-m, 417-b.

Tehron nashri va Toshkent nashri orasidagi ixtiloflardan yana biri, bu – qaydlarning nomlanishidagi tafovutlar yoxud shoir-larning ismi va taxallusidagi farqlardir. “Latoyifnoma”da ko‘plab shoirlarning ism va taxalluslari Ali Asg‘ar Hikmat foydalangan Naxjuvoni nuxsasidagi mavjud xatolar sabab noto‘g‘ri zikr etilgan. Agar Ali Asg‘ar Hikmat foydalangan nusxa ishonchli nusxa bo‘lganida yoki qiyoslash uchun boshqa nusxalardan foydalanilganida, bu xatolarning aksariyati bartaraf qilingan bo‘lardi. Bu xatolar “Majolis un-nafois” asaridan keyin yaratilgan ba’zi bir asarlarda ham takrorlangan, ammo bu xatolarning aksariyatini Toshkent nashri yordamida to‘g‘irlash mumkin bo‘ladi. Tehron nashrida qaydlarning nomlanishida yo‘l qo‘yilgan xatolardan ayrimlarini quyida ko‘rib chiqamiz:

Tehron nashrida **Mavlono Sharaf Xiyoboniy** haqida shunday ma’lumot keltirilgan: *Mavlono Sharaf Xiyoboniy – mardi darvesh va nomurod ast va hamesha bar sari toj namad nihoda, qo‘rchuq mepichid va ba mardum niz omezishash kamtar mebud va beshtari avqot ba tatabbuyi “Xamsa” mashg‘uli menamud. Voqe’an, nisbatan ba holi xud bad nanavishtaast. Dar “Xamsa”ash dar fazilati afv in bayti nek voqe’ shudaast:*

*Ba nazdi kase k-o’ ba donish meh ast,
Zi mujrimkushi jurmbaxshi beh ast...* [Navoiy 1323, 11].

Mazkur shoirning ismi tayanch manba – Toshkent nashrida **Mavlono Ashraf** [Navoiy 2013, 296] tarzida yozilgan. Biz Toshkent nashri da keltirilgan variantni, ya’ni “Mavlono Ashraf” variantini to‘g‘ri deb hisoblaymiz. Chunki, mazkur shoirning nomi “Riyozi ush-shuaro” [Dog‘istoniy 1391, 140] va “Maxzan ul-g‘aroyib” [Sandiluy 1994, 210] asarlarida ham **Darvesh Ashraf** va “Ro‘zi ravshan” [Huseyn Sabo 1343, 52] asarida **Ashraf** nomi bilan tilga olingan. Bu esa yuqoridagi fikrimizning to‘g‘ri ekanligini tasdiqlaydi. Ammo “Arafot ul-oshiqin” asari ta’sirida bo‘lsa kerak, “Az-Zari’a” [Tehroniy 78, 512] va “Farhangi suxanvaron” asarlarida [Xayyompur 1340, 269] avvaliga **Ashraf Marog‘iy Xiyoboniy** tarzida, ikkinchi daf’a esa ishtibohan **Sharaf Xiyoboniy** tarzida tilga olingan.

Avhadiy o‘zining mashhur tazkirasi “Arafot ul-oshiqin” asarini yozishda eng muhim manba sifatida “Majolis un-nafois” va uning forsha tarjimai “Latoyifoma” asarlarini tanlab olgan. Bu ikki kitoblarga qayta-qayta murojaat qilgan muallif ulardagi ko‘plab ma’lumotlardan foydalanadi. U foydalangan manbalarda Mavlono Sharafning ismi ba’zi o‘rinlarda Ashraf, ba’zan esa Sharaf tarzida zikr etilgan. Avhadiy “Ashraf” va “Sharaf” aslida bir odam ekanligini

anglamasdan, bir o‘rinda Darvesh Ashraf [Buljoni 1389, 469] boshqa bir o‘rinda esa Mavlono Sharaf Xiyoboniy [Buljoni 1389, 2103] tarzida zikr etadi.

“Tehron nashri”da **Mavlono Nozaniniy** haqida shunday ma’lumot berilgan: *Mavlono Nozaniniy Sabzavori ul-asl bud. Tab’ dilpazir dosht. Agarchi omi bud, ammo ash’orash xoli az choshni nabud va bo Amir Shohiy bisyor suhbat doshta bud va ba g’azal guftan beshtar mayl mekard.*

*Sanavbar to zi xizmatgorii sarvat judo monda,
Shuda devonavi jo’lidamo’ sar dar havo monda.
Dar Astrobod favt shud, qabrash onjost* [Navoiy 1323, 40].

Biroq shoirning ismi “Toshkent nashri”da **Mavlono Zayni** [Navoiy 2013, 321] deb tilga olinadi. Shuningdek, “Arafot ul-oshiqin” [Buljoni 1389, 1693] va “Ro’zi ravshan” [Huseyn Sabo 1343, 334] asarlarida ishtibohan Zinatii Sabzavoriy va “Riyoz ush-shuaro” asarida esa “Zinatii Astrobodiy” [Dog’istoni 1391, 617] nomi bilan zikr etilgan. Yuqorida tilga olganlarimizdan “Zayni” ismi to’g’ri variant bo’lib, “Arafot ul-oshiqin” havolasida bunga ishora bor va “Xulosat ul-ash’or” asarining uchinchi ruknida ham “Zayni Sabzavoriy” tarzida keltirilgan [Ma’oni 1363, 527]. Mazkur shoirning ismi “Tehron nashri” ta’siridan bo’lsa kerak “Az-Zari’a” [Muhammad Muhsin Oghobuzurg Tehroniy, 1152] va “Farhangi suxanvaron” [Abdurrasul Xayyompur 1340, 586] asarlarida ham xato tarzda “Mavlono Nozaniniy” deya zikr etilgan.

“Tehron nashri”da **Mavlono Oshiqiy** haqida shunday deyiladi: *“Mavlono Oshiqiy az shahri Hirot bud va qasidaro puxta meguft va dar fursate, ki Sulton Abu Sa’id Mirzo amorati Oq Saroy tamom kard, jahti... va in matla’ dar ta’rifi amorat az o’st:*

*In manzare, ki toq chu abro’yi dilbar ast,
Az xok bar giriftai doroyi kishvar ast* [Navoiy 1323, 41].”

Ammo, ushbu shoir “Toshkent nashri”da **Mavlono Ishqiy** [Navoiy 2013, 322] deya to’g’ri tilga olinadi. Mazkur shoir “Arafot ul-oshiqin” [Buljoni 1389, 2945], “Tazkirayi Husayniy” [Odiliy 1292, 209], “Ro’zi ravshan” [Huseyn Sabo 1343, 549] va “Farhangi suxanvaron” [Xayyompur 1340, 393] asarlarida ham “Mavlono Ishqiy” tarzida tilga olingan, ammo “Az-Zari’a”da [Tehroniy, 673/723] bir o‘rinda to’g’ri tarzda “Mavlono Ishqiy Hiraviy”, boshqa bir o‘rinda esa “Oshiqiy Hiraviy” tarzida tilga olinadi.

“Tehron nashri”da **Mavlono Sa’diy** haqida shunday bayon qilingan: *Mavlono Sa’diy az Mashhad bud va kosagari mekard. In*

matla'yi zuqofyatayn az o'st:

*Zi bahri qat'i hasti hila az sad joy angezam,
Magar yak lahza bo on dilbari xudroy omezam*

[Navoiy 1323, 43-44].

Ushbu shoirning ismi “Toshkent nashri”da **“Mavlono Sa’idiy”** [Navoiy 2013, 324] deb qayd etilgan. Shuningdek, “Arafot ul-oshiqin” [Buljoniy 1389, 1840] asarida ham Mavlono Sa’idiy Mashhadiy deya to’g’ri tilga olingan, ammo “Latoyifnoma”da keltirilgan ikkinchi bayt ishtibohan Sa’d Mashhadiy [Amir Alisher Navoiy 1323, 44] qalamiga mansub deya ta’kidlangan. Aslida, bu Sa’idiy qalamiga mansub she’r birinchi baytining davomi bo’lib, u bilan vazn va qofiyada hamohangdir. Bu shoir “Ro’zi ravshan” [Huseyn Sabo 1343, 359] asarida “Sa’idiy Kosagar” tarzida to’g’ri tilga olinadi, ammo “Az-Zari’a” [Muhammad Muhsin Ogohbuzurg Tehroniy, 450/453] asarida dastlab Sa’dii Mashhadiy tarzida xato; ikkinchi safar esa Sa’diy Kosagar deb to’g’ri keltiriladi. “Farhangi suxanvaron”da [Abdurrasul Xayyompur 1340, 269] ham ishtibohan Sa’diy Mashhadiy tarzida zikr etilgan.

“Tehron nashri”da **Mavlono Xotamiy** haqida shunday ma’lumot beriladi: *“Mavlono Xotamiy – az xudamoyi Xoja Kusaviy bud va darveshiyi tamom dosht. In matla’ az o’st:*

*Niyozmandi tuem, ey ba noz parvarda,
Turo zamona ajab dilnavoz parvarda* [Navoiy 1323, 49]”.

Ammo mazkur shoir “Toshkent nashri”da **Mavlono Xokiy** [Navoiy 2013, 331] deb to’g’ri qo’llanilgan. “Arafot ul-oshiqin” [Buljoniy 1389, 1294] hamda “Xulosat ul-ash’or”da [Ahmad Gulchin Ma’oni 1363, 527] ham Mavlono Xokiy deya zikr etilgan, ammo “Az-Zari’a”da bir marotaba Xotamii Kusaviy [Tehroniy, 227] deb xato berilgan, ikkinchi da’fa esa Xokiy Kusaviy [O’sha asar, 283] deb to’g’ri tilga olingan. “Farhangi suxanvaron” asarida ham avval Xotamiy Kusaviy [Xayyompur 1340, 179] tarzida xato, keyin esa Xokiy Kusaviy [O’sha asar, 183] tarzida to’g’ri keltirilgan. Shuningdek, “Latoyif ut-tavoyif” asari muallifi mazkur shoirni Xokiy [Bayhaqiy 1352, 236] nomi bilan tilga olib, u haqda bir hikoya ham keltiradi.

“Tehron nashri”da **Mavlono Qabuliy** to’g’risida shunday ma’lumot berilgan: *Mavlono Qabuliy – az viloyati Tarshiz bud va marde nadimsheva va hikmatshior bud va dar majolis ba misol va nazir ovardan nazir va misol nadosht. In matla’ az o’st:*

Muhtasib meguft, day az ro’yi hol,

Biroq mazkur shoir “Toshkent nashri” da **Mavlono Muqbilii** [Navoiy 2013, 345] boʻlib kelgan. Shuningdek, “Arafot ul-oshiqin” asarida Muqbili Tarshiziy [Taqiuddin Muhammad Vohidiy Buljoniy 1389, 3960], “Az-Zari’a” da bir marotaba ishtibohan Qabuliy Tarshiziy [Muhammad Muhsin Ogohbuzurg Tehroniy, 857], ikkinchisida esa Maqbuliy Tarshiziy [O’sha asar, 1088], “Farhangi suxanvaron” da ham birinchi marotaba ishtibohan Qabuliy Tarshiziy [Xayyompur 1340, 468], ikkinchi daʼada Muqbili Tarshiziy [O’sha asar, 559] tarzida zikr etilgan.

“Majolis un-nafois” ning “Tehron nashri” va “Toshkent nashri” oʻrtasida shoirlarning ismi va taxallusi yuzasidan shunga oʻxshash 99ta shoirning nom-u nasabi va taxallusida ixtilof mavjud boʻlib, ularning har biri haqida atroflicha toʻxtalib oʻtishning imkoni yoʻq. Shu bois ularning faqat ismi-sharifi va taxalluslarini jadvalda keltirish bilan cheklanamiz:

2-jadval.

Asl turkiy matnda (Toshkent nashri) shoirlarning nom-u nasabi va taxallusi	Faxriyning tarjimasida (Tehron nashri) shoirlarning nom-u nasabi va taxallusi
Hazrati Qosim Anvor (1-m., 291-b.)	Amir Qosimiy Anvor (1-m., 6-b.)
Xoja Abulvafoyi Xorazmiy (1-m., 293-b.)	Xoja Abulvafo (1-m., 9-b.)
Xoja Ismatulloh (1-m., 296-b.)	Xoja Ismat (1-m., 12-b.)
Sayyid Ali Hoshimiy (1-m., 298-b.)	Sayyid Hoshimiy (1-m., 14-b.)
Mavlono Ali Ohiy (1-m., 300-b.)	Mavlono Ali Osiy (1-m., 17-b.)
Mavlono Ali Shugʻoniy (1-m., 301-b.)	Mavlono Muhammad Ali Shugʻoniy (1-m., 17-b.)
Bobo Savdoyi (1-m., 301-b.)	Mavlono Savdoyi (1-m., 18-b.)
Mavlono Tolib Jojarmiy (1-m., 302-b.)	Mavlono Muhammad Tolib Jojarmiy (1-m., 19-b.)
Mavlono Orifiy (1-m., 303-b.)	Mavlono Mahmud Orifiy (1-m., 20-b.)
Mavlono Qadimiy (1-m., 304-b.)	Mavlono Nadimiy (1-m., 21-b.)
Mavlono Hoji Abulhasan (1-m., 305-b.)	Hoji Abulhasan (1-m., 22-b.)
Mir Shohiy (1-m., 306-b.)	Amir Shohiy (1-m., 23-b.)
Mavlono Abdulvahhob (2-m., 309-b.)	Mavlono Qozi Abdulvahhob Mashhadiy (2-m., 26-b.)
Mir Yodgorbek (2-m., 312-b.)	Amir Yodgorbek (2-m., 30-b.)
Mavlono Fasih Rumiy (2-m., 314-b.)	Mavlono Fasehi Runiy (2-m., 32-b.)

Hofiz Ali Jomiy (2-m., 315-b.)	Mavlono Hofiz Ali Jomiy (2-m., 34-b.)
Sayyid Kamol Kachkul (2-m., 316-b.)	Sayyid Kamol Gachkuli (2-m., 35-b.)
Mavlono Abdusamad Badaxshiy (2-m., 318-b.)	Mavlono Abdusamad (2-m., 36-b.)
Xoja Hasan Xizrshoh (2-m., 319-b.)	Xoja Xizrshoh Astrobodiy (2-m., 38-b.)
Xoja Mas'ud Qumiy (2-m., 320-b.)	Mavlono Mas'ud Qumiy (2-m., 38-b.)
Vali Qalandar (2-m., 321-b.)	Mavlono Vali Qalandar (2-m., 40-b.)
Mavlono Volahiy (2-m., 321-b.)	Mavlono Vola (2-m., 40-b.)
Harimiy Qalandar (2-m., 321-b.)	Mavlono Harimiy Qalandar (2-m., 41-b.)
Xoja Ahmad Mujallid (2-m., 327-b.)	Mavlono Muhammad Mujallid (2-m., 46-b.)
Mavlono Safoyi (2-m., 330-b.)	Safoyi (2-m., 48-b.)
Mavlono Yusuf (2-m., 330-b.)	Mavlono Bade'iy (2-m., 48-b.)
Mavlono Yaqiniy (2-m., 332-b.)	Mavlono Naqibiy (2-m., 50-b.)
Mavlono Kamoliy (2-m., 333-b.)	Mavlono Kamol (2-m., 51-b.)
Mirzo Hoji So'g'diy (2-m., 333-b.)	Mavlono Hoji Sug'diy Samarqandiy (2-m., 51-b.)
Mavlono Bilol (2-m., 335-b.)	Mavlono Hiloliy (2-m., 53-b.)
Muhammad Ali (2-m., 335-b.)	Mir Muhammad Ali Kobuli (2-m., 53-b.)
Sayyid Hasan Ardasher (2-m., 336-b.)	Amir Husayn Ardasher (2-m., 54-b.)
Hazrat Maxdumiy Shayx ul-islomiy Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy (3-m., 338-b.)	Mavlono Nuriddin Abdurahmoni Jomiy (2-m., 56-b.)
Mavlono Hasanshoh (3-m., 342-b.)	Mavlono Husaynshoh (3-m., 61-b.)
Mavlono Abdulloh (3-m., 342-b.)	Mavlono Abdulloh Hotifiy (3-m., 62-b.)
Mavlono Darvesh Mashhadiy (3-m., 343-b.)	Mavlono Darvesh (3-m., 63-b.)
Sayyid Qutb Lakadang (3-m., 344-b.)	Sayyid Qutb (3-m., 64-b.)
Mavlono Nargis (3-s, 346-b.)	Mavlono Nargisiy (3-m., 65-b.)
Mavlono Solimiy (3-m., 347-b.)	Mavlono Soyiliy (3-m., 66-b.)
Mavlono Jamshid (3-m., 349-b.)	Mullo Jamshed Muammoyi (3-m., 69-b.)
Mavlono Shihob (3-m., 349-b.)	Mullo Shahob (3-m., 70-b.)
Mavlono Abu Tohir (3-m., 351-b.)	Mavlono Abu Tolib (3-m., 70-b.)

Mavloni Qabuliy (3-m., 350-b.)	Mavloni Qabuliy Qunduriy (3-m., 72-b.)
Sayyid Naqibiy (3-m., 351-b.)	Mavloni Naqibiy (3-m., 72-b.)
Mir Hoshimiy (3-m., 351-b.)	Mavloni Hoshimiy (3-m., 73-b.)
Xoja Muso (3-m., 354-b.)	Mavloni Muso (3-m., 75-b.)
Lutfiyi Soniy (3-m., 355-b.)	Mavloni Lutfiy (3-m., 71 b.)
Mavloni Toyifiy (3-m., 358-b.)	Mavloni Toyiriy (3-m., 78-b.)
Mir Lavand (3-m., 358-b.)	Mir Qalandar (3-m., 78-b.)
Mavloni Sofiy (3-m., 363-b.)	Mullo Sofiy (3-m., 79-b.)
Mavloni Fig'oniy (3-m., 363-b.)	Mir Sa'id (3-m., 80-b.)
Mavloni Bihishtiy (3-m., 363-b.)	Mullo Bihishtiy (3-m., 80-b.)
Mavloni Nargisiy (3-m., 364-b.)	Mullo Nargisiy (3-m., 81-b.)
Mavloni Darvesh Ali (3-m., 366-b.)	Mullo Darvesh Ali Shamo' (3-m., 83-b.)
Zova Qozisiy (3-m., 367-b.)	Qozizoda (3-m., 84-b.)
Mavloni Doiy (3-m., 370-b.)	Mavloni Doyimiy (3-m., 86-b.)
Mavloni Fidoiy (3-m., 371-b.)	Fidoiyi Tabriziy (3-m., 87-b.)
Mavloni Volahiy (3-m., 372-b.)	Mavloni Vofiy (3-m., 88-m.)
Pahlavon Muhammad Go'shtigir (4-m., 373-b.)	Pahlavon Muhammad Abu Sa'id (4-m., 89-b.)
Mir Sarbarahna (4-m., 374-b.)	Sayyid Sarbarahna (4-m., 91-b.)
Mavloni Burhonuddin (4-m., 375-b.)	Mavloni Burhonuddin Atoulloh Roziy (4-m., 91-b.)
Mavloni Mas'ud (4-m., 376-b.)	Mavloni Kamoliddin Mas'ud (4-m., 91-b.)
Mir Ixtiyoruddin (4-m., 380-b.)	Sayyid Ixtiyor (4-m., 95-b.)
Mavloni Muhammad Badaxshiy (4-m., 381-b.)	Mullo Muhammad Badaxshiy (4-m., 95-b.)
Sayyid G'iyosuddin (4-m., 383-b.)	Mir G'iyosuddin (4-m., 96-b.)
Mir Sayyid Husayn Abivardiy (4-m., 382-b.)	Mir Husayn Bovardiy (4-m., 97-b.)
Sayyid Asadulloh (4-m., 383-b.)	Mir Asadulloh (4-m., 97-b.)
Hofiz Jaloluddin Mahmud (4-m., 385-b.)	Hofiz Jamoluddin Mahmud (4-m., 98-b.)
Mavloni Nomiy (4-m., 385-b.)	Mullo Nomiy (4-m., 98-b.)
Xoja Sulton Muhammad (4-m., 386-b.)	Mavloni Sulton Muhammad (4-m., 99-b.)
Mavloni Sulton Ali Qoyiniy (4-m., 388-b.)	Darvesh Sulton Ali Qoyiniy (4-m., 101-b.)
Sufiy Piri Sesadsola (4-m., 388-b.)	Darvesh So'fiy – Piri sesadsola (4-m., 101-b.)

Mavlono G'iyosuddin (4-m., 389-b.)	G'iyosuddin Ali (4-m., 102-b.)
Mavlono Jamoluddin (4-m., 392-b.)	Mavlono Jaloluddin (4-m., 104-b.)
Xoja Qutbiddin Ahmad (4-m., 394-b.)	Xoja Qutbiddin Muhammad (4-m., 105-b.)
Mavlono Fasihuddin (4-m., 395-b.)	Xoja Fasihuddin (4-m., 106-b.)
Amir Davlatshoh (5-m., 396-b.)	Hazrati Amir Davlatshoh (5-m., 108-b.)
Mir Husayn Ali Jaloyir (5-m., 397-b.)	Hasan Ali Jaloyir (5-m., 108-b.)
Yomg'urchibek (5-m., 399-b.)	Mir Yag'murchi yo Mag'murchibek (5-m., 111-b.)
Ibrohim Muhammad Xalil (5-m., 400-b.)	Mir Ibrohim (5-m., 111-b.)
Shoh Quli Uyg'ur (5-m., 400-b.)	Shohquli Yag'ur (5-m., 112-b.)
Abduqahhor (5-m., 401-b.)	Abdulqahhor (5-m., 112-b.)
Bek Malakiy (5-m., 401-b.)	Bequliy (5-m., 112-b.)
Ahmad Hojibek (6-m., 402-b.)	Amir Ahmad Hojibek (6-m., 114-b.)
Xoja Xovand (6-m., 404-b.)	Xoja Xond (6-m., 114-b.)
Amir Mahmud Barlos (6-m., 404-b.)	Mir Mahmud Barlos (6-m., 114-b.)
Darvesh Shuhudiy (6-m., 404-b.)	Mavlono Foni (6-m., 114-b.)
Orif Farkatiy (6-m., 405-b.)	Mavlono Orif (6-m., 117-b.)
Mavlono Darvesh Dehakiy (6-m., 406-b.)	Darvesh Dehakiy (6-m., 118-b.)
Xoja Afzal (6-m., 407-b.)	Xoja Fazlullo (6-m., 119-b.)
Mavlono Yoriy (6-m., 409-b.)	Mullo Yoriy (6-m., 120-b.)
Mavlono Mirakiy (6-m., 409-b.)	Mavlono Mirak (6-m., 121-b.)
Mavlono Bayzoiy (6-m., 410-b.)	Mavlono Bayzoiy (6-m., 122-b.)
Temur Ko'ragon (7-m., 411-b.)	Amir Temur Go'ragon (7-m., 123-b.)
Abubakr mirzo (7-m., 412-b.)	Abobkar mirzo (7-m., 124-b.)
Xalil Sulton (7-m., 413-b.)	Sulton Xalil (7-m., 125-b.)
Saydi Ahmad mirzo (7-m., 414-b.)	Sayyid Ahmad mirzo (7-m., 126-b.)
Sulton Badiuzzamon mirzo (7-m., 415-b.)	Sulton Bade'uzzamon (7-m., 127-b.)
Sulton us-salotin Abulg'ozi Sulton Husayn Bahodurxon (8-m., 418-b.)	Abulg'ozi Sulton Husayn Bahodurxon (8-m., 130-b.)

“Majolis un-nafois” tazkirasining “Tehron nashri” va “Toshkent nashri” orasida qaydlarning nomlanishi yoki shoirlar ismi va taxallusidagi ixtiloflardan tashqari shoirlar to‘g‘risidagi ma’lumotning ma’nosida ham ixtiloflar mavjud. Ayni ma’lumotlardagi bu kabi farqlarni shartli ravishda ikki qismga ajratish mumkin:

- 1) shoirlar bilan bog‘liq ixtiloflar;
- 2) shoirlarning she’ri bilan bog‘liq ixtiloflar.

“Tehron nashri”da keltirilgan shoirlar haqidagi ma’lumot

bilan “Toshkent nashri”da aynan shu shoirlar haqida keltirilgan ma’lumot orasida farqlar mavjud. Mazkur farqlar asosan kishilar ismi va joy nomlari bilan bohliqdir. Quyida joy nomlari bilan bog’liq ayrim farqlarni keltiramiz:

“Tehron nashri”da **Mavlono Amiriy** haqida keltirilgan ma’lumotning xotima qismida uning vafot etgan joyi borasida shunday yozilgan: *Qabrash jonibi Badaxshon dar Arhangu Sar ast* [Navoiy 1323, 19], ammo Toshkent nashrida uning vafot etgan manzili bo’yicha shunday ma’lumot keltiriladi: *Aning qabri Badaxshon sari Arhang Saroydadur* [Navoiy 2013, 302]. Boshqa tazkiralarda Mavlono Amiriy vafot etgan joy nomi to’g’risida ma’lumot uchramaydi.

“Tehron nashri”da **Shayx Sadriddin Ravosiy** to’g’risidagi ma’lumotda uning dafn etilgan manzili quyidagicha keltiriladi: *Dar shahri Hirot az olam raft va na’shi o’ro ba viloyati Shug’on burdand va onjo madfun ast* [Navoiy 1323, 28].

“Toshkent nashri”da ham mazkur shoirning dafn etilgan manzili yuzasidan shu mazmundagi ma’lumot keltiriladi: *Shayx Hiriy shahrida olamdan o’tti va na’shin Shug’ong’a eltilar va anda madfundur* [Alisher Navoiy 2013, 311].

“Tehron nashri”da **Mavlono Muhammadali Shug’oni**y [Navoiy 1323, 17] ismli kishi haqida ham ma’lumot berilgan bo’lib, “Toshkent nashri”da ham “Tehron nashri”da keltirilgani kabi aynan “Shug’on” deb tilga olingan. Bu so’z viloyatlardan birining nomi bo’lib, “Nuzhat ul-qulub” asarida bu haqda shunday bayon qilingan: *Jojurm az iqlimi chahorum ast... Shuqon shahre vasat ast va bist pora diya az tavobe’i on ast va az iqlimi chahorum ast* [Mustavfiy 1336, 174-175].

Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuro” tazkirasida yuqorida tilga olingan viloyat haqida shunday deyiladi: *Raboti Ishq, ki dar janubi Darband – Shuqon ast va bar sari rohe voqe’ ast, ki az Xuroson ba Jurjon va Astrobod meravand...* [Samarqandiy 1918, 54].

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan bahs mavzusi bo’lgan qadimiy viloyat nomining yozilish tartibi 1436-37-yillarda “Nuzhat ul-qulub” asari yozilgunicha “*Shuqon*” tarzida berilgan, ammo vaqt o’tishi bilan u “Shug’on” tarzida yozila boshlangan. “Toshkent nashri”da ham bu joyning nomi “Shug’on” tarzida tilga olinganligini yuqorida aytib o’tdik.

“Tehron nashri”da **Mullo Muhammad Badaxshiy**ning qayerlik ekanligi to’g’risida shunday bayon qilinadi: *Az qariyai*

Ishkamesh ast, ki dar navohiyi viloyati **Qundur** ast [Navoiy 1323, 95].

Biroq “Toshkent nashri”da yuqoridagi qayddan biroz farq qiluvchi ma’lumot keltiriladi: **Qunduzning Ishkamish otlig’ kentidindur** [Navoiy 2013, 381].

Bular orasidan “Ishkamish” va “Qunduz” to’g’ri variant hisoblanib, boshqa manbalarda ham mazkur joy nomlari shu shaklda tilga olinadi. Jumladan, “Haft iqlim” asari muallifi Qunduzni Kobul shimolidagi bir viloyat sifatida [Roziy 1389, 610], Badaxshiyning tug’ilgan joyini esa “Ishkamish” [O’sha asar, 609] tarzida tilga oladi. Tarix va jug’rofiyaga oid manbalarda “Qundur” va “Ishkamish” nomli viloyatlar tilga olinmagan, biroq “Tehron nashri”ning ta’sirida “Farhangi suxanvaron” asarida ham Badaxshiyning tug’ilgan joyi ishtibohan “Ishkamish” [Xayyompur 1340, 519] tarzida keltiriladi.

Shuni ham alohida qayd etish lozimki, “Tehron nashri”da **Mavlono Qabuliy Qunduriy** to’g’risidagi ma’lumotda “Qunduz” ishtibohan “Qundur” [Navoiy 1323, 72] tarzida zikr etilgan va bu xatolik keyinchalik yozilgan “Farhangi suxanvaron” [Abdurrasul Xayyompur 1340, 468] va “Az-Zari’a” [Muhammad Muhsin Ogohbuzurg Tehroniy, 875] asarlariga ham ko’chgan. Biroq Qazviniyning “Majolis un-nafois”dan qilgan forsiy tarjimasida [Navoiy 1323, 242] hamda “Arafot ul-oshiqin” tazkirasida [Taqi-uddin Muhammad Vohidiy Buljoni 1389, 3408] mazkur viloyatning nomi “Qundo’z” tarzida qayd etilgan.

Shoirilar bilan bog’liq bu kabi farqlardan tashqari, ba’zida “Tehron nashri” bilan “Toshkent nashri” orasida turli shoirlar ijodidan keltirilgan she’rlar va ularning mazmun-mohiyatida ham tafovutlar borligi aniqlandi. Ulardan ayrimlarini quyida keltirib o’tamiz:

“Tehron nashri”da **Mavlono Zohidiy** haqida so’z ketganda shunday bayt keltiriladi:

*Zuhraro jang borubob ki dod,
La’l dar sang yo Rab ob ki dod* [Navoiy 1323, 18].

Bizningcha, xato yozilgan *borubob* so’zidan maqsad *bo rubob* bo’lsa, bu misralardan shunday ma’no kelib chiqadi: *Kim Zuhra va rubob orasiga nifoq soldi*. Ammo ayni shu misralar Toshkent nashrida: *“Zuhraro chang yo rubob ki dod”* [Navoiy 2013, 302] va “Arafot ul-oshiqin”da: *Zuhraro chang bo rubob ki dod* [Buljoni 1389, 1649] tarzida keltiriladi. “Toshkent nashri” hamda “Arafot ul-oshiqin” asarida keltirilgan ushbu baytning ma’nosi bir-biriga ancha yaqin. Bularda *Kim Zuhraga [chalishi uchun] chang yo [va] rubob*

berdi degan ma’no ifodalangan.

Sharq adabiyotida “Zuhra” va “Nohid” yulduzi xursandchilikning mazhari bo’lib, uni “falak mutribi” sifatida ham talqin qilganlar. Shuningdek, ko’plab shoirlar, jumladan Hofiz Sheroziyning she’rlarida ham bu mavzu tilga olinadi:

Biyovar may, ki natvon shud zi makri osmon emin,

Ba lo’bi Zuhrai changivu Mirrixii silahshurash [<https://ganjoor.net/hafez/ghazal/sh278>].

Yuqoridagi misoldan “Toshkent nashri” va “Arafot ul-oshiqin” asarida keltirilgan variantning mazmuni, ya’ni “Zuhraga [chalishi uchun] chang yo [va] rubob bermoq” “Tehron nashri”da keltirilgan “Zuhra va rubob orasida urush chiqarmoq”dan ko’ra aqlga sig’adigan holatdir.

“Tehron nashri”da **Xoja Abu Ishoq** haqida keltirilgan ma’lumotda quyidagi bayt ham zikr etilgan:

*Kashid az dasti mo sahroyi Xovar **domani gulho**,*

Ba sahroyi qiyomat dasti movu domani sahro

[Navoiy 1323, 11].

Mazkur baytning birinchi misrasi “Toshkent nashri”da shunday keltirilgan: *Kashid az dasti mo sahroyi Xovar **domani gulro*** [Navoiy 1323, 318] va “Arafot ul-oshiqin”da esa: *Kashid az dasti mo sahroyi Xovar **domani on gul*** [Buljoni 1389, 435] tarzida keltiriladi. Qayd etilgan misraning oxiri “Tehron” va “Toshkent” nashri hamda “Arafot ul-oshiqin”da farqli bo’lsa-da, ularning hech birida vazn muammosi mavjud emas. “Toshkent nashri” hamda “Arafot ul-oshiqin” asarida shoirning maqsadi aniq-ravshan bayon etilgan. Shoirning maqsadini yuqorida tilga olingan ikki manbada “Tehron nashri”da keltirilganidek, *Sharq sahrosi gullarni (ya’ni ma’shuqlar yoxud biyobon gullarini) tortib oldi* tarzida emas, balki *Sharq sahrosi gulni (ya’ni ma’shuqni) bizdan tortib oldi* tarzida talqin qilish mumkin.

“Tehron nashri” bilan “Toshkent nashri” o’rtasidagi she’rlarda bundan boshqa farqlar ham anchagina topiladi. Jumladan, Mavlono Muhammad Olim (1-majlis, 16-raqam, 15-bet), Mavlono Sulaymoniy (1-majlis, 34-raqam, 31-bet), Mavlono Tuti (2-majlis, 56-raqam, 31-bet) kabi shoirlarning she’rlarida ham bu kabi tavofutlar ko’zga tashlanadi.

Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasida ko’p hollarda shoirlar ijodidan namuna sifatida bir yoki ikki bayt keltirish bilan cheklangan. “Tehron nashri”da esa ba’zan mazkur she’rlarning ayrim

misralari keltirilmasdan, ularning o'zni ochiq qoldirilgan. Quyida ushbu holat yuzasidan bir misol keltiramiz:

Sulton Iskandar Sheroziy qalamiga mansub ruboiyning ikkinchi bayti ikkinchi misrasi shunday berilgan:

*Tori mo'yugning dukonin mubin,
Yo misrifi yo Halabni... yo Rumi [Navoiy 1323, 124/125].*

“Toshkent nashri”da esa ruboiyning ikkinchi misrasi shunday keltiriladi: *“Yo Misrni yo Halabni yo Rumiy”*. Toshkent nashrini to'g'ri deyishimizga sabab – Tehron nashridagi baytdan ma'no chiqara omaganimiz. Mazkur nusxada keltirilgan baytdan ma'no chiqara olamiz, ya'ni shoir bu bayt bilan “ma'shuqning har tola sochi Misr, Halab va Rum mamlakatlaridan-da qadrliroq” ekanligini uqtirmoqchi bo'ladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, har ikki nashrni o'zaro solishtirib o'rganish natijasida, taxminan yetmishta shoirning sharhi holi “Toshkent nashri”da keltirilib, “Tehron nashri”da ular haqida hech narsa deyilmagan.

“Toshkent nashri”da ba'zi bir shoirlar va ularning she'rlari to'g'risida ko'proq ma'lumot berilgan bo'lib, “Tehron nashri”da bu ma'lumotlar uchramaydi.

“Toshkent nashri”ga nisbatan olib qaraganda, “Tehron nashri”da ixtilof va xatolar mavjud bo'lib, bu xatolar asosan shoirlarning nomi va taxallusi yoki ularning sharhi holi hamda she'rlarida ko'zga tashlanadi. “Tehron nashri”da ba'zi bir iboralar ma'nosida tushunarsiz o'rinlar mavjud bo'lib, “Toshkent nashri” yordamida uni bartaraf qilish mumkin bo'ladi.

Faxriyning tarjima asari – “Latoyifnoma”da shoirlarning taxalluslari har xil ya'ni, bir shoirning taxallusi asliyatda boshqa nom bilan “Latoyifnoma”da boshqa nom bilan ko'rsatilgan bo'lib, bu tarjimaning noqisligidan darak beradi.

Adabiyotlar

Alisher Navoiy. 2013. *To'la asarlar to'plami*. 10-jildlik. 9-jild. Toshkent:

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

امیر علیشیر نوایی، مجالس النفایس، به کوشش علی اصغر حکمت، منوچهری، تهران 1323.
اوحدی بلیانی، تقی الدین محمد. عرفات العاشقین و عرصات العارفین. به تصحیح ذبیح الله
صاحب کاری و آمنه فخر احمد. 1 ج. تهران: میراث مکتوب، 1389.

- آقابزرگ تهرانی، محمد محسن. الذریعه الى تصانیف الشیعه. ج 9. بیروت: دار الاضواء خیامپور، عبدالرسول. فرهنگ سخنوران. تبریز: چاپ خانه شرکت سهامی چاپ کتاب آذربایجان، 1340.
- دولتشاه سمرقندی، امیر دولتشاه بن علاءالدوله. تذکره الشعرا. به تصحیح ادوارد براون. لیدن: بریل.
- رازی، امین احمد. هفت اقلیم. به تصحیح سید محمد رضا طاهری. ج 2. تهران: سروش، 1389.
- سنبهلی مراد ادلی، میر حسین دوست. تذکره حسینی. لکهنو: نول کشور، 1292 ق صبا، محمد مظفر حسین. روز روشن. به اهتمام محمدحسین رکن زاده آدمیت. تهران: کتابخانه رازی، 1343.
- فخر الدین علی صفی بیهقی، لطایف الطوائف. به تصحیح احمد گلچین معانی. ج 3. تهران: شرکت نسبی اقبال و شرکا، 1352.
- گلچین معانی، احمد. تاریخ تذکره های فارسی. 1 ج. تهران: کتابخانه سنایی، 1363.
- مستوفی، حمدالله. نزهة القلوب. به اهتمام محمد دبیرسیاقی. 1336.
- واله داغستانی، علی قلی حان. ریاض الشعرا. به اهتمام ابو القاسم رادفر و گیتا اشیدری. ج 2. تهران: پژوهشگاه علوم انسانی، 1391.
- هاشمی سندیلوی، شیخ احمد علی خان. مخزن الغرایب. به تصحیح محمد باقر. ج 1. اسلام آباد: مرکز تحقیقات فارسی ایران و پاکستان، 1994.
- <https://ganjoor.net/hafez/ghazal/sh278>

Textual study of «Latoyifnoma» and «Majolis un-nafois»

Parviz Izzatillaev¹

Abstract

This article compares Alisher Navoi's "Majolis un-nafois" and its Persian translation, "Latoyifnoma". As a result of the research, the successes and shortcomings of the translator are listed one by one, relying on reliable sources. In particular, unlike other translations, the fact that Fakhri Hiravi tried not to deviate as much as possible from the original text has been proved by giving examples and analysis. At the same time, the mistakes and shortcomings of the translator were considered, and with the help of the «Tashkent edition» of the work, these shortcomings were eliminated. Some of

¹ Parviz I. Izzatillaev – Teacher of the Department of Foreign Languages, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: parvizisisoni@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-5754-2690

For citation: Izzatillaev P. I. 2022. "Textual study of «Latoyifnoma» and «Majolis un-nafois». *Golden scripts* 1: 61-78.

the controversial shortcomings in the “Tehran edition” have been addressed with the help of the “Tashkent edition”.

Key words: *Alisher Navo'i, "Majolis un-nafois", Fakhri Hiravi, "Latoyifnoma", manuscript, translation, text research, "Tehran edition", "Tashkent edition".*

References

- Alisher Navoiy. 2013. *Tula asarlar tuplami*. (10 jildlik). Gafur Gulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi: Toshkent, 9-zhild.
- Amin Ahmad Rozij. 1389. *Haft iqlim*. Be tashihe Sajjid Muhammad Rizo Tohirij. j.2. Tehron: Surush.
- Amir Alisher Navoiy. 1323. *Mazholis un-nafois*. Be kushehe Ali Asghar Hekmat. Tehron: Manuchehri.
- Abdurrasul Xayyompur. 1340. *Farhange suxanvaron*. Tabriz: Chopxoneje sherkate sahhomiye chope ketobe Ozarbojzhon.
- Aliqulixon Vola Dogestonij. 1391. *Rijoz ush-shuaro*. Be ehtemome Abulqosem Rodfar. zh. 2. Tehron: Pajuheshgohe ulume ensonij.
- Ahmad Gulchin Maonij. 1363. *Torixe Tazkerehoje forsi*. zh. 1. Tehron: Keteobxoneje Sanoij.
- Davlatshoh Samarqandi. *Tazkirat ush-shuaro*. Be tashihe Eduord Broun. Liden: Brill.
- Mir Huseyn Dust Murod Odelij. 1292. *Tazkereye Huseynij*. Lakhnau.
- Muhammad Muzaffar Huseyn Sabo. *Ruze Roushan*. Be ehtemome Muhammad Huseyn Runzoda Odamiijat. Tehron: Ketobxoneye Rozij.
- Muhammad Muhsin Oghobuzurg Tehronij. *az-Zaria*. zh. 9. Bejrut.
- Taqiuddin Muhammad Vohidiy Buljonij. 1389. *Arafot ul-oshiqin va arasot ul-orifin*. Be tashihe Zabihulloh Sohibkorij va Omine Faxr Muhammad. zh. 1. Tehron: Mirose maktub.
- Faxriddin Ali Safiy. 1352. *Latoyef ut-tavoyef*. Be tashihe Ahmad Gulchin Ma'oni. zh. 3. Tehron.
- Hamdulloh Mustavfij. 1336. *Nuzhat ul-qilub*. Be ehtemome Muhammad Dabir Seyoqij.
- Shayx Ahmadalixon Hoshemi Sandiluj. 1994. *Maxzan ul-garoyeb*. Be tashihe Muhammad Boqer. zh. 1. Eslomobod: Markaze tahqiqote forsije Iron va Pokeston.

<https://ganjoor.net/hafez/ghazal/sh278>

“G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi alif bilan tugallanuvchi hamd g‘azallarning matniy xususiyatlari

(To‘pqopi, Parij va Dushanbe nusxalari asosida)

Akrom Malikov¹

Abstrakt

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi birinchi devon – “G‘aroyib us-sig‘ar” tarkibidagi “alif” harfi bilan tugallanuvchi hamd g‘azallarning matni tahlil qilingan. Devonning uch nusxasi – Dushanbe (№1990), Istanbul (Revan 808) va Parijda (Turc 317) saqlanayotgan qo‘lyozmalardagi matnlar qiyoslab o‘rganilgan. Shuningdek, Hamid Sulaymon tayyorlagan tanqidiy matnga ham murojaat qilingan. E‘tiborli jihati, maqolada badiiy matn amaliy va nazariy matnshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiqqa tortilgan. Muallif g‘azallarning ko‘chirilishi o‘rtasidagi farqlarni o‘rganish bilan birga ularning mazmuniniga ham e‘tibor qaratgan. Uch qo‘lyozmaning ikkitasiga kiritilgan, ammo bittasida uchramaydigan hamd g‘azal aniqlangan.

Kalit so‘zlar: *devon, matn, qo‘lyozma, kulliyot, nusxa, qiyos, kotib, tanqidiy matn, hamd, g‘azal, maqta‘, matla‘, taxallus.*

Kirish

Alisher Navoiy ijodiy merosini o‘rganish keyingi yillarda yangi bosqichga ko‘tarildi. Shoir ijodiga falsafiy manba sifatida qarash tez-tez kuzatilmoqda. Tadqiqotlarda asarlarning badiiy xususiyatlari, tilshunoslikdagi ahamiyati va qo‘lyozmalar tavsifi, she‘rlar, baytlar soni o‘rtasidagi farqlarni sanash bevosita matnga, uning g‘oyasiga, ruhiga kirib borish bilan almashib boryapti. Navoiyshunoslikning dastlabki davrlari – sobiq sho‘rolar zamonida shoir asarlarini kirill alifbosiga tabdil qilish, chop etish masalalari

¹ Malikov Akrom Abduhamidovich – tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: akrommalik@hotmail.com

ORCID ID: 0000-0002-9515-439X

Iqtibos uchun: Malikov, A.M. 2022. “G‘aroyib us-sig‘ar”dagi alif bilan tugallanuvchi hamd g‘azallarning matniy xususiyatlari (To‘pqopi, Parij va Dushanbe nusxalari asosida). *Oltin bitiglar* 1: 79–95.

ustuvor bo'lsa, mustaqillik davridagi izlanishlarda ushbu nashrlarga suyangan holda badiiyatga oid tahlillar, ramzlar va timsollarni o'rganish kabi tamoyillar ko'proq ko'zga tashlandi. Shuningdek, shoir g'azallarini sharhlash an'anasi vujudga keldi. Bu yo'lda N. Komilov, I. Haqqulov, N. Jumaxo'ja, O. Davlatov, B. To'xliyev, K. Mullaxo'jayeva va boshqa navoiyshunoslarning salmoqli ishlari yuzaga keldi. Endilikda Alisher Navoiy merosini yaxlit tizim sifatida o'rganish, shoir ijodi haqidagi savollarni uning barcha matnlari ichidan izlash, mutafakkir ijodkorning ma'naviy olami, ruhoniy dunyosini matnlar asosida yangi metodlar bilan tadqiq qilish asosiy masalaga aylanmoqda.

Bugun Alisher Navoiy ijodini o'zida aks ettirgan har bir qo'lyozmaga ham qiyosiy, ham individual yondashuv zaruratga aylandi. Qo'lyozma matnida shoir asarining qay shaklda aks etgani, o'zgarishlar kotibning maishiy sharoiti yoki ruhiy holatiga bog'liqmi yoki ijtimoiy-siyosiy sabablar bilan izohlanadimi degan savollarga javob izlash, pirovardida turli davrlarda Alisher Navoiy merosi jamiyat tafakkurida qanday ahamiyat kasb etganligini aniqlash, asosiysi, shoir asarlarining asl mazmunini tushunish, talqin qilishga e'tibor qaratmoq kerak. Biz ushbu maqolada "G'aroyib us-sig'ar" devonining ayrim matnlarini tadqiq qilishni maqsad qilib oldik. "Alif" bilan tugallanuvchi g'azallar ichidan hamd g'azallar matniga diqqat qaratdik. Chunki shoirning ilohiyot, olamning yaralishi, odamning olamdagi o'rni bilan bog'liq qarashlari, asosan, hamd g'azallarida yorqinroq namoyon bo'ladi. Bu qarashlar Alisher Navoiy ijodining o'qildizi, ya'ni barcha asarlarini harakatlantirib turgan ma'naviy, ruhoniy quvvat, ularni tushunishda kalit hisoblanadi.

Qo'limizda Alisher Navoiy asarlari kulliyotining ikki nusxasi va faqat "Xazoyin ul-maoniy" devonlaridan iborat qo'lyozmaning bir nusxasi bor. Birinchi kulliyot nusxasi Istanbuldagi To'pqopi muzeyida Revan 808-raqam bilan saqlanayotgan qo'lyozmaning 2020-yil chop etilgan faksimilesidir. Nashrda kulliyot qo'lyozmasiga quyidagicha tavsif berilgan: "802ta varaqdan iborat bo'lgan bu kulliyot 315x230 mm, yozuv yozilgan qismi 167 mmdir. Har sahifasiga 27 satrdan iborat yozuvlar ta'liq xatida bitilgan... "Saddi Iskandariy"ning so'ngida kelgan kitobatda 901-yil (*milodiy 1495 – 1496-yy.ga to'g'ri keladi*) Darvesh Muhammad Toqiy tomonidan ko'chirilgani aytilgan. "Vaqfiya" (742a)da Alisher Navoiyga nisbatan "g'ufira zunubahu" (gunohlari kechirilsin) duosi aytilgan, "Munshaot"da (782a)da esa bu duo "alayhir rahma" (unga rahmat bo'lsin)ga almashgan. Bundan ma'lum bo'ladiki, ushbu kulliyotdan besh asar shoirning vafotidan so'ng ko'chirilgan" [Kut 2020, 17].

Kulliyotdan o'rin olgan asarlar ro'yxati ham ushbu faksimil nashrning 18-sahifasida keltirilgan:

1. Munojot, 4^b – 5^b. Orada ikki bo'sh varaq qoldirilgan.
2. "Xutbayi davovin", 4^b – 5^b. ("Fasohat devonining g'azal-saroylari..." deb boshlanadigan bu matn, aslida, Alisher Navoiyning "Badoye' ul-bidoya", devoniga yozilgan muqaddimadir – A. M.)
3. "Arbain", 6^b – 7^b.
4. "Siroj ul-muslimiyn", 7^b – 9^b.
5. "Nazm ul-javohir", 10^b – 18^a.
6. "Lison ut-tayr", 18^b – 54^b.
7. "Nasoyim ul-muhabbat", 55^b – 175^a.
8. "Hayrat ul-abror", 176^b – 213^b.
9. "Majnun va Layli", 214^b – 249^a.
10. "Farhod-u Shirin", 250^b – 305^b.
11. "Sab'ayi sayyor", 306^b – 353^b.
12. "Saddi Iskandariy", 354^a – 422^a.
13. "G'aroyib us-sig'ar", 423^b – 481^b.
14. "Navodir ush-shabob", 482^b – 539^a.
15. "Badoye' ul-vasat", 539^b – 596^a.
16. "Favoyid ul-kibar", 597^b – 658^a.
17. "Majolis un-nafois", 659^b – 693^a.
18. "Tarixi anbiyo va hukamo", 694^b – 718^a.
19. "Tarixi muluki Ajam", 719^b – 733^b.
20. "Holoti Sayyid Hasan", 734^b – 737^b.
21. "Holoti Pahlavon Muhammad", 738^a – 741^a.
22. "Vaqfiya", 742^b – 749^b.
23. "Mezon ul-avzon", 750^b – 757^b.
24. "Xamsat ul-mutahayyirin", 758^b – 773^a.
25. "Muhokamat ul-lug'atayn", 774^b – 781^b.
26. "Munshaot", 782^b – 802^a.

Ikkinchi kulliyot esa ikki jilddan iborat bo'lib, Parijdagi Fransiya Milliy kutubxonasida *turc 316-* va *turc 317*-inventar raqami bilan saqlanmoqda. Biz uning elektron nusxasini oldik. "Navoiy kulliyoti 1-juzi" quyidagi mundarijaga ega bo'lib, asar nomlari berilmagan va ular orasi bitta varaq (bo'sh ikki sahifa) bilan ajratilgan:

1. Munojot. "Bismillahir rohmanir rohiym, zihi isming aziym" deb boshlangan bu matn Navoiy kulliyoti uchun umumiy kirish vazifasini o'tagan bo'lib, 4 sahifa.
2. "Arbain", 4 sahifa.
3. "Nazm ul-javohir", 20 sahifa.

4. "Siroj ul-muslimiyn", 5 sahifa.
5. "Nasoyim ul-muhabbat", 364 sahifa.
6. "Lison ut-tayr", 77 sahifa.
7. "Hayrat ul-abror", 84 sahifa.
8. "Farhod va Shirin", 122 sahifa.
9. "Layli va Majnun", 75 sahifa.
10. "Sab'ayi sayyor", 105 sahifa.
11. "Saddi Iskandariy", 154 sahifa.

"Navoiy kulliyoti 2-juzi" esa quyidagicha tartiblangan:

1. Debocha 7 sahifa, bu muqaddima "Badoe' ul-bidoya"da kelgan, ammo "Xazoyin ul-maoniy"ga yozilgan debocha bu o'rinda uchramadi.

2. "G'aroyib us-sig'ar", 123 sahifa.
3. "Navodir ush-shabob", 124 sahifa.
4. "Badoye' ul-vasat", 125 sahifa. Devon so'ngida "Tugandi "Badoye' ul-vasat" kitobi 932 da" degan jumla kelgan.
5. "Favoyid ul-kibar", 132 sahifa.
6. "Mezon ul-avzon", 14 sahifa.
7. "Muhokamat ul-lug'atayn", 16 sahifa.
8. "Xamsat ul-mutahayyirin", 30 sahifa.
9. "Majolis un-nafois", 54 sahifa.
10. "Tarixi anbiyo va hukamo", 48 sahifa.
11. "Tarixi muluki Ajam", 30 sahifa.
12. "Vaqfiya", 12 sahifa.
13. "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", 7 sahifa.
14. "Holoti Pahlavon Muhammad", 7 sahifa.
15. "Munshaot", 37 sahifa.

Ixtiyorimizda qo'lyozmaning elektron nusxasi bo'lgani uchun biz kulliyot sahifalarini raqamlagan holda taqdim qila olmadik, balki asarlar necha sahifadan iboratligini aytish bilan cheklandik.

Alisher Navoiyning 20 jildlik mukammal asarlari to'plamining 3-6-jildlari "Xazoyin ul-maoniy"ni o'z ichiga oladi, 3-jildga yozilgan so'zboshida mazkur asarning ilmiy-tanqidiy matni sobiq sho'rolar davlati hududida saqlanayotgan qo'lyozmalar asosida tuzilganligi aytiladi, shuningdek, Hamid Sulaymon faoliyati natijasida Alisher Navoiy asarlarining ikki mo'tabar kulliyoti qo'lga kiritilgani ta'kidlanadi: "Bular Alisher Navoiy kulliyotining Istanbuldagi To'pqopi saroyi fondida (inv. № 808) saqlanayotgan nusxasi, hijriy 901–902, milodiy 1495–1497-yillari xattot Darvesh Muhammad Toqiy tomonidan Hirotida ko'chirilgan hamda Parij Milliy kutubxonasida (inv. № 316–317) saqlanayotgan, hijriy 930–

933, milodiy 1525–1527-yillari kotib Ali Hijroniy tomonidan Hirotda ko'chirilgan ikki jildlik kulliyot fotonusxalaridir. Har ikki kulliyot kompozitsiya va mundarija jihatidan bir-biriga yaqin" [Навоий 1988, 5].

H.Sulaymon tuzgan tanqidiy matn "Mumtoz so'z" nashriyotida 2012-yili kam nusxada chop etilgan, unda olim "... bir qancha qo'lyozma nusxalar bilan tanishib chiqib, Dushanbe, Parij, Sankt-Peterburg va Istanbul nusxalardan foydalangan"i ta'kidlangan [Навоий 2012, 2]. Bu qaysi qo'lyozmalar edi?

1. Dushanbe nusxasi Tojikiston RFA saqlanayotgan 1990-sonli qo'lyozmadir. Bu qo'lyozma 1500-yili ko'chirilgan.

2. Parij nusxasi Fransiya Milliy kutubxonasidagi 108-raqamli qo'lyozma bo'lib, 1525–1527-yillari ko'chirilgan.

3. Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin nomidagi Davlat kutubxonasida saqlanayotgan 55-raqamli nusxa 1498–1499-yillari ko'chirilgan.

4. Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasi, Fotih fonididan o'rin olgan 4056-raqamli qo'lyozma XV asrga oidligi qayd etilgan.

Biz tadqiq etayotgan uchinchi qo'lyozma H. Sulaymon foydalangan, asl nusxasi Tojikiston Fanlar akademiyasining qo'lyozmalar bo'limida 1990-raqam bilan saqlanayotgan manbadir. Uning tarkibidan "Xazoyin ul-maoniy" devonlari to'liq o'rin olgan. Ushbu manba 1500-yili noma'lum kotib tomonidan ko'chirilgan.

H. Sulaymon tuzgan tanqidiy matn nashridagi ma'lumotlarga suyansak, biz murojaat qilayotgan Parij nusxasi va olim foydalangan nusxa boshqa-boshqa ekanligi oydinlashadi.

Umuman olganda, dastlabki tadqiqotlarni topilgan manbalar va yangilangan ilmiy qarashlar asosida qiyosan o'rganish jiddiy xulosalar taqdim qiladi. Matnshunoslik nazariy va amaliy turlarga bo'linishini [Sirojiddinov 2019, 11] hisobga olib, matnchlik prinsiplariga tayangan holda matn mazmunini taqqid qilish, bu orqali adibning fenomeniga chuqurroq kirib borish lozim deb o'ylaymiz.

Biz aynan ushbu uchta qo'lyozmadan o'rin olgan "G'aroyib us-sig'ar" devonidagi dastlabki "Ashraqat..." deb boshlanuvchi, Alibek Rustamiy ta'biriga ko'ra "fotiha g'azal" [Рустамий 2003, 54] va hamd, munojot g'azallarni matniy jihatdan qiyoslab chiqishni hamda g'azallar matnidagi nazariy masalalar muxtasar tahlilini maqsad qilib oldik.

Qiyosimiz avvalida qo'lyozmalarga To'pqopi nusxasi (TN), Parij nusxasi (PN), Dushanbe nusxasi (DN) deb shartli nom qo'ydik.

Asosiy qism

Birinchi g'azal "Ashraquat min aksi shamsil ka'si anvor ul-huda" deb boshlanib, 9 baytdan iborat va TN va PNda ham baytlar sanog'i va tartibi bir xil. G'azalning ikkinchi baytidan boshlab ifodalarda ayrim farqlar ko'zga tashlanadi. Ikkinchi baytning birinchi misrasi TNda quyidagicha yozilgan:

غیرى نقشى دین کونکول جامى دا بولسه زنک غم

Ushbu misra PNda shunday shaklda kelmoqda:

غیرى نقشیدین کونکول جامیدا بولسا زنک غم

Yozuvda so'zlari – bولسا, جامیدا – جامى دا, نقشیدین – نقشى دین ifodasida farq bor. Qiyosiy tahlillar natijasida ma'lum bo'ldiki, ikkala kulliyotda ham fotiha g'azalning mazmuni va so'zlarida hech bir o'zgarishlar yo'q, 7 o'rinda uchragan tafovutlar esa so'zlarning yozilishi bilan bog'liq, xolos. Uning matn ma'nosiga hech qanday ta'siri mavjud emas. Farqlar uchraydigan misralarni ushbu jadvalda aks ettirdik:

1-jadval

Misralar tartib raqami	Revan 808 (Kulliyotning To'pqopi nusxasi)	Turc 317 (Kulliyotning Parij nusxasi)	1990 (Kulliyotning Dushanbe nusxasi)
5	اولسا	اولسه	اولسه
6	انى	انى	انى
14	لفظن	لفظین	لفظین
17	ساقى سى دین جون	ساقى سیدین جون	ساقى سى دین جون

H. Sulaymon tuzgan tanqidiy matnda g'azalning 4-baytida TN va PNda "mayi vahdat" deb yozilgan birikma DNda "vahdat mayi" deb yozilganligi ko'rsatilgan.

Ushbu g'azal Alisher Navoiyning eng ko'p sharhlangan g'azallari sirasiga kiradi, chunki unda shoir ijodining asl mohiyati qisqa, aniq va yuksak badiiy mahorat bilan aks ettirilgan. E'tiborga molik sharhlar qatorida A.Rustamiy [Rustamiy 2003, 54], N. Komilov [Komilov 2012, 11] tadqiqotlarini keltirish mumkin. A.Rustamiy g'azalni badiiy jihatlariga e'tibor qaratgan, har bir baytning yuzaki va haqiqiy ma'nolarini tushuntirgan, baytlarni aruzga muvofiq o'qish uchun kerakli yo'riqlarni ko'rsatgan. N. Komilov g'azal matnini yaxlit, baytlarni o'zaro bog'liq holda sharhlagan, ko'rinishidan, g'azalning ma'no ruhini bo'linmas va jozib xususiyatini namoyon qilishga urinilgan. Olim mazkur g'azal vahdat ul-vujud ta'limotining ifodasi ekanligini qat'iy ta'kidlagan: "Navoiy bu o'rinda Ilohiy tajalliy

bilan moddiy olam insonda birlashgan degan vahdat ul-vujud ta'limoti g'oyasini ilgari suradi: may bilan jom orasida shunday bir Yagonalik hosil bo'ladiki, qaysi dunyo, qaysi Iloh ekanligini ajratish mumkin bo'lmay qoladi" [Komilov 2012, 16]. A. Rustamiy ham ana shu ma'nodagi tahlilni quyidagicha tushuntirgan edi: "... vahdat e'tiqodiga ko'ra borliq yagona bir vujudan, olamdagi bor narsalar shu vujudning turli ko'rinishlaridan iborat" [Rustamiy 2003, 59].

Kulliyotning TN PNga qaraganda qadimiyroq bo'lgani uchun avval unga murojaat qildik. Ikkinchi g'azal Alisher Navoiy qat'iy tamoyil deb belgilagan qoidaga ko'ra [Sirojiddinov, Yusupova, Davlatov 2020, 42] hamd yo'nalishida bo'lib, زهی حسنونک ظهوریدین توشوب, ya'ni "Zihi husnuning zuhuridin tushib har kimga bir savdo" deb boshlanadi. Ushbu g'azalga TNda حضرت باری تعالینینک حمدو, ya'ni "Hazrati Boriy taoloning hamd-u sanoyida" deb sarlavha qo'yilgan. PNda esa الفعز فی التوحید باری تعالی عز اسمه deb yozilgan. Matnlar orasida farq yo'q, faqat TPda چمن , جو sifatida yozilgan chaman, chu so'zlari چمن , چو tarzida kelgan. Umuman, چ , ya'ni "ch" undoshi bilan talaffuz etiladigan so'zlar PNda shunday aks ettirilgan bo'lsa-da, ko'p o'rinlarda TNda ج , ya'ni "j" bilan ifodalangan.

Devondagi ikkinchi g'azal زهی حسنونک ظهوریدین deb boshlanadi va uning ayrim o'rinlarda juz'iy tafovutlar uchradi.

2-jadval

Misralar tartib raqami	Revan 808 (Kulliyotning To'pqopi nusxasi)	Turc 317 (Kulliyotning Parij nusxasi)	Dushanbe 1990 (Tojikiston)
3	تاپ ماسلیق اسانکیم	تاپ ماسلیق اسانکیم	تاپ ماسلیغ اسانکیم
4	بیدالغینک ... پن هانلغینک	بیدالغینک ... پن هانلغینک	بیدالغینک ... پن هانلغینک
6	چمن آتشکھی کا ... جو	چمن آتشکھی کا ... جو	چمن آتشکھیغه ... جو
10	یوزی کوزکوسیدا عکسینی کر کوزکوزمدی لیل	یوزی کوزکوسیدا عکسینی کورکوزمدی لیل	یوزی کوزکوسیدا عکسینی کر کورکوزمدی لیل

G'azalda Alisher Navoiy Ilohning husnini madh qiladi. Xudoga qarata: "Sening husning zuhuridan har kimga savdo tushdi, bu savdolar sababli kavnayn ikki olam bozorida g'avg'olar ko'tarildi" – xitobi orqali Alisher Navoiy fenomeniga xos bo'lgan muhim e'tiqodiy qarashni topamiz. "Hayrat ul-abror" dostonida shoir yozadi:

Yo'q edi xud ilminga ijmoli zot,

Moniyi tafsili shuyunu sifot.

Lek o'shul chehrai ushshoqso'z

Kim anga har lam'adur ofoqso'z –

Qildi mazohirda xayoli zuhur,

Topqali ul husn kamoli zuhur [Kut, 177].

Mazkur baytlarda kelayotgan “chehrai ushshoqso'z” biz o'rganayotgan g'azaldagi “Zihi husn”dir. Ya'ni Alloh taolo o'z husnini ko'rsatishni, bildirishni istadi, shu sababli bu koinot, borliqni yaratdi. “Zihi husnning zuhuri” deya Alisher Navoiy olamning yaralishini nazarda tutmoqda. Bu zuhur har kimga savdo soldi – Ilohning sifatlari tajalliysidan aql egalari, ruhlar lol-u hayron qoldilar, ular savdoyi bo'lib, eslarini yo'qotdilar. Shuning uchun kavnayn bozori – ikki olam: dunyo va oxirat maydonida g'avg'o ko'tarilgan. Bu bayt mazmunidan kelib chiqib, kitobxonda demak, olamda Xudoning husni zuhur qilib turarkan-da, uni qanday topish mumkin, degan savol uyg'onadi. Shoir keyingi baytda “Seni topmoq mushkul!” – der ekan, Iloh husni zuhurini har kim ham olamga boqib ko'ra olmasligini ta'kidlaydi, chunki odamlar g'aflatda, shu sababli “Seni topmaslik oson”, Xudoning paydoli – zuhuri pinhon, ya'ni yaratilgan pardasi g'ofil ko'zni Ilohning sifatlarini ko'rishdan to'sib qo'ygan, ammo Uning pinhonligi paydo – Xudoning ko'zlardan yashirin ekanligi kunday ravshan.

Keyingi baytlarda Alisher Navoiy Ilohning paydoli – zuhuri qanday shaklda anglanishini tushuntiradi: chaman otashgohini gul olov bo'lib yondirdi va bulbul bu o'tda kuydi; Majnun ko'zguning aksidek oromini yo'qotdi, chunki uning yuziga Laylo bir qarab o'ziga oshiq qilgan edi; quyosh goh sarg'ayadi, goh qizaradi, sababi Allohning san'ati bog'ida u kabi yuz minglab ra'no gullar uni rashkdan shu ahvolga soladi; vomiiqlar uzro ishqida yonib-kuyadi, chunki Uzro chehrasiga boqqan Vomiq unda Iloh husnidan bir zarra tajalliy ko'rgan edi; Haqning kalomi Shirin labiga yashirindi, buni bilgan Farhod yoqut kabi qonlarni yutdi; Ibrohim alayhissalom uchun yoqilgan gulxan go'yo Haq jamolidan lovullagan ediki, uni payg'ambar o'ziga guliston deb bildi, parvona ham shamning o'tiga shu bois o'zini Ibrohim alayhissalom kabi otadi; sarvqad – jononlar qaddi behad go'zal malohatli yaratildi, chunki ular oshiqlarni kuydirishi shart, zotan, oshiqlar sevgili timsolida Haqning jamoli nurini ko'radilar, lekin bu nur anqo so'zi ichiga qanoat so'zi yashirilgani kabi berkdir, pinhondir – Alisher Navoiy mana shunday dalillar bilan Haqning husni qay tariqa zuhur qilishini tushuntiradi, g'azal so'ngida o'zi ham savdoga chalinganligini e'tirof etib, Haq hamdida o'zligini tan oladi, chunki tikan jannat gulini maqtay olmaydi, soqov bo'lib qoladi.

"Ashraquat" g'azalida hamd ma'nosi yo'qligi, bu matn "Xazoyin ul-maoniy" uchun umumiy kirish vazifasini o'tashini nazarda tutib, ushbu ko'rilgan g'azalni "G'aroyib us-sig'ar"dagi ilk hamd g'azal deb hisoblaymiz. Unda olamning yaralishi Iloh husni zuhuriga xizmat qilishi bayon qilingan.

"G'aroyib us-sig'ar"dagi uchinchi *صفحة رخسارینک* deb boshlanuvchi g'azali matnida uchta qo'lyozmada umuman farq yo'q, so'nggi misrada *تیلی* so'zidagi *ت* harfidagi ikki nuqta PNda tushib qolgan, xolos.

Avvalgi g'azal mazmuni Alloh nima uchun olamni yaratdi, degan savol javobi ustiga qurilgan bo'lsa, bu g'azal olamlar Robbisining azaliylik va abadiylik sifati zikri bilan boshlangan. Alisher Navoiy: "Ruxsoring sahifasi azal xati bilan insho qilingan" misrasida Haqning ruxsorini madh etmoqda. Ruxsordan murod Haqning vajhi, ya'ni husni, yuzidir, uning sahifaga tashbeh etilishi shartli bo'lib, shoir qasdini azaliylik sifatini ifodalashga qaratgan. Har qanday devon sahifalar va undagi misralardan iborat bo'lgani uchun va har bir devon Haq madhi bilan boshlanishi kerakligi bois Alisher Navoiy bu tashbehga murojaat qilgan. Ikkinchi misrada ham "Debochayi husn" deya Haqning jamoli debocha – devonlarning muqaddimasi deya atalarkan, maqsad – uning abadiy, tugashsiz ekanligini uqtirishdir. G'azal davomida shoir butun olam Haq vajhiga oshiqqligini, Uning maqtovi va itoatida ekanligini tasvirlaydi: zarralarning har biri Uni zikr qiladi, yomg'ir qatralarining tovushi Unga aytilib turgan hamdlardir; quyosh bir ko'zgu kabi bo'lib, uning bu qadar porloq va yorug' ekanligi bejiz emas, tun aslida, kul va u nafas ichida qolgan quyosh ko'zgusini yuvib, jilolantirib qo'ygan, mazkur hodisa Allohning mashshotayi sun'i – san'atining bezakchi, ziynatlovchi xossasidir; quyosh tinimsiz Haqning yuziga sajda qiladi, shuning uchun yuzi hozirga shaklga kelib qolgan, tun esa turra – qora durra bog'lagan, ammo bu durra Haqning qahri el kabi esib kelgani uchun ochilib ketadi; Haqning sun'i – san'ati turli holatlarni namoyon qiladi, xususan, har tongda quyoshning olovini subhning og'zidan nafas kabi ko'rsatadi; bu o'tning alangasi subhni kuydirgan-u, yulduzlar obila – kuygan tanada paydo bo'ladigan oq shish kabi uning atrofini o'rab olgan; Haqning dargohida shoh-u darvesh birdek muhtojdir, johil-u donolar ham Allohning ne'matlaridan birdek bahramanddirlar, Haq taolo bu ikki toifani ajratmay, o'z ne'matlari bilan siylaydi; bulbulning gulga oshiqqligi bejiz emas, zotan, gul xazon bo'ladi, parvona esa ertaga o'chadigan sham oloviga shaydo, lekin bu o'tdan baqo yo'q! Sir nimada? Sir shuki, gulning yuzida Haqning

sirlari, shamning olovida Haqning husnidan tajalliy bor, uning nima ekanligini aql anglamaydi, lekin qalb oshiq-u parvonadir; oshiqqlar ko'p, Navoiy ularning ichidan bir maqom so'raydi, bu maqomda u doimo Haqqa hamd, maqtov yog'dirib turishni orzu qiladi, uning eng buyuk maqsadi – shu.

Butun olam Haqqa hamd aytadi, har bir hodisotdan Allohning qudrati ko'rinadi, tabiat ham, jamiyat ham Xudoning ulug'ligini tasdiqlaydi, barcha yaratiglar, ayniqsa, inson uchun eng sharaflisi Allohni maqtash, ulug'lashdir. G'azalning bosh g'oyasi ana shu ma'nolarni o'zida jamlagan.

To'rtinchi g'azal ...اي حمد اولوب محال deb boshlanadi. So'zlarning ifodasi hamda ayrim so'zlarning tushib qolishi bilan bog'liq farqlash quyidagi jadvalda aks etgan:

3-jadval

Misralar tartib raqami	Revan 808 (Kulliyotning To'pqopi nusxasi)	Turc 317 (Kulliyotning Parij nusxasi)	Dushanbe 1990 (Tojikiston)
3	تخیل بيله	تخیل بیلا	تخیل بیلان
4	یتماک محال	یتماک محال	یتماک خیال
6	انچه بلاغت	انچه بلاغت	انجا بلاغت
8	کثافت بیلان ...	کثافت بیلان سنکا	کثافت بیلان سنکا
9	وصلینغه	وصلینغه	وصلینغا
10	جراغ	چراغ	چراغ
11	اولماسا	اولماسه	اولماسا
12	ضالالت بیلان ...	ضالالت بیلان سنکا	ضالالت بیلان ...
13	چون	چون	چون
13	قاچماين ني سود	قاچماين ني سود	قاچماين نیناي
14	منچه خجالت	منچه خجالت	منچا خجالت

Bundan avvalgi g'azal matnida Alisher Navoiy Haq taologa yuzlanib, Uning maqtovini aytish sharafigini so'ragan edi. Mazkur o'rganayotganimiz baytlarning birinchisida shoir insonning balog'ati – so'zga chechanligi, eng go'zal so'zlarni topib qo'llay bilishi, so'z ilmidan chuqur xabardorligi Allohga munosib maqtovni aytishda etarli bo'lmasligini qat'iy ta'kidlaydi, eng fasih nutq bilan ham Xudoni maqtash maholdir, bu Ilohga taqvo, toat bilan qurb – yaqinlik hosil qilish mumkin emasligiga o'xshaydi. Insonlar shariat amrlarida ko'rsatilganidek taqvo qilsak, toatda bo'lsak, Haqqa yaqin bo'lamiz deb o'ylaydilar, aslida, quruq taqvo-yu toat maqsadga etishtirmaydi, insonni kibrga boshlaydigan taqvo va ibodat emas, chinakam taslimiyat Haqqa etaklaydi. Inson Haqni ko'p taxayyul,

fikr bilan topaman desa ham, yanglishadi, aql va farosatim bilan Uning marhamatini qozonaman desa ham xatodir, odamzodning bu xislatlari chegaralangan, kim aql va idrokka tayansa, adashadi, koinot zubbasi – olamning qaymog'i bo'lgan Muhammad sollallohu alayhi va sallam insoniyatning eng oqil, eng komili bo'la turib, Haqning maqtovida o'jizligini e'tirof etib turibdi-ku, boshqalar ham yuz ming qusur, nuqson bilan biz ham hamd aytishdan o'jizmiz desa, ayni beadablikdir; olamda qaysi tiyraro'zgor – sho'r'peshona Haq tomon yo'l topgan bo'lsa, bu Xudo ato etgan hidoyat chirog'idandir, ya'ni biror kas o'z ixtiyori bilan bunday inoyatga erisha olmaydi; Navoiy bu o'rinda Haqning lutfiga muhtojligini aytadi, boshdan oyoq gunoh va zalolatdaman, lutfing rafiqim bo'lmasa, Senga qanday qilib etaman deydi; ha, insonda jurm, gunoh ko'p, ammo Haqdan bo'lak uning panohi yo'q, gunohlardan Haqning panohiga qochish yagona choradir; maqta'da shoir isyoni ko'p-u, uyati yo'qligini tan oladi, shu holda ham Xudoga etishmoq istagini bayon qiladi, bu bilan Haqning marhamati har qanday gunohni yuvib ketishga qodirligini va Haqdan umidvorligini izhor etadi.

Mazkur g'azalda munojot ruhi ustuvordir, o'zidan avvalgi g'azallardan farqli jihati ham shu.

PN va TNda 5-g'azal *الاها پدشاها کردکارا* deb boshlanadi. Ammo DNda *يا رب اولوس نهانی* deb boshlanadigan g'azal o'rin olgan. DNda beshinchi tartib bilan kelgan ushbu she'r PNda 6-o'ringa joylashtirilgan, ammo TNda bu matn yo'q.

Bu g'azal matni Alisher Navoiyning yigirma jildlik mukammal asarlari to'plamidagi 1-jildida, ya'ni "Badoe' ul-bidoya"da 5-tartib raqami bilan keltirilgan, ammo 3-, 4-, 5-, 6-jildlarda "Xazoyin ul-maoniy" tarkibida uchramaydi, shoirning to'la asarlari to'plami bo'lmish o'n jildlikda bu g'azalni topa olmadik, shuning uchun she'rning to'liq matnini havola etishni joiz bildik:

يا رب اولوس نهانی ایماستور نهان سنکا

نی دی نهان غمیمنی چون عیان سنکا

قیسی مکان ارا سینی استای که کون دا

سینسبز ایماس کمانی و یوقتور مکان سنکا

امرینک دین ایرو تیلکا تکلم چو یوق نی عیب

کر حمد ایتا الماسا بو بی زبان سنکا

ای کاش تاپسا جان و کونکول انچا قرب کیم

جاننی کونکول کونکولنی فدا قیلسا جان سنکا

ظاهر قیلوردا حاجت ایرور حضرتینکدا تینک
سلطان عمرو سایل بیخانومان سنکا

اظهار عجز ایتاردا جنابینکدا بیردورور
نیشی سینوق سینکا بیلہ پل دمان سنکا

چون پشه عاجز اولدی که یوز مین چا قربی بار
هیہات کر یتارنی مین ایتسام کمان سنکا

یا رب بو خسته اولچه تمنا قیلیب تورور
چون بار عیان سنکا نیسین بیان ایلائی سنکا

حق سرّی دین نوایی اکر استاسانک نیشان
جهد ایلاکیل که قالماسون اولّ نشان سنکا

M. Imomnazarovning “Olti devon muqoyasasi” maqolasida “Badoye’ ul-bidoya”ning Tehron nusxasida aynan 5-tartib raqamli g’azal “يا رب اولوس نهانی ایماستور نهان سنکا” deb boshlangani ta’kidlangan [Imomnazarov 2021, 17].

Ushbu matn PN va DNlarida qanday farqlar bilan ko’chirilganiga diqqat qaratdik:

4-jadval

Misralar tartib raqami	Turc 317 (Kulliyotning Parij nusxasi)	Dushanbe 1990 (Tojikiston)
5	قوي وچ	قوي وچ
7	برق مرچا	برق اچنا
8	اسليق ادف	مسليق ادف
9	روري تاجاح	سامي تاجاح
11	ادروري زج ع راعظا	ادراتي زج ع راعظا
13	راب يبرق اچ نيم زوي	راب يبرق اچ لکي نيم زوي
14	نایب نیسین	نایب نویسن

Yuqorida biz taqdim qilgan matn ushbu farqlarni hisobga olgan holda tartiblandi, PNdagi 7-satrda kelgan *so’zi* DNdagi *jumlasini* bilan, 11-satrda PNda kelgan *ajza* DNdagi *ajza* bilan almashtirildi. Shoir taxallusi kelgan bayt PNda maqta’ o’rnida yozilgan, ammo DNda bu misralar maqta’dan avvalga chiqarilgan va g’azal PNdagi maqta’dan avval kelgan bayt bilan yakunlangan. Ikkala holda ham, ya’ni maqta’ bo’lib kelgan baytlar o’rni almashishi g’azal mazmuniga ta’sir o’tkazmasligini hisobga

oldik, asosiysi, shoir taxallusi maqta'da kelishini nazarda tutib, PNdagi holatni saqlab qoldik.

Shoir Parvardigorga "Yo Rab!" deb murojaat qiladi, dastavval odamzodning o'zaro pinhon ishlari, o'y va xayollari Xudoga yashirin emasligini aytish bilan Allohning Ko'ruvchi, Biluvchi, Xabardor degan sifatlarini madh etadi, pirovardida esa o'zining ham holi Unga butkul ma'lumligini ta'kidlab o'tadi. Shu o'rinda shoir Haqning makonga muhtoj emasligini aytib, bu kavn – koinotda Allohning makoni yo'qligini qat'iy eslatib, biror makon Uning nazorati, hukmidan tashqarida emasligini ham bildiradi. Uchinchi misrada amringdan biror holat ayro emas degan ta'kid bu talqinni tasdiqlaydi, bu o'rinda shoir hamd aytish ham Haqning inoyati bilan bo'lishiga diqqat qaratgan. Jon va ko'ngil Haqning qurbi, yaqinligiga shu qadar erishsaki, bir-birini Haq uchun qurbon fido etib yuborsa! Xudoning qarshisida o'z hojatini izhor etishda gado va sultonning farqi yo'q, nishi singan pashsha va fil ham Haqning qoshida o'z o'jizligini birdek namoyon etadi; Alisher Navoiy pashshaning Haqqa bo'lgan yaqinligini o'zidan yuz karra ortiq deb ishonadi, ammo bu holi bilan pashsha shu qadar o'jiz ekan, men qanday qilib Unga etishni istashim mumkin deya zaifligini tan oladi, shu qadar xastaligi bilan Haqqa etmoqni orzu qiladi, Xudo uning ich-u tashini bilib turibdi-ku, u endi qay holatini bayon qilsin?!

Alisher Navoiy maqta'da o'zlikdan – nafs istaklaridan g'olib kelmasa, ich-ichidan Xudoga taslim bo'lmasa, Uning sirridan bahra olmasligini aytib yana o'ziga xitob qiladi.

Navbatdagi g'azal *الها پدشاها کردکار* deb boshlanadi. Uchta qo'lyozmada uchraydigan ayrim juz'iy farqlar quyidagicha aks ettirildi:

5-jadval

Misralar tartib raqami	Revan 808 (Kulliyotning To'pqopi nusxasi)	Turc 317 (Kulliyotning Parij nusxasi)	Dushanbe 1990 (Tojikiston)
2	اچوق	اچوق	اجوغ
3	بيلان	بيله	بيله
4	نمرو دغه	نمرو دغه	نمرو دغا
5	قچن کيم	قچن کيم	قاچان کيم

Hamd va munojot g'azallaridan keyin na'tga bog'lovchi vazifasini o'tagan ushbu matnda shoir Xudoning qudratini, Uning Biluvchi, Ko'ruvchi, Xabardor sifatlarini vasf etib so'z boshlaydi. Allohning Sabur sifatini tilga oladi, Namrud kabi o'zini xudo deb

bilganlarga ham sabr etishini aytadi, Oli Imron surasidagi 26-oyatni iqtibos keltiradi: *Qachonkim zohir etsang “tanzi ul-mulk”, ya’ni “tanziul mulk”ni zohir qilsang*, Doro Iskandarga mag'lub bo'ladi deya shoir oyatdagi: “Xohlagan kishingdan mulkni tortib olursan!” – mazmunini yodga oladi. Haqqa eltadigan yo'l og'ir va uqubatlidir, chunki bu yo'lda shayton hiylasi va nafs vasvasasi bor, bu yo'lga chiqqan odam undagi muhlik – halok etadigan toshlarni ko'radi, bu toshlar oddiy emas, yoquti ahmar, ya'ni qizil yoqutdir, mazkur tashbihdan ikki ma'no ko'zlangan: yo'lning qiymati ulug'ligi va bu yo'lda qonlar oqishi, jonlar fido bo'lishi bor. Haqning eshigi deganda uning rizosini nazarda tutgan shoir bu ostonadagi qora tuproq mushk kabi izzatli bo'lishini eslatadi. Suho yulduzi erdan ko'rinmaydigan, Hulkar to'plamidagi eng xira yulduz [Alisher Navoiy asarlari izohli lug'ati, 4-jild 1984, 136], baytda Suho deya Haq yo'lidagi g'ariblar nazarda tutilmoqda, odamlar nazdida eng faqir bo'lgan Xudo uchun yasharkanlar, shabistonlarda Quyoshdan ko'ra porloq bo'lib nur sochadilar; Navoiy o'zini nafs zulmatida qolganligini aytadi, Haqdan o'ziga Xizri roh – yo'l ko'rsatuvchi Xizr bo'lishini o'tinadi, aks holda, zulmatdan chiqa olmaydi. Taxallusi kelgan baytdan keyin maqta' keladi, unda shoir qiyomat kuni Alloh gunohlarni afv etishi uchun Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning shafosatini so'raydi. Ayni shu bayt hamd va na't o'rtasidagi “ko'prik” baytdir, shu baytga tayanib, hamd g'azallar tugaganligi haqida ishonchli xulosaga kela olamiz.

G'azallarning joylashuv tartibini aniqroq tasavvur qilish uchun jadvalga tushirdik:

6-jadval

No	Revan 808 (Kulliyotning To'pqopi nusxasi)	Turc 317 (Kulliyotning Parij nusxasi)	Dushanbe 1990 (Tojikiston)
1	<i>Ashraquat min aksi shamsil ka'si anvorul huda</i>	<i>Ashraquat min aksi shamsil ka'si anvorul huda</i>	<i>Ashraquat min aksi shamsil ka'si anvorul huda</i>
2	<i>Zihi husnung zuhuridin tushub har kimga bir savdo</i>	<i>Zihi husnung zuhuridin tushub har kimga bir savdo</i>	<i>Zihi husnung zuhuridin tushub har kimga bir savdo</i>
3	<i>Ey safhayi ruxsoring azal xattidin insho</i>	<i>Ey safhayi ruxsoring azal xattidin insho</i>	<i>Ey safhayi ruxsoring azal xattidin insho</i>
4	<i>Ey hamd o'lub mahol fasohat bilan Sanga</i>	<i>Ey hamd o'lub mahol fasohat bilan Sanga</i>	<i>Ey hamd o'lub mahol fasohat bilan Sanga</i>

5	<i>Iloho, podshoho, kirdikoro</i>	<i>Iloho, podshoho, kirdikoro</i>	<i>Yo rab, ulus nihoni emastur nihon sanga</i>
6	–	<i>Yo rab, ulus nihoni emastur nihon sanga</i>	<i>Iloho, podshoho, kirdikoro</i>

Xulosa

Ushbu tahlillar natijasida “G’aroyib us-sig’ar” devonining yuqorida tilga olingan qo’lyozmalaridagi matniy o’zgarishlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- a) so’z va qo’shimchalar imlosida farqlarning kuzatilishi;
- b) so’zlar leksikasida o’zgarishlarning kuzatilishi;
- c) baytlarning o’zaro o’rin almashib qolishi;
- d) matndan ayrim so’zlarning tushib qolishi (bu holat radifda kuzatiladi).

Ikkinchidan, “G’aroyib us-sig’ar”ning ayrim qo’lyozmalarida dastavval keltirilgan hamd va munajat mavzusidagi g’azallarga sarlavhalar qo’yilgan, bu sarlavhalar boshqa nusxalarda uchramaydi, shuning uchun bu joriy nashrlarda ham yo’q, sarlavhalar shoir qalamiga mansubmi yoki kotiblar ijodimi degan savolga bu xattotning ijodiy yondashuvi deb javob berish mumkin, agar Alisher Navoiy o’z g’azallarini qat’iy sarlavhalar bilan taqdim qilganida harflarga qo’yilgan sarlavhalar kabi deyarli barcha nusxalarda takrorlangan bo’lardi.

Uchinchidan, “G’aroyib us-sig’ar” Alisher Navoiy g’azaliyoti-ning majmuasi bo’lgan “Xazoyin ul-maoniy”ning ilk devoni bo’lgani hamda devon avvalida kelgan hamd va munajat yo’nalishidagi she’rlar shartli muqaddima, shoirning iloh, olam va odam haqidagi e’tiqodi ifodasi ekanligini hisobga olsak, bu matnlarni Alisher Navoiy fenomenini tushunishdagi asllar sifatida ko’rsatish mumkin.

To’rtinchidan, “G’aroyib us-sig’ar”dagi “Ashraquat” g’azalidan keyin kelgan, biz ushbu maqolada tahlil qilgan beshta g’azal mazmunan hamd yo’nalishda va har bir g’azal so’ngida munajat ruhi namoyon bo’lib turibdi. Alisher Navoiy olam Ilohning qudrati ifshosi, marhamat va lutfining namoyishi deya ishonadi, barcha yaratiglar Iloh husnining tajalliysi deb biladi, har bir zarrada Iloh sifatlari jilvalanadi, Iloh komil Zot bo’lib, uni anglashga inson ojizdir, har qancha mahorat bilan ham Uni madh qilish imkonsiz, Uning marhamati cheksiz bo’lib, har qanday gunohkor bu lutfdan umid qilishga haqli, Iloh insonlarning, balki olamdagi har bir zarraning har bir harakat va holatidan har lahza xabardor, Uning lutfiga erishmoq uchun inson o’z nafsini sindirishi, nafsning xudolik da’volaridan voz

kechishi shart.

Beshinchidan, Alisher Navoiy devonlarida hamda va munojot gʻazallaridan soʻng naʼtlar kelishi shoirning uslubi, qolaversa, Musulmon Sharqi mumtoz adabiyotiga xos anʼanadir, shunga koʻra munojot gʻazalning soʻngida muallif Allohdan Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning shifoatini soʻragan.

DN, PNda kelgan, “Yo Rab, ulus nihoni emastur nihon Sanga” deb boshlanuvchi gʻazal TNda uchramaydi, Toshkent nashrlarida yoʻq, qolaversa, H.Sulaymon tanqidiy matniga ham kirmagan, bu xususda keyingi izlanishlar natijasida muayyan xulosaga kelish mumkin.

Adabiyotlar

Алишер Навоий асарларининг изоҳли луғати. 1984. III жилд. Тошкент: Фан.

Алишер Навоий. 2012. *Ғаройиб ус-сиғар*. Танқидий матн. Тузувчи Ҳамид Сулаймон. Тошкент: Mumtoz soʻz.

Кут, Гунай. 2020. *Қуллиёти Навоий*. Факсимил нашр. Истанбул.

Қуллиёти Навоий. Turc 317. Қўлёзма. Париж миллий кутубхонаси.

Қуллиёти Навоий. 1990. Қўлёзма. Тожикистон Республикаси Фанлар академияси.

Имомназаров, М. 2021. “Олти девон муқоясаси”. *Олтин битиглар* 1: 3-21. Тошкент.

Навоий, А. 1988. *Ғаройиб ус-сиғар*. МАТ III жилд. Тошкент: Фан.

Рустамий, А. 2003. *Адиблар одобидан адаблар*. Тошкент: Маънавият.

Сирожиддинов, Ш. 2019. *Матншунослик сабоқлари*. Тошкент: Navoiy universiteti.

Комилов, Н. 2012. *Маънолар оламига сафар*. Тошкент: Tamaddun.

Sirojiddinov, Sh., Yusupova, D., Davlatov, O. 2020. *Navoiyshunoslik*. Darslik. Toshkent: Akademnashr.

Textual features of hymns ending with alif in "Gharayib us-sigar"

(Based on Topkapi, Paris and Dushanbe copies)

Akrom Malikov¹

Abstract

This article analyzes the text of praise poems of Alisher Navai, which begins with the letter "Alif" in the first divan of "Khazayn ul-Maoniy" – "Gharoyib us-sigar". Three copies of Devon's manuscripts preserved in Dushanbe (1990), Istanbul (Revan 808) and Paris (Turc 317) are comparatively studied. There also applied for a critical text prepared by H. Suleiman. In terms of reliability, the article examines from the literary practical and theoretical point of view and textual criticism. The author explores the differences between the copying of gazelles, as well as their content. There also defined the two of three manuscripts, there is a hymn of praise that is included but not in one.

Key words: *devon, text, manuscript, selections, copy, comparison, secretary, critical text, praise, ghazal, praise, matla, pseudonym.*

References

- Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati.* 1984. III jild. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. 2012. *G'aroyib us-sig'ar.* Tanqidiy matn. Tuzuvchi Hamid Sulaymon. Toshkent: Mumtoz so'z.
- Kut, Gunay. 2020. *Kulliyoti Navoiy.* Faksimil nashr. Istanbul.
- Kulliyoti Navoiy.* Turc 317. Qo'lyozma. Parij milliy kutubxonasi.
- Kulliyoti Navoiy.* 1990. Qo'lyozma. Tojikiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.
- Imomnazarov, M. 2021. "Olti devon muqoyasasi". *Oltin bitiglar* 1: 3-21. Toshkent.
- Navoiy, A. 1988. *G'aroyib us-sig'ar.* MAT III jild. Toshkent: Fan.
- Rustamiy, A. 2003. *Adiblar odobidan adablar.* Toshkent: Ma'naviyat.
- Sirojiddinov, Sh. 2019. *Matnshunoslik saboqlari.* Toshkent: Navoiy universiteti.
- Komilov, N. 2012. *Ma'nolar olamiga safar.* Toshkent: Tamaddun.
- Sirojiddinov, Sh., Yusupova, D., Davlatov, O. 2020. *Navoiyshunoslik.* Darslik. Toshkent: Akademnashr.

¹ Akrom A. Malikov – doctoral student at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: akrommalik@hotmail.com

ORCID ID: 0000-0002-9515-439X

For citation: Malikov, A.M. 2022. "Textual features of hymns ending with alif in "Gharoyib us-sigar" (based on Topkapi, Paris and Dushanbe copies)". *Golden scripts* 1: 79–95.

Badiiy Andijoniy va uning “Tajnis ul-lug‘ot” asarlari haqida

Jaloliddin Jo‘rayev¹

Abstrakt

Temuriylar davrida mumtoz adabiyot nazariyasiga doir forsiy va turkiy tillarda ko‘plab asarlari yaratilgani ma‘lum. Asli Andijondan ketgan Yusuf Badiiy Andijoniyning “Tajnis ul-lug‘ot” asari ana shunday ilmiy-nazariy kitoblardan biridir. Tajnis san‘atiga bag‘ishlangan mazkur kitob hali fanga to‘liq ma‘lum emas. Maqolada O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida Badiiy tomonidan tartib berilgan forsiy tildagi tajnislar lug‘ati haqida ilk bora ma‘lumot berilgan. Asar sahifalarida muallif tomonidan uning nomlanishi ko‘rsatilmaganligi bois har xil nom bilan atalgan. Shu sababli lug‘at qo‘lyozmalari qayd varaqalarida “Tajnis ul-lug‘ot”, “Se lug‘oti Badiiy”, “Qasida dar halli lug‘ot”, “Salasa se lug‘at”, “Manzum dar bayoni lug‘ot”, “Nazm ul-salosa fil-lug‘at”, “Nazm ul-salasot”, “Lug‘ot” nomlari bilan yozilgan. Maqolada ushbu manbaning qo‘lyozma nusxalari haqida ma‘lumot berilgan. Shuningdek, asarning forsiy tildan o‘zbek tiliga tarjimalari ham ilova qilingan.

Kalit so‘zlar: *ilmi bade‘, tajnis, lug‘at, qo‘lyozma manba, tarjima, izoh.*

Kirish

Shaxsiyati va ijodiy merosi yetarli darajada o‘rganilmagan o‘rta asrlarda vatanimizdan yetishib chiqqan adib va olimlardan biri – Yusuf Badiiy Andijoniydir. Yusuf Badiiyning yoshligi Andijonda, yigitlik davri Samarqandda va umrining oxiri Saraxsda o‘tagan. Shu bois manbalarda uni ba‘zan andijonlik, ba‘zan samarqandlik, ba‘zan esa saraxslik deb qayd qilish holatlari uchraydi. Jumladan, Alisher Navoiy: “Mavlono Yusuf – “Badiiy” taxallus qilur erdi. Ul ham Andijondindur. Mavlono Safoiy bila bo‘lur erdi. Faqir tahsil uchun Samarqandg‘a borg‘onda, ul Andijondin keldi va anda faqir bila bo‘lur

¹ Jo‘rayev Jaloliddin Olimjonovich – filologiya fanlari doktori, yetakchi ilmiy xodim, O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti.

E-pochta: oyqor@mail.ru

ORCID ID: 0000-0001-8367-186X

Iqtibos uchun: Jo‘rayev, J. O. 2022. “Badiiy Andijoniy va uning “Tajnis ul-lug‘ot” asarlari haqida”. *Oltin bitiglar* 1: 96–118.

erdi. Sig'ari sin jihatidin she'rida xomlik bo'lsa, faqir isloh qilur erdim. Bot buzurgmanish va mutasavvif yigit bo'ldi va Xurosong'a kelib ko'p salohiyatlar ham kasb qildi. Faqirdin o'zga kishi aning she'rida so'z ayta olmas erdi. Ujbi jihatidin sho'xlar ani Yusuf Safoiy derlar erdi. Ul tag'ayyur jihatidin behol bo'lur erdi. Ammo yaxshi suhbat bor erdi va ko'prak sinf she'rni yaxshi aytur erdi va aruz bilur erdi. Bu matla' aningdurkim", – deb asarlaridan namuna keltiradi va Saraxsda vafot etganini qayd qiladi [Навоий 1997].

Xondamir "Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar" asarining "Saltanat va davlat sharaifi Hazrat Sulton Husayn mirzoga zamondosh bo'lgan sayyid, naqib, mashoyix, ulamo va fuzalo zikrida" bo'limida: "Mavlono Yusuf Badiiy – Andijon viloyatidan. Kichik yoshligida u yerdan Samarqandga borib ilm-fan o'rgangan. Mansur xoqonning adolatli замонида Movarounnahr o'lkasidan Hirotga tashrif buyurib, Amir Alisherning mehribonligi soyasi ostida orom topdi. Aruz ilmi, sanoe' va badoe', muammo fanidan sohibi vuquf edi. Muammo qoidalari bayonida bir foydali risola yozdi. Bu matla' uning o'sha manzumoti jumlasidan. Bayt:

*Shunday obu havoli ko'chang bo'lsa manzilgoh,
Na Xizr suvi kerak, na nafasi Ruhulloh.*

Mavlono Yusuf Badiiy 897-yili Saraxsda vafot qildi va Shayx Luqmonning fayzli mozorida daft etildi" deb yozgan [Хондамир 2013, 77-78].

Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma"ning 911/1505-06-yillar bayonida Sulton Husayn Mirzo xususida so'z yuritib, "Shuarodin" zikrida "... Yana Yusuf Badiiy edi, Farg'ona viloyatidindur, qasidani yomon aytmas ekandur", deya qisqa xabar bergan [Бобур 2002, 139].

Yusuf Badiiy Andijoniy hayoti va ijodiy merosiga oid ma'lumotlar, Alouddavla Husayn Qazvinining "Nafois ul-maosir" asarida ham mavjud. Jumladan, muallif: "Badiiy. Mavlono zodai Samarqanddur. Nihoyatdin xushtab' kishidur va shirin so'zlukdir va ta'rix ilmi va muammo va g'ariba ilmlardin bahramand. Dakanda shahri(da) Haybarda sokindur va muxolifning vujudi bila mazhabda iste'dodining balandligi uchun ul jamoa anga do'stliq va muhabbat maqomidadurlar. Oning she'rlaridindur" deb yozadi va bir bayt she'rini ko'rsatgan [Қазвиний 33^a-34^a].

Shoir ijodi yuzasidan B.V.Norik ham izlanishlar olib borgan. Jumladan, Alisher Navoiy va Xondamir asarlarida Badiiyning muammo janriga oid risola yozgani, devon tartib berganiga oid tafsilotlarni bayon qiladi. Bular bilan birga Qat'iy Hiraviyning

“Majma’ ush-shuaroi Jahongiriy” tazkirasida g’azalining mavjudligi haqida ma’lumot berib, uning to’liq matnini keltirgan [Норик 2011, 137-138].

Mavlono Muhammad Abdulg’anixon Mufarrahobodiy “Tazkirat ush-shuaro” asarida Yusuf Andijoniy to’g’risida: “Mullo Muhammad Yusuf – Amir Alisher “Majolis un-nafois”da uning ahvolini zikr qilgan. Muammoda risola bitgan” deb yozadi va uning Sulton Husayn mirzo zamonida yashagani, 897/1491-92-yili Saraxsda vafot etgani haqida ma’lumot beradi [Муфаррахободий 1916, 26].

Vikipediylarning “Yusuf Badiiy Andijoniy-Samarqandiy” moddasidagi ma’lumotlarga ko’ra, shoir devonining qo’lyozma nusxasi hozirda Erondagi “Kitobxonai madrasai fuqaho” fondida “Devoni Badiiyi Andijoniy-Samarqandiy” nomi bilan saqlanadi [www.eshia.ir; www.howza.net; www.rasekhoon.net].

Manbalardagi ma’lumotlardan Yusuf Badiiyning she’riy asarlari bilan birga adabiyotshunoslikka oid asarlari ham borligi ma’lum bo’ladi. Jumladan, O’zR FA Sharqshunoslik instituti qo’lyozmalar xazinasida Yusuf Badiiy Andijoniyning muammoga bag’ishlangan risolasining ikkita qo’lyozma nusxasi 2893/IV va 9005/VI raqamlari ostida saqlanadi. 2893/IV raqamidagi nusxa qo’lyozmaning 136^b-140^a-varaqlaridan o’rin olgan. Kartotekada رساله معمای بدیعی – چهل اسم (Badiiyning “Muammo risolasi”, 40 ismga) tarzida ko’rsatilgan. Asar muammo janriga oid boshqa risolalar bilan birga bir jildida kitobat qilingan. Risola o’rtacha kattalikdagi go’zal nasta’liq xatida ko’chirilgan. Kitob keyinchalik noma’lum kishi tomonidan bir mavzuga oid asarlar bilan birga bir yerga jamlangan. 136^a-varaqda qora qalam bilan noma’lum kishi tomonidan mayda arab yozuvida معمای بدیعی بقلم مولف (Badiiy muammosi. Muallif qalami bilan yozilgan) so’zlari bitilgan. Buni asar nihoyasidagi:

و الحمد لله على الاتمام و الصلواه على نبيه عليه السلام. حرره الفقير بدیعی.

Mazmuni: “Tugagani uchun Allohga hamd va nabi alay-hissalomga salavot bo’lsin. Faqir Badiiy yozdi” ishoralari ham tasdiqlaydi [Бадий, 140^a].

Izlanishlar natijasida, O’zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida Badiiy tomonidan tartib berilgan forsiy tildagi tajnislar lug’ati ham mavjudligi aniqlandi. Asarning hech qayerida muallif tomonidan uning nomlanishiga ishora yo’q. Shu bois, lug’at qo’lyozmalari kartotekada “Tajnis ul-lug’ot” (11518/VI, 10455/XIV, 11807/II), “Risolayi lug’ot” (1380/II), “Se lug’oti Badiiy” (10088/VII), “Qasida dar halli lug’ot” (3223/

II), "Salasa se lug'at" (9987/II), "Manzum dar bayoni lug'ot" (8574), "Nazm ul-salosa fil-lug'ata" (3809/II), "Nazmul-salasot" (4818/III), "Lug'ot" (5250/III) nomlari bilan qayd qilingan.

Bular bilan birga asar turli davrlarda boshqa lug'at va risolalar bilan bir jildda toshbosma shaklida ham qayta-qayta nashr qilingan. Xususan, institut asosiy fondidagi 6694-raqamli bosma kitob 38ta risola-asarni o'z ichiga olgan. Noshiri Mulla Abdulhakim Xoja Buxoriy. Kitob Kogonda nashr qilingan. "Tajnis ul-lug'ot" asari bu to'plamda "Manzum al-musammo bil-Laoliy" nomi bilan 45-46-sahifalardan o'rin olgan.

7236-raqamli nusxasi titulidagi qaydga ko'ra, Mulla Sulton Tojir sa'y-u ehtimomi bilan Ibn Mullo Sobir kitobat qilgan. Dor us-saltanai foxirai Buxoroyi sharifda chop etilgan. Jami 8 sahifadan iborat. Kitob oxiridagi qayd: تمت رساله تجنیس اللغات مولانا بدیعی سنه ۴۲۳۱ . Qaydi ikki marta yozib qo'yilgan.

"Sobraniye vostochnix rukopisey" katalogining 11-jildida Badiiy lug'atining o'nga yaqin qo'lyozmasi tavsifi berilgan. Birinchi tavsifda asar Badiiy Tabriziyga tegishli bo'lishi mumkin degan taxmin aytib o'tilgan [CBP 1967, 157-159].

Badiiy Tabriziy va Badiiy Andijoniyning asarlari boshqa-boshqa ekanligini dalillovchi ma'lumotlar ham bor. Eron Milliy kutubxonasida Badiiy Tabriziyning asari "Al-lug'ata musallas" (اللغة المتلثة) deb nomlanishi, uning arab tilida ekanligi va 380076-raqam ostida saqlanishi zikr qilingan [<http://dl.nlai.ir>]. Badiiy Andijoniyning asari esa "سامانه کتابخانه و اسناد رقومی ملی" fondida "Musallasoti manzum" nomi bilan ko'rsatilib, 9571-5-raqami bilan saqlanadi va uning matni biz so'z yuritayotgan risola matni bilan bir xil. Shunday qilib, "Tajnis ul-lug'at"ning muallifi Yusuf Badiiy Andijoniy ekanligiga shubha qolmaydi.

Lug'atning muallifi Badiiy ekani xotimada quyidacha qayd qilingan:

این چنین لفظ بدیعی را بدیعی نظم کرد
تا بود در روزگار از وی همی نام و نشان

هست در وادی عرفان تشنه ز آب مغفرت
ساز سیرابش آلهی ای آله انس و جان

Mazmuni:

*Bu hayotda u o'zidan bir nomu nishon bo'lsin deb,
mana shu yo'sinda badiiy so'zni Badiiy nazm ayladi.*

*Irfon vodiysida ma'firat suviga tashnalar bor,
Chanqog'ini qondir, Iloho, ey, insu jonning Ilohi!*

Lug'at yozilishda o'zagi bir, lekin uch xil shaklda o'qiladigan omonim so'zlar asosida tuzilgan. Asarda 90 fiqrada uchtdan tajnis (jinsdosh – omonim) so'z berilib, ularning ma'nolari ochib borilgan. Lug'atni mazmun-mohiyatiga qarab, "Tajnisul-lug'ot" nomi bilan ilmiy istifodaga kiritilsa, to'g'ri bo'ladi.

Albatta, Badiiy Andijoniyga qadar ham bu tartibdagi lug'atlar tuzish tajribasi bo'lgan. Chunonchi, XIII asrda yashagan Sharafuddin Abunasr Ahmad Farohiyning "Nisob us-sibyon" asari ham nazmda bitilgan va bir nechta arabcha sinonim so'zlar yoki bitta arabcha so'zga fors tilida izoh berilgan. Keyinchalik bu asarga Ibn Fityon "Riyozi ul-Fityon", Ahmad ibn Faqih "Rofe' un-nisob" nomli sharhlarni bitganlar. "Zaxrat ul-adab" asari arab-fors tilida "Nisobus-sibyon" ga ergashib yozilgan eng yaxshi asar sanalgan [Хамробоев 2019, 41-42]. Bular qatoriga Mavlono Fazlulloh bin Muhammad bin Amonulloh bin Qozi Jahon bin Hasan bin Sa'd tomonidan 948/1541-yili yozilgan "Fahmi sibyon" asarini ham kiritish mumkin (O'zR FA SHI № 11518/3).

Ushbu an'ana XX asrda ham davom etdi. Jumladan, Sadriddin Ayniy ham "Nisob us-sibyon" nomli ruscha-tojikcha she'riy lug'at tuzgan bo'lib, bizgacha undan quyidagi bir bayt yetib kelgan:

Льдина – yax, *часы* – soat, *хлеб* – non,

Снег – barf-u *душа* – jon, *дождь* – boron [Жанобилова 2019, 73].

Yuqorida ko'rganimizdek, asarning qo'lyozma va toshbosa nashrlari anchagina. Mazkur nusxalar turli davr va turli saviyadagi kotiblar tomonidan ko'chirilganligi bois matnda farqlar yuzaga kelgan. Dastlabki tadqiqot natijalariga ko'ra, mazkur qo'lyozma nusxalarda bir so'zning o'rniga boshqasini qo'llash, ba'zi bayt yoki misraning o'rnini almashtirish kabi ayrim matniy tafovutlar borligi bilinadi. Lug'atni nashrga tayyorlashda 10455/XIV va 5250/V raqamli qo'lyozmalar olinib, ular asosida matn tuzib chiqildi. O'z navbatida 1380/II, 10088/III, 11518/VI raqamli qo'lyozma nusxalari bilan qiyoslanib, ularga eng muhim matniy farqlar matn ostida ko'rsatildi. Farqlarni qaysi qo'lyozmada qanday ekanligini bildirish uchun matnda qavs ichida asosiy qo'lyozmalarning raqami va beti ko'rsatib borilgan. Matn ostida esa, matniy farqlarga ega qo'lyozmalarning raqami va farq qiluvchi so'z yoki jumla keltirilgan. Shuningdek, matn ostida ayrim so'zlarning ma'nosini yaxshiroq ochish uchun qo'shimcha izohlar ham berilgan.

Umuman, ma'lumotlardan Badiiyning ismi Mullo yoki Mavlono Muhammad Yusuf Andijoniy ekani, XV–XVI asrlarda Movarounnahr va Xurosonda yashagani aniq bo'ladi. Uning devon tartib bergani, qasida janrida ham asarlari borligi oydinlashadi. Shuningdek, u muammo janriga bag'ishlangan risola va tajnislar lug'atining muallifidir.

Xulosa qilib aytganda, Mavlono Muhammad Yusuf Badiiy Andijoniyning "Tajnis ul-lug'ot" asari o'rta asrlarda yurtimizdan yetishib chiqqan filolog olimlarning lug'atshunoslik sohasi rivojiga qo'shgan ulushiga oid mavzular yuzasidan olib borilajak tadqiqotlarda qimmatli manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar

- Алишер Навоий. 1997. *Мажолисун-нафоис*. МАТ. 13-жилд. Тошкент: Фан.
- Алоуддавла Хусайн Қазвиний. *Нафоис ул-маосир*. ЎЗР ФА ШИ. № 848. Қўлёзма.
- Бадий. Рисолаи муаммо. ЎЗР ФА ШИ. № 2893/IV. Қўлёзма.
- Норик Б.В. 2011. *Биобиблиографический словарь средниазиатской поэзии*. Москва: Издательский дом Марджани.
- Мавлоно Муҳаммад Абдулғанихан Муфарраҳободий. 1916. *Тазкират уш-шуаро*. Алигарҳ; Алигарҳ институти нашриёти босмаҳонаси, 1916.
- Мавлоно Фазлуллоҳ бин Муҳаммад бин Амонуллоҳ бин Қози Жаҳон бин Ҳасан бин Саъд. *Фаҳми сибён*. ЎЗР ФА ШИ. № 11518/3. Қўлёзма.
- Жанобилова, М.К., Махмудова, Н.Б. 2019. *Национальная идея: стратегия развития Узбекистана*. Учебно-методическое пособие. Бухара: Дурдона.
- Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин Хондамир. 2013. *Ҳабибу-с-сийар фи ахбори афроди башар*. Тошкент: Ўзбекистон.
- Заҳириддин Муҳаммад Бобур. 2002. *Бобурнома*. Тошкент: Шарқ НМАК.
- www.eshia.ir; www.howza.net; www.rasekhoon.net
- Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР*. 1967. Ташкент: Фан.
- <http://dl.nlai.ir/UI/Search/BasicSearch.aspx?PageNo=1>
- Хамробоев, Н. 2019. *Этапы формирования и развития переводческого движения в VIII-XIV веках (с пехлевийского на арабский и с арабского на персидско-таджикский)*. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора филологических наук. Худжанд.

Badii Andizhani and about his works "Tajnisul-lug'ot"

Jaloliddin Juraev¹

Abstract

It is well-known that during the reign of the Timurids many works on the theory of classical literature were written in the Persian and Turkic languages. Originally from Andijan, Yusuf Badii Andizhani's "Tajnis ul-lug'at" is one of the scientific-theoretical books. This book devoted to the art of anthethesis is not yet fully known in science. The article provides the first information about the Persian dictionary of anthethesis, compiled by Badii in the fund of the Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni of the Republic of Uzbekistan of Academy of Sciences. It is called by different names because of the author does not indicate his name in the pages of the work. For this reason, the manuscripts of the dictionary include "Tajnisul-lug'at", "Se lug'oti Badiiy", "Qasida dar halli lug'ot", "Salasa se lug'at", "Manzum dar bayoni lug'ot", "Nazmul-salosa fil-lug'ata", "Nazmul - salasot", and "Lug'ot". And the more article provides information about manuscripts of this source. There are also translations of the work from Persian into Uzbek.

Key words: *literary knowledge, anthethesis, dictionary, manuscript, translation, comments.*

References

- Alisher Navoiy. 1997. *Majolisu-n-nafois*. MAT. 13-jild. Toshkent: Fan.
- Alouddavla Husayn Qazviniiy. *Nafois ul-maosir*. O'zR FA ShI. № 848. Qo'lyozma.
- Badiiy. *Risolai muammo*. O'zR FA ShI. № 2893/IV. Qo'lyozma.
- Norik B.V. 2011. *Biobibliograficheskiy slovar sredniaziatskoy poezii*. Moskva: Izdatelskiy dom Mardjani.
- Mavlono Muhammad Abdulg'anixan Mufarraxobodiy. 1916. *Tazkirat ush-shuaro*. Aligarh: Aligarh instituti nashriyoti bosmaxonasi, 1916.

¹ *Jaloliddin O. Juraev* – doctor of philological sciences, senior researcher of the Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhon Beruni of the Academy of Sciences of Uzbekistan.

E-mail: oyqor@mail.ru

ORCID ID: 0000-0001-8367-186X

For citation: Jo'rayev, J. O. 2022. "Badii Andizhani and about his works «Tajnisul-lug'ot». *Golden scripts* 1: 96-118.

- Mavlono Fazlulloh bin Muhammad bin Amonulloh bin Qozi Jahon bin Hasan bin Sa'd. *Fahmi sibyon*. O'zR FA ShI. № 11518/3. Qo'lyozma.
- Janobilova M.K., Maxmudova N.B. 2019. *Natsionalnaya ideya: strategiya razvitiya Uzbekistana uchebno-metodicheskoe posobie*. Buxara: Durdona.
- G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. 2013. *Habibu-s-siyar fi axbori afrodi bashar*. Toshkent: O'zbekiston.
- Zahiriddin Muhammad Bobur. 2002. *Boburnoma*. Toshkent: Sharq NMAK.
- www.eshia.ir; www.howza.net; www.rasekhoon.net
- Sobranie vostochnykh rukopisey Akademii nauk Uzbekskoy SSR*. 1967. Tashkent: Fan.
- <http://dl.nlai.ir/UI/Search/BasicSearch.aspx?PageNo=1>
- Xamroboev, N. 2019. *Etapi formirovaniya i razvitiya perevodcheskogo dvijeniya v VIII-XIV vekax (s pexleviyskogo na arabskiy i s arabskogo na persidsko-tadjikskiy)*. Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni doktora filologicheskix nauk. Xudjand.

تجنيس اللغات

O'zakdosh so'zlar lug'ati

*Forsiy tildan Jaloliddin Jo'rayev va Bahriddin Umurzoqov
tarjimasi*

(10455.XIV-141b; 5250.V-97b)

بسم الله الرحمن الرحيم

Mehribon va Rahimli Alloh nomi bilan (boshlayman).

از پس حمد خداوند زمین و آسمان
ر لغات نظم کنم همچون لالی عمان

1. Yer-u ko'k egasining maqtovidan keyin, lug'atda nazm etarman
ummon gavharlarini terganday.

در یکی لفظ از سه معنی خواهی ایصاحب کمال
اولش را فتح و کسر و ضم بدین ترتیب خوان

2. Ey kamol sohibi, bir so'zda uch ma'noni topmoq istasang,
birinchisini "fatha" va "kasra" va "zamma", ana shu ketma-ketlikda
o'qi!

رَبُّ دان ان پروردگار رَبُّ دان جمیع ز خلق
رَبُّ آب خالص از انگور و سیب و نار دان

3. "Rabb" – bilgilkim, ul Parvardigor, "ribb" xalqning ko'pligidir.
"Rubb"ni uzum, olma va anorning tabiiy suvi – sharbat, bil!

عُمَر بسیاری ز مال فاخر آمد در لغت
عُمَر کیسه عُمَر بی تدبیر مردی در جهان

4. "G'amr" – lug'atda moli ko'pligidan faxrlanuvchi bo'ldi.
"G'imr" hamyon, "g'umr" bu hayotda tadbirsiz kishi demak.

(10455.XIV-142a)

حَجَر پیش جامه^۱ است منع نیز از کارها
حَجَر عقل قرب^۲ باشد حَجَر نام خانه دان

5. "Hajr" – ko'ylak etagi, yana biror ishdan man' qilmoq. "Hijr"
aqli qurb bo'lar, "hujr" esa uy nomi, buni bil!

صَفَر گرمی در شکم صَفَر است خالی از عدد

¹ 10088.III.: مترک.

² 10088.III; 1380.1; 1158.6: بی‌اص. 5250.5: بی‌اغ.

(V-98a.5250)

صُفْرُ رُوى گُفته اند نیر^۱ مس که آرندش ز کان

6. "Safr" qorindagi issiqlik, "sifr" sanoqdan xoli².

"Sufir" deb yuziga sariq mis surtilganni ayturlar.

دان سَلَام اسم تحیت، سنگلاخ آمد سِلَام

پس سَلَام است استخوانهای کف پای ایجوان^۳

7. "Salom"ni tahiyyat⁴ deb bil, "silom" ni toshloq,

"Sulom" esa oyoq kafining suyagidir, ey javon!

دان سخنها را گِلَام و پس جراثنها کِلَام

پس کِلَام از ارض جای سخت آمد بیگمان

8. Gap-so'zni "kalom" deb bil, yana jarohatlarni "kilom",

Yana "kulom" so'zi yerning qattiq joyidir, shubhasiz!

گرمی سخت است سَهَام، جمع سهم سِهَام

شد سُهَام از روى معنى حصه های وارثان

9. "Sahom" qattiq issiq, "sahm"ning ko'pligi "sihom".

"Suhom" merosxo'rlarning hissalarini ma'nosida bo'lur.

حَلَم ابطال اديم حِلَم باشد برد بار

حَلَم اضغاث است و احلام ايکه هستی ننگه دان

10. "Halam" iforli qilib oshlangan terini yo'q qilish, "hila" chidamli, "hulam" chalkash tush, "ahlom" esa tush.

(10455.XIV-142b)

دُعوت خواندن بخوردن دُعوت خواندن بخور

دُعوت است خواندن بحرب بود یار گران^۵

11. "Da'vat" ovqatga chaqirish, "di'vat"ni "ovqat ye!" deb o'qimoq, "du'vat" deb jangdagi qadrdon do'stga aytilar.

(5250.V-98b)

سَبْت روز شنبه است و سَبْت لعل است از یمن

سَبْت چون خیزد گیاهی در بیابان دان عیان

12. "Sabt" shanba kunidir va "sibt" Yaman la'li, "subt"ni biyobonda o'sadigan gilyoh deb bilgin, aniq!

¹ از: XIV.10455

² Ya'ni, nol (yo'q narsa), demak.

³ 10455.XIV:جوان

⁴ Salomlashmoq, ko'rishmoq.

⁵ V.5250: دعوت است خوانند بحرب هم بود بار یک ران

⁶ 10455.XIV, 1380.II:11518 خیر; VI:جرد.

سَقَط دان چون سَقَط آن کودک که افتد ناتمام
سُقَط آتشپاره است اندر تتورو دیگران

13. “Saqat” chiqindi, “siqat”ni chala tug‘ilgan bola deb bil!
“Suqat” tandir va o‘choqdagi olov uchqunidir.

قَسَط جور و قِسَط عدل و قُسَط نام داروی است
روغنی سازد برایی لقوه و فالج از آن

14. “Qast” jabr-u “qist” adolat-u “qust” dori nomidir, tomir
tortishgan yoki falajga surtma qilar.

حَرَه باشد آنزمین کاندرون است سنگ سیاه
حَرَه تشنه *حَرَه آنزن کوست آزاد از زنان¹

15. “Harra” deb ichida qora tosh bo‘lgan yerni ayturlar,
“Hirra” – tashna, “hurra” – ayollardan ajralib turgan ayol².

صَرَه جمعی از زنان و صَرَه شد شبهای سرد
صَرَه ظرف درهم است گویند او را همیان

16. “Sarrah” ayollarning ko‘pligi, sovuq kechalar – “sirrah”,
“surrah” – dirhamning idishi, uni hamyon derlar.

(5250.V-99a)

قَرَه دان آنشب که سرد است قَرَه سرما مطلقا
قَرَه نور و قره العین است نور دیده گان

17. “Qarra” – sovuq kecha, “qirra” – sovuqdir, so‘zsiz!
“Qurra” – nur-u “qurra ul-ayn” – ko‘zlarning nuri.

مَرَه یکبار است و مَرَه قوت است اندر بدن
مَرَه چیزی تلخ باشد در مذاق انس و جان

18. “Marra” – bir martadir va “mirra” – badandagi quvvatdir,
“Murra” – ins-u jonning ta‘m bilishidagi achchiqdir.

شَرَب باشد مجلس شرب و بود شَرَب آبخور
شَرَب آشامیدن است از باده یا چیزی روان

19. “Sharb” – sharob majlisi demak, “shirb” – suv ichishdir.
“Shurb” – sharob yoki biror narsani yurib ichmoq.

خَرَق ارض واسع است و خَرَق مردی پس ظریف
خَرَق نادانی و حمق است انه قول حسن

20. “Xarq” – keng maydon, “xirq” – zarofatli kishi,

¹ 10455.XIV. حَرَه آنزن کوست از افراد زنان

² “Ayollar guruhidan ajralib chiqqan” ma’nosida.

“Xurq” – nodonlik va axmoqlikdir. Albatta, bu (shu haqda) eng chiroyli soʻzdir.

دان رَقَاق از مردان مردیکه پس باشد دراز
هم رَقَاق است شَطْ رُود^۱ و هم رَقَاق است نوع نان

21. “Raqoq” – kishilar orasidagi boʻyi uzun bir odam,
Ham “riqoq” – daryo qirgʻogʻidir va “ruqoq” – nonning navi.

شَكْل مثل و شبیه باشد^۲ شَكْل شکالی ز زن*
شَكْل اشکالی که سازند از ادیم ریسمان

22. “Shakl” – misoli va oʻxshash boʻlar, “shikl” – ayollar boʻyinbogʻi, “Shukl” – oshlangan iforli echki terisidan qilingan arqon.
(5250.V-99b)

عَلَّ خیانت، عَلَّ عداوت، عَلَّ که بر گردن نهند
ز آهن آنمردود را کو باشد از گردن کشان

23. “Gʻall” – xiyonat, “gʻill” – adovat, “gʻull”ni boʻyinga taqarlar, temir boʻyinbogʻ – kishan, demak.

(10455.XIV-143b)

غَال^۳ جای پس بلند و غِل دان تو بیشه است
غُول جادوی که باشد از شریر جینان

24. “Gʻol” – balandlik orti, “gʻiyl”ni yaylov, toʻqay deb bil,
“Gʻuvl” – yovuz jinlarga qarshi qoʻllanadigan jodudir.

صَلّ بود آواز تیر و صَلّ بود مار صغیر
*صَلّ بود شیر و لحمی^۴ کو دهد بوی گران

25. “Sall”, bu –yoyning ovozi va “sill” – kichkina ilondir,
“Sull” – goʻshtning aynishi, yomon hid taratishi, demak.

بچه آهوه طَلَا دان و طَلَا چیزی که آن
بر درمهای بدن^۵ مالی طَلَا و خدر خان

26. Ohuning bolasini “talo” deb bil, ”tilo” – badandagi shishga surtilgan narsa^۷, “tulo” esa ravonlik, nafislik, goʻzallikdir.

^۱ 10455.XIV: داد.

^۲ 10455.XIV: شکل مثل شیشه باشد.

^۳ 11518.VI: لوغ.

^۴ 10455.XIV: صلّ بود بعضی ز لحمی.

^۵ ظبی II; 11518.VI; 10088.III.1380

^۶ V.5250: مدن.

^۷ Malham.

خوان مَلا بری معده دان مَلا پری ظرف
هم مَلا اوراق انبوه را بخوانند مکیان^۱

27. “Malo”ni me’daning to‘q bo‘lishi, deb bil, “milo” – idishning to‘laligi, yana qalin qog‘ozni makkaliklar “mulo” deydilar.

شد جَلا رفتن ز خانه ، هست پروردن جَلا
(V-100a.5250)
پس جَلا امر عظیم آمد میان همگنان

28. “Jalo” – uydan chiqish bo‘ldi, “jilo” – ko‘paytirishdir, “julo” – kishilar o‘rtasida (sodir bo‘ladigan) katta ish.

دان کلا را تو گیاه و خوان کلا جمع کلا
گردها باشد کُلا و فردا ورا کلیه دان

29. “Kalo”ni² sen giyoh deb bil, “kilo”ni “kalo”ning jam‘i deb o‘qi, “kulo” atrofi, demak va uning birligi “kulliyya”dir.

(10455.XIV-144a)

دان قَرا پشت ، قَرا امر ضیافت با کسی
قریة یکده باشد و جمعش قُراء گفتم عیان

30. “Qaro” – orqadir, “qiro”ni bir kishi bilan ziyofatlashmoq, deb bil, “qarya” – qishloq bo‘lar va uning jam‘in “quro” dedim aniq.

اَمَة هر آهستگی قصد کردن گفته اند
اَمَة جای پس فراخ و اَمَة فرد از امهان

31. “Amma”ni sekinlik bilan maqsad qilish deganlar, “Imma” – kenglikning orqasi, “umma” – ummatlarning birligi.

فَمَة^۳ یک لقمه که گیرد آدمی اندر دهان
فَمَة بالای سر است و فَمَة شد انرا دهان

32. “Fama” – kishi og‘ziga olgan bir luqmadir, “Fima” – boshning tepasi, “fumma” uning og‘zi bo‘lar.

مَلَة الفتوی کتاب است و *مَلَة تا گوش است موی^۴
مَلَة جمعیت که نبود اندر ان غیر از زنان

33. “Malla” – “al-Fatvo” kitobidir va “milla” – quloq atrofidagi soch, “Mulla” ayollardan boshqa bo‘lmagan jam‘iyat demak.

XIV.10455: شد مَلا اوراق معنی بیحد و پس بیکران²

³ Kulo-bot. Cola acuminata.

⁴ 9987.II: قمه.

XIV.10455: مَلَة تا گوش موی^۱

(5250.V-100b)

جَدُّ بود معروف جَدُّ جهد است اندر کارها
جَدُّ بود جای که آنرا کنده اند پیشینان

34. "Jadd" – taniqli, "jidd" esa ishdagi jahddir¹, "Judd" oldindan kavlangan joy, demakdir.

مَدَّة حرف علت است و مَدَّة زرد ابست ریم
مَدَّة باشد روزگاری کو گذشت است از زمان

35. "Madda" – illat harfdir² va "midda" – iflos suyuqlik³, "Mudda" zamondan o'tgan vaqt bo'lagi demak.

جاریه کشتی و جمعش در لغت آمد جَوَّار
شد جَوَّار امن و جَوَّار از جمله همسایه گان

36. "Joriya" – kema va ko'pligi lug'atda "javor" bo'ldi. "Jivor" amn va "juvor" qo'shni bo'lganlar demak.

عَرَف بوی، *عَرَف رگ⁴، عَرَف است بالا دان قد
(XIV-144b.10455)
نیز عادتھا که باشد در میان مردمان⁵

37. "Arf" – hid, "irf" – tomir, "urf" – qadni tik tutishdir, shuningdek, insonlar o'rtasidagi odat.

مَسْک مشک از ادیم و مَسْک خالص است
مَسْک پر خوردن بود از خمر همچون ارغوان

38. "Mask" iforli qilib oshlangan echki terisidan bo'lgan mesh va "misk" – sof mushk, "musk" – sharobni go'yo arg'uvondek ko'p ichmoqdir.

تیره و سخت است صَدَق و صَدَق قول صادق است
(V-101a.5250)

صَدَق آن کمابین زن بهر عروسی بیگمان

39. "Sadq" – qora va qattiqdir, "sidq", bu – to'g'ri so'zidir, "sudq" bu har ayolning kelinlik davrini anglatur.

بَأْس قوت بَأْس شدت بَأْس فقر است ای پسر
زَار و زیرو زُور را شنو ز من اکنون بیان

² G'ayrat.

³ "Kuchsiz" o'zak, arab grammatikasiga ko'ra ا, و va ی harflari.

⁴ Yiring.

⁵ عَرَف صیر: II; 11518.VI; 10088.III.1380

XIV.10455: نیز غارتھا که باشد در میان انس و جان⁶

40. “Ba’s” – qu(vva)t, “bi’s” – shiddat, “bu’s” – yo‘qsullik, ey o‘g‘ul! “Zor-u” va “zir-u” va “zur”ni ma’nosi nima, eshit, qilayin bayon:

زار صوت شیر زیر آنکس که بنشیند بز
زور فعل ظالم بدکیش دان از ظالمان

41. “Zor” – sherning ovozi, “zir” – molaga o‘tirgan kimsa, “zur” – zolimlardan bo‘lgan baxtsiz zolimning fe’li deya bil!

عار عیب و عیر سیار^۱ است در لفظ عرب
تن برهنه عور و جمع عور را عور بدان

42. “Or” – ayb, “iyr” – arab tilida sayr qiluvchi^۲, yalang‘och tana – “uvr”, “avr”ni “uvr”ning ko‘pligi deb bil!

خَلَه^۳ کار و خَلَه خوانند آنچه در دندان^۴ بود
خَلَه *مهر است و محبت^۵ در میان مردمان

43. “Xalla” – ish, “xilla” – tish orasidagi narsa bo‘lar,
“Xulla” – odamlar o‘rtasidagi mehr-u muhabbat.
(XIV-145a.10455)

قُطع بریدن بود قُطع است یکساعت ز شب
قُطع شادروان خانه باشد ایفخر زمان

44. “Qat” – kesmoq, “qit” – kechadan bir soat, demak, “qut” – uying poydevori bo‘lar, ey zamon faxri!
(V-101b.5250)

بَضع یکپاره ز لحم و بَضع جزئی از عدد
بَضع برگرفتن بود بهره ز اندام زنان^۶

45. “Baz” – go’shtning bir bo‘lagi, “biz” – sanoqdan bir bo‘lak,
“buz” – niso andomi^۷dan bahra olmoqlik, demak.

ضَعف باشد خستگی و ضَعف دو چندان بود
ضَعف مضموم است چون مکسور گفتم تا بدان

46. “Za’f” – charchoq, “zi’f” – ikki karra charchash,

^۱ 10455.XIV: سیاره.

^۲ Karvon. Qarang: An-Na‘ym. Arabcha-o‘zbekcha lug‘at. –Toshkent: Meros, 2003. –B. 577.

^۳ II.3809: غله

^۴ 1380.II; 11518.VI; 10088.III: اسنان [asnon] - tish.

^۵ 1380.II; 11518.VI; 10088.III: آن صدقیکه

^۶ V.5250. نهان

^۷ Tana.

“zu’f” – mazmumdur¹, maksur² deganimda uqib ol!

أُم بود قصد و بود اِم از امانت در لغت
أُم بود ما در که زادت در شبستان جهان

47. “Amm” – qasd, ya’ni maqsad, “imm” – lug’atda omonatdir, “umm” – jahon ayvonida seni tuqqan zot, ya’ni onadir.

جَنَّة بستان است جَنَّة هست شیطان رجیم
جَنَّة را میدان سپر در دفع شمشیر و سنان

48. “Jannah” – bog‘, gulzor, “jinnah” – toshbo‘ron qilinib, qu-vilgan shayton, “junnah” – nayza va qilichdan himoyalovchi qalqon deb bil!

حَب دانه حَب حبیب حُب بود نوعی زخم
بر بیابان بر تنگی بر تو جز گندم مدان³

49. “Habb” – dona⁴, “hibb” – suyukli, “hubb” – jarohat turidir, biyobonda tanglikda senga bug‘doydan boshqa narsa, deb bilma.

رَقّ بود کاغذ دگر جلدی که بنویسند بر آن
(XIV-145b; 5250.V-102a.10455)
رَقّ عبودیت بود رَقّ است قلب مهربان

50. “Raqq” qog‘ozdir, yana jild bo‘lib unga yozurlar, “riqq” qulliq demak, “ruqq” mehrli qalbdır.

وَدّ با تشدید بُت دان وَدّ باشد نام مرد
وَدّ محبت دان و دودش جمع تثنیه و دان

51. Tashdidli “vada”ni but deb bil, “Vidd” – er kishining nomidir. “Vudd”ni muhabbat deb bil, “Vadud”ni uning tasniyasi⁷, deb, bil!

عَض گزیدن باشد و عَض نامی از دوزخ بود
عَض ضد لطف یعنی عَف[و] جبر جابران⁸

52. “Azz” – tishlamoq, “izz” – do‘zax nomlaridan biri, uzz” – lutfning ziddi, ya’ni zolimning zulmi va jabri.

عَزّ غرور نیز دفع طیر باشد چو زده را

¹ Qo‘shilgan.

² Ajralgan.

³ 11518.VI; 10088.III: بر بیابان بر نیکی بر کندم خوان روان

⁴ Urug‘, boshq.

⁶ II; 11518.VI; 10088.III.1380 قرطاس.

⁶ II; 11518.VI; 10088.III.1380 دگر q‘yo.

⁷ Ikkiligi, ikkilangani.

⁸ 10455.XIV: عَض ضد لطف یعنی جزو چیز و جان بر آن.

غَرَّ بَعِيرٌ غُرٌّ بُوْد سَفِيْد رُوِي نِيكُوَان¹

53. “G‘arra” – g‘urur, yana chirillayotgan qushni haydamoqdir. “G‘irr” – qoziq tishi chiqqat tuya, “g‘urr” – yaxshi kishilarning oq yuzi, demak.

بَشْنُو از مَن حَجَّه رَا و حَجَّه رَا و حُجَّه رَا

حَجَّه يَك حَجَّ حَجَّه سَال حَجَّه بَر هَان اَسْت هَان²

54. “Hajjah” – bir hajj, demak, “hijjah” – yil degani, “hujjah” – burhon, ya’ni dalil, hujjatdir, bil!

جُلَّه اَسْت اَشْرَاف قَوْم و جُلَّه ذَات عَادِل اَسْت

جُلَّه اَمَد ظَرْف فرما از ظَرْف نَكْتَه دَان³

55. “Jallah” – ulusning peshvosi, eng mo‘tabar kishisi, “jillah” – odil kishidir, “jullah” esa zarofat, nukta don.

(V-102b.5250)

پَاك بَا حَشْمَت جَلَال، جَمْع جُلَّه شَد جَلَال

مَنْع كَرْدَن دَان جُلَال از قَوْم از بَدْسِيْر تَان

56. “Jalol” – poklik bilan ulug‘lik, “jalla”ning ko‘pligi “jilol” bo‘ldi, “julol” – qavmni yomon xulqlilardan qaytarish deb bil.

(10455.XIV-146a)

خُفَّ مَصْدَر دَان ز خَف خُفَّ رَا مَعْنَى سَبِك

خُفَّ بُوْد مَوْزَه بَرَا مَد پَاي هَاي مَرْدَان⁴

57. “Xaffa” – “xaff”ning masdaridir, “xiff”ning ma’nosi – yengil, “xuff” – qo‘y yoki echki terisidan tikilgan erkaklar oyoq kiyimi.

دَر نَمَاز اَمَد نَشَسْتَن قَعْدَه قَعْدَه هِيَا تَش

قَعْدَه اَسْت اَسْب رَا هَدَارِي كُو بُوْد دَايْم رَوَان⁵

58. “Qa‘da” – namozdagi o‘tirish, “qi‘da” – o‘tirish holati, shaklidir, “qu‘da” – doim yo‘lda bo‘ladigan ot uchun to‘lanadigan boj.

سَوَقَ رَا نَدَن سَبِيْقَ مَجْهُول اَسْت از مَاضِي و بَا ز⁶

سَوَقَ بَا زَار اَسْت و جَمْع سَاق او قَلْب كَمَان

59. “Savqq” – haydamoq, quvmoq, “siyqq” – moziy zamondan majhul shakl, “suqq” – bozor, “soqq”ning jam‘i – kamonning qalbidir.

¹ 10455.XIV: bu ikki bayt o‘rni bo‘sh qoldirilgan.

² 10088.III: دَان

³ 11518.VI; 10088.III.1380: II: جَلَه التمرست جَلَه دَر عَرَب خَوَانَدَن چَنَان.

⁴ 1380.II; 11518.VI; 10088.II: خُفَّ بُوْد مَوْزَه بَرَا مَد مَرْدَان.

⁵ 1380.II: bu bayt yo‘q.

⁶ XIV.55401: يَاز.

مَنْه نامی از زنان^۱ و مَنْه منت بر کسان
مَنْه قوت دان و باشد جمع این مَنه مَنان^۲

60. "Manna" – ayollarning nomi, "minna" – kishilarga minnat, "munna"ni quvvat, deb, bil, "munna"ning jam'i – "mannon"dir.

شد قوئ ستحارارض و قِوة است قوی
(V-103a.5250)
جمع قوه شد قُوی ای بهترین فاضلان

61. "Qavviy" – yer qattiqligi, "qivva" qiviyy³, "quvviy" esa "qavviy"ning ko'pligi, ey fozillarning eng yaxshisi!

عقد بستن باشد و *عقد از لالی رشته است^۴
عقد جمع است از عقود مؤمنان] با] مؤمنان

62. "Aqd" – bog'lamoq, "iqd" la'lining bog'idir, "uqud" – mo'minlarning mo'manlar bilan kelishuvi (uqd) ko'pligi.

شد طوی را گرسنه، کار دو باره شد طوی
(10455.XIV-146b)
شد طوی جاهی که در بر است بهر ساکنان

63. Ochlik – "tavi" bo'ldi, ikki marta qilingan ish – "tivi", "tuvi" – har bir sokin uchun baland maqom.

آب بسیار است رُوی، آب کودیها رُوی
منظر عالی رُوی از بهر جمع ناظران

64. Ko'p suv – "raviy", "riviyy" – ko'lmak suv, ko'ruvchilarning qarashicha, a'lo ko'rinish – "ro'y".

بسط باشد از بساط گستردن بسط باشد ناقه
بسط باشد از بساط و گر توانی گستران

65. "Bast" – gilam to'shamoq, "bišt" – urg'ochi tuya, "bust" ham gilam to'shamoqdir, agar bilsang.

عُرُض ضد طول باشد عِرْض باشد آبروی
عُرُض برامون آن وضع که سازندش حِگَن

66. "Arz" – uzunning ziddi, ya'ni kenglikdir, "irz" esa obro'-e'ti-bor, "urz" – yon, biqin.

(V-103b.5250)

¹ XIV.55401: زمان.

² XIV.55401: مهنان.

³ Quti, sandiq, sandiqcha.

⁴ XIV.55401: عقد از لالی سراسست.

خُطْب کارى پس عظیم و **خُطْب** کردن خُطْب،
خُطْب جمع خُطْبَه، کو بخاک آمیخته رنگ خزان

67. “Xatb” – ulkan, sharaflı ish, “xitb” – xutba o‘qimoq¹, “xutb” – xutbaning ko‘pligidir.

رُبْع باشد منزل و جمع بود بیشک رُبْع
 رُبْع نوعی از بُت است و چهار یگرا رُبْع دان

68. “Rab” – manzil (makon, uy, joy), “ribo” – uning ko‘pligidir, “rub” – butning bir turi va “rub”ni har narsaning to‘rtidan biri, deb bil.

عَبْر مصدر از عبور وو عَبْر شط دجله است
 عَبْر باشد اشتر ماده که هست او نوجوان

69. “Abr” – “ubur”ning masdari, “ibr” – Dajla qirg‘og‘i, “ubr” – yosh urg‘ochi tuya, demakdir.

(10455.XIV-147a)

وَجَد حالت، وِجْد آن مصدر که باشد از وجود
 وُجْد آمد ضدّ دشواری که آسانی است آن

70. “Vajd” – holat, “viyd” – “vujud”ning masdari, “vujd” – mushkul ishning ziddi demak, ya’ni yengillik.

شُعَب آمد یک قبیله از قبایل عرب،
 یک دو سه راه است شُعَب، شُعَب بین القریتان

71. “Sha‘b” – arab qabilalaridan birining nomi, “shi‘b” – dara degani, “shu‘b” – ikki qishloq orasi.

ضَبْع جامه رنگ کردن، ضَبْع رنگ ضَبْع تند
 (V-104a.5250)

اسب دنباله سفید² و گوش با خود طرف دان³

72. “Zab” – kiyimni bo‘yash, “zib” – rang, “zub” esa quyrug‘i oq va qulog‘ini burgan ot.

قَطَر و قَطَر، بَشَنو قَطَر باران، قِطْرَمَس
 قُطْرَعود و نیز جانب دان ز روی امتحان

73. “Qatr” – tomchilamoq, yomg‘ir tomchisi, “qitr” – mis, “qutr” – qaytmoq, shuningdek, bir tomonga yuz qaratmoq, sinash yuzasidan.

جَزَع ترس و بیم باشد جَزَع یک پله ز چشم

¹ Kuyov qilmoq

² O‘tish.

³ XIV.10455: اسب نیاله سفید.

⁴ II; 10088.III.1380: اسب دم اسفید با یک گوش با خود طرف ران; VI.11518: اسب دم اسفید با یک گوش با خود طرف دان; V.5250: اسب دنباله سفید گوش با خود طرف ران

جَزَع از الوان بود رنگی برنگ زعفران

74. "Jaz" – qo'rqmoq va vahimadir, "jiz" – ko'zdan bir qatlam, "juz" – za'faronga o'xshash ranglardan bir rang, demak.

رَسُول یکجوشیدن است و رَسُول شیر خالص است
رَسُول جمعى از رسول أنبیا بیغمبران^۱

75. "Rasl" – bir qaynash, "risl" – tabiiy sut, "rusul" esa "ra-sul"ning ko'pligi – nabiyilar, payg'ambarlar.

یک عدد را عدّه دان و جمع او را عدّه گوی
(10455.XIV-147b)
جمع عدّه آمد از طریق امتحان

76. "Adda" – bir dona, bitta, degani, ko'pligini "idda" de, "udda", bu – "idda"ning ko'pligidir, sinash yo'ldan.

قَبْل باشد بیش و دیگر قَبْل طاقت را شمر
قَبُول جمع قبله یعنی قبله اسلامیان

77. "Qabl" – old degani, yana "qibl"ni toqat, deb hisobla, "qubul" esa "qibla"ning ko'pligi, ya'ni musulmonlarning qiblasidir.

(V-104b.5250)
قُدْح مصدر دان قِدْح النار یکقدح از علاج
قُدْح جمع است از قدهای می پیر مغان

78. "Qadh" – masdar²dir, "qidah" – dorilardan bir dori-malham, "quduh" – qadahning ko'pligi, may quyguvchining qadahlaridan.

سَم بود زهر و سَم کَنجَد و سَم سَوفار دان
رُوح راحت ریح بوی و رُوح مهتجه است جان

79. "Sam" – zahardir, "sim" – zar, ya'ni xazina, "summ"ni otning taqasi, deb bil, "ravh" – rohat, "riyh" – hid, "ruh" – jonning asosi, demak.

جَمع املاک است مَلک و مَلک مملوک از جهان
مُلک مَلک شام یا شیراز یا هندوستان

80. "Amlok"ning ko'pligi – "malik", "milk" – jahon mamluki (xizmatkori), "mulk" – Shom yo Sheroz va yo Hindiston podshohining yeri.

قَدْر مقدوری ز چیزی قَدْر و یك از هر طبخ
قُدْر جمع اقدر است که کوتاه گردن ان

^۱ XIV.10455: پادشاه و بنده گان

^۲ O'zak so'z.

81. “Qadr” – o‘lchalgan narsalardan biri, “qidr” – pishirilgan taomdan biri, “qudr” – “aqdar”ning ko‘pligidir, ma’nosi – kalta bo‘yinlilar.

*قَرْن یک قرن است^۱ شاخ قَرْن نزدیکی بحرب
قُرْن شاخ *نرگاو گسفنندان در جهان^۲

82. “Qarn” – bir asr va shox, “qirn” – jangda yaqinlashish, “qurn” – ho‘kiz va qo‘y (qo‘chqor)larning shoxidir.

(XIV-148a.10455)

دان رَبا را از تضاع و اسم سود است از رَبا

(V-105a.5250)

پس رُبی را تو ده های خاک کن شرح و بیان

83. “Rabo” – siqilmoq³, “ribo” – sudxo‘rlilik, “rubo”ni tuproq uyumi deb sharhu bayon qil!

خوان عَدَى ظلم و تعدی و عَدَى جمع عدد
دان عَدَى اسم قبیله در حدود کوفیان

84. “Adda” – zulm va zo‘ravonlik, “idda” – “adad”ning⁴ ko‘pligi, “Udd(iy)” – kufaliklardan bir qabila nomi.

شد رَباب ابر مطر، هست نوازاده رَباب
هست فی المعنی رَباب از گوسفندان کلان

85. “Rabob” – yomg‘irli bulut, “ribob” – yangi tug‘ilgandir⁵, “rubob” – qo‘yning yirik gavdali turi.

طَرَق آن آبی که اندر او بود جمع دو آب
طَرَق رس میش طَرَق است راه طارق راهیان

86. “Taraq” – ikki suv qo‘shilgan katta suv, “tiraq” – qo‘y yungini yigirmoq, “turuq” yo‘l yurguvchilar uchun katta yo‘llar.

صَرَم بریدن بود صَرَم است جمعی از رجال
صَرَم هجران و جدایی باشد از تن باز جان

87. “Saram” – kesmoq, “siram” – rijolning⁶ ko‘pligi, “suram” – ayriliq va judolik tan, yana jondan bo‘lar.

فُرَق فصل است از دو چیزی فِرَق اسم هر یکی است
فُرَق اصل است از بنای خانهای خانه دان

¹ قَرْن سی سال است: XIV.10455

² آورز شاخ گاو گسفنندان قحان: III.11518; III.1380.II:10088 ; آورز شاخ گاو گسفنند قحان

³ Nafas qisishi – astma.

⁴ Sanoq, son.

⁵ Chaqaloq.

⁶ Erkak

88. "Faraq" – ikki narsadan iborat bo'lak, "fraq" – har bir guruh nomi, "furaq"ni asli bino xonalaridan bir xona bil!

(V-105b.5250)

شعر موی شعر معروفست یعنی نظم و بیت

(10455.XIV-148b)

شعر آن گلرخه او را موی باشد تا میان

89. "Sha'r" – sochdir, "she'r" – nazm va bayt bo'lib, barchaga ma'lum, sochi beligacha tushadigan gulyuzli "sho'r"dir.

ضَرّ زیان مال دادن ضَرّ بود اسم پنهان

ضَرّ بیماریکه دارد شخص زار و ناتوان

90. "Zarr" – molning ziyonini bermoq, "zirr" – yashirin ism, "zurr" esa bechorahol va notavon kishisi bor bemor.

عَشْر شین ساکن ده است عَشْر اشتر کو خورد

بعد ده روز آب عَشْر است ده یکی من کیف کان

91. "Ashara" – qishloqda yashovchining yetishmovchiligi, "ishr" – o'n kundan keyin suv ichadigan tuya, "ushr" – biron narsaning o'ndan bir hissasidir.

*قَصَّة حصه ز چیری^۱ و قَصَّة شرح واقعات

قَصَّة یکموی که خصلت باز جمع آورده آن^۲

92. "Qassa" – bir narsadan bir bo'lak, "qissa" – voqe'alar sharhidir, "qussa" – bir tola sochdir, unda xislatni qayta jam qilganlar.

وَرْد اسب سرخ باشد اسم گل هم ورد شد

ورد معروف است جمع اوراد وُرد است از روان^۴

93. "Vard" – qizil ot, gulning nomi ham "vard" bo'ldi, "vird" – "avrod"ning ko'pligi^۵, "vurd" – ravondandir.

اثر مصدر از اثر های حدیث مصطفی

(V-106a.5250)

آنچه بفرد شند اثر و اثر جای زخم دان^۶

94. "Asar" – Muṣṭafo hadisi xabari masdaridir, Birlikdagi narsa – "isar" va jarohatning izi – "usar".

¹ Go'zal.

² 10455.XIV:1380 .II: قَصَّة یکحصه ز بصیر; .

³ 10088.III: bayt tushib qolgan.

⁴ 10088.III: bayt tushib qolgan.

⁵ Duo, zikrlar.

⁶ 10455.XIV; 11518.V: bayt tushib qolgan.

این چنین لفظ بدیعی را بدیعی نظم کرد
بود در روزگار از وی همی نام و نشان

95. Bu hayotda u o'zidan bir nom-u nishon bo'lsin deb, mana shu
yo'sinda badiiy so'zni Badiiy nazm ayladi.

(10455.XIV-149a)

هست در وادی عرفان تشنه ز آب معرفت
ساز سیرایش الهی ای آله انس و جان

96. Irfon vodiysida ma'firat suviga tashnalar bor,
Chanqog'ini qondir, Iloho, ey, insu jonning Ilohi!

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

“Oltin bitiglar – Golden Scripts” jurnali – Sharq adabiyoti va madaniyati, ijtimoiy-ma’naviy hayoti, tilshunoslik va aniq fanlar, dinshunoslik va ilohiyotshunoslikka oid ahamiyatli qo’lyozma manbalar, xalq og’zaki ijodi namunalariga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini chop etishga mo’ljallangan.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo’lyozmalar yil davomida o’zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, turkiy tillarda topshirilishi mumkin. Agar muallif o’z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo’lsa, unda qo’lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etishi kerak.

Qo’lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitiglar@gmail.com) elektron pochtasiga yuborilishi kerak. Iqtiboslar va izohlar bo’yicha MS Word menejerini qo’llash lozim.

Barcha qo’lyozmalar muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma’lumot bilan yuboriladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig’i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o’ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo’lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantirilishi lozim.

Maqola matni 3 000–5 000 so’zdan iborat bo’lishi kerak.

100–150 so’zdan iborat o’zbek va ingliz tillaridagi abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so’zdan kam bo’lmagan kalit so’zlar (o’zbek va ingliz tillarida). Abstrakt maqolaning maqsadi, metodologiyasi va natijalarini qisqacha ifodalashi kerak.

Adabiyotlar ro’yxati 5 sahifadan oshmasligi lozim.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo’lishi mumkin) 1500 so’zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so’ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo’limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to’q bo’yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o’zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tillarda yozilgan bo’lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola sarlavhasidan keyin sahifaning o’ng chetida muallifning ism-familiyasi yozilib, oxiriga yulduzcha (*) ishorasi

qo'yiladi va sahifa pastida muallif haqida quyidagi qisqa ma'lumotlar beriladi: F.I.O., ilmiy daraja va unvon; ish joyi; e-pochta va ORCID ID (raqami).

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – *yotiq*, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satrboshidan, boshqa barcha qatorlari abzasdan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

6.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17^a]

7.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011(a), 99]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Vohidov, Rahim va Husniddin Eshonqulov. 2006. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va Eshonqulov 2006, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Navoiy ijodida Ya'juj-Ma'juj obrazi." *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 130 – 133. Toshkent: Mashhur-press.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 131]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL.
Foydalanilgan sana.

Adizova, Iqboloy. 2020. *Thinker poetess of the East*. Germany:
Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/>. 12.07.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Adizova 2020, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar:
Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek
matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti.
<http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 1987, 19-hujjat]

7.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni:
maqola sahifalari.

Alimuhamedov, Rixsitilla. 2018. "Qadimgi turk-moniy adabiyoti."
Oltin bitiglar 1: 65 – 76.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Alimuhamedov 2018, 70]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Saddi Iskandariy" dostonidagi adabiy ta'sir va o'ziga xoslik masalasi xususida." *O'zbekistonda xorijiy tillar* 3: 229 – 235. doi: 10.36078/1596780050.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 231]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?." *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Sobirov, Ergash va Akmal Kenjayev. 2010. "Milliy qadriyat va globallashuv". *New York Times*, 27.02. <http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sobirov va Kenjayev 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "*The Chicago Manual of Style, 16th Edition*" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

IZOHLAR

Ushbu son “Oltin bitiglar” tahririyatida sahifalandi.
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi 103-uy.
e-mail: goldenscripts@gmail.com
Tel.: +99894 697-97-04
Bosishga 30. 03. 2022-yilda ruxsat etildi
Qog'oz bichimi 70x100 1/16/.
nashriyot bosma tabog'i: 8

Jurnal 2017-yil 26 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot
agentligi tomonidan № 0940 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan
ro'yxatga kiritilgan.
Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

“Mashhur-Press” bosmaxonasida chop etildi.
Buyurtma №0440 Adadi 300 dona.
Bosmaxona manzili:100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy. Tel.: +99890 900 75 77,
+99894 659 94 62